


H.T.Umarov,  
Z.M.Maxmudov,  
U.A.Safarova



# Lotin tili

**VA TIBBIY-FARMATSEVTIK  
TERMINOLOGIYA ASOSLARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI


**H. T. UMAROV,**

**Z. M. MAXMUDOV, U. A. SAFAROVA**

# LOTIN TILI VA TIBBIY-FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA ASOSLARI

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining  
barcha ta'lim yo'nalishlari uchun  
darslik

*to'ldirilgan ikkinchi nashr*



"HILOL MEDIA" NASHRIYOTI  
TOSHKENT - 2023

UO'K 811.124:611/618(075.8)

KBK 81.2lot-92373

U 10

**H.T.Umarov, Z.M.Maxmudov, U.A.Safarova**

Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari. [Matn]: darslik, to'ldirilgan ikkinchi nashr / H.T.Umarov, Z.M.Maxmudov, U.A.Safarova-Toshkent: HILOL MEDIA, 2023. - 380 b.

*Mazkur "Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari" darsligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzilib, tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan, 2015-yilda nashr etilgan shu nomli darslikning to'ltirilgan, qayta ishlangan, ikkinchi nashridir.*

*Darslikdan jamoat salomatligi texnikumlari va tibbiyot kollejlari o'quvchilari, tibbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash kurslarining o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.*

*Darslikning maqsadi talabalarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, o'qish va yozish ko'nikmalarini oshirishdan iborat.*

**Mualliflar:**

**H.T.UMAROV**

– Samarqand Davlat tibbiyot universiteti  
Tillar kafedrasida sobiq katta o'qituvchisi,

**Z.M.MAXMUDOV**

– kafedra assistenti,

**U.A.SAFAROVA**

– Samarqand Davlat chet tillar instituti  
roman-german filologiyasi fakulteti fransuz tili va  
adabiyoti kafedrasida dotsenti, DSc.

**Taqrizchilar:**

**U.D.QARSHIBOYEVA**

– Samarqand Davlat chet tillar instituti fransuz tili  
va adabiyoti kafedrasida professori, filologiya fanlari  
doktori

**S.J.YULDASHEV**

– Samarqand Davlat tibbiyot universiteti  
farmakologiya kafedrasida mudiri, tibbiyot fanlari  
nomzodi, dotsent.

**ISBN 978-9910-731-08-2**

© H.T.UMAROV, 2023 y.

© "HILOL MEDIA", 2023 y.



## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI ..... 10

### KIRISH

LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI..... 11

### I BO'LIM. ANATOMIK-GISTOLOGIK ATAMALARNING YASALISHI

#### 1-DARS

1 -§. LOTIN TILI ALFAVITI..... 14

2 -§. UNLILARNING O'QILISHI..... 19

#### 2-DARS

3-§.DIFTONGLAR..... 21

4-§. UNDOSHLARNING O'QILISHI..... 21

6-§. DIGRAFLAR (yunoncha harf birikmalari) ..... 24

7-§. LEKSIK MINIMUM..... 25

#### 3-DARS

8-§. CHO'ZIQ VA QISQA BO'G'INLAR ..... 26

9-§. SO'ZLARNI BO'G'INLARGA BO'LISH QOIDALARI..... 26

10-§. URG'U..... 26

11-§. LEKSIK MINIMUM ..... 28

#### 4-DARS

12-§. OT (NOMEN SUBSTANTIVUM)..... 29

13-§. I-II TURLANISHDAGI OTLARNING SUFFIKSLARI..... 34

14-§. LEKSIK MINIMUM ..... 35

#### 5-DARS

15-§. MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI..... 36

16 -§. LEKSIK MINIMUM ..... 37

#### 6-DARS

17-§. SIFAT (ADJECTIVUM). SIFATNING NEGIZI. SIFATLARNING  
I VA II GURUHLARI..... 38

18 -§. II GURUH SIFATLARINING XUSUSIYATLARI ..... 39

19-§. I-II TURLANISHDAGI SIFATLARNI YASOVCHI QO'SHIMCHALAR ..... 42

20 -§. LEKSIK MINIMUM ..... 43

#### 7-DARS

21-§. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI..... 44

22-§. LEKSIK MINIMUM ..... 46

#### 8-DARS. ANATOMIK SO'ZLARNING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK

TUZILISHI ..... 49

23-§. MURAKKAB ANATOMIK IBORALARNING TARJIMASI..... 49

24-§. MURAKKAB ANATOMIK IBORALARNI TARJIMA QILISH ..... 50



25-§. LEKSIK MINIMUM .....	51
26 -§. LEKSIK MINIMUM .....	52
<b>9-DARS</b>	
27-§. SIFAT DARAJALARI. QIYOSIY DARAJA SIFATLARINING YASALISHI VA TURLANISHI .....	53
28-§. LEKSIK MINIMUM .....	54
<b>10-DARS</b>	
29-§. SIFAT DARAJALARI. ORTTIRMA DARAJA SIFATLARINING YASALISHI VA TURLANISHI .....	55
30-§. NOTO'G'RI DARAJALI SIFATLAR.....	56
31-§. YETISHMAGAN DARAJALI SIFATLAR.....	57
32-§. LEKSIK MINIMUM .....	60
<b>11-DARS</b>	
33 -§. III TURLANISH OTLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT .....	60
34 -§. III TURLANISH MASCULINUM RODDAGI OTLAR .....	61
35 -§. LEKSIK MINIMUM .....	66
<b>12-DARS</b>	
36 -§. III TURLANISH FEMININUM RODDAGI OTLAR.....	66
37 -§. LEKSIK MINIMUM .....	68
<b>13-DARS</b>	
38 -§. III TURLANISHDAGI NEUTRUM RODIDAGI OTLAR.....	69
39 -§. LEKSIK MINIMUM .....	71
40 -§. III TURLANISH OTLARINING XUSUSIYATLARI.....	72
<b>14-DARS</b>	
41-§. IV-V TURLANISHDAGI OTLAR.....	73
42-§. LEKSIK MINIMUM .....	75
43-§. I-V TURLANISHDAGI OTLAR VA I-II GURUH SIFATLARINING BOSH KELISHIK KO'PLIK (NOMINATIVUS PLURALIS) SHAKLINI YASASH.....	76
44-§. LEKSIK MINIMUM .....	80
45-§. I-V TURLANISHDAGI OTLAR VA I-II GURUH SIFATLARINING QARATQICH KELISHIGI KO'PLIK SONI (GENETIVUS PLURALIS) SHAKLINI YASASH.....	81
46-§. OTLARNING VA II GURUH SIFATLARINING GENENETIVUS PLURALIS SHAKLINI YASASH UCHUN QUYIDAGILARGA AHAMIYAT BERING!.....	82
47-§. LEKSIK MINIMUM .....	84
48-§. NOMINATIVUS PLURALIS VA GENETIVUS PLURALIS.DA ANATOMIK TERMINLAR.....	85
49-§. BA'ZI SINONIMLARNING ISHLATILISHI. ....	88

50 -§. MUHIM LOTINCHA-YUNONCHA OLD QO'SHIMLARNING MA'NOLARI.....	89
<b>15-DARS</b>	
51-§. SONLAR (NUMERALIA) .....	91
52-§. SANOQ SONLARNING YASALISHI .....	91
53-§. SANOQ SONLARNING TURLANISHI .....	92
54-§. TARTIB SONLAR – NUMERALIA ORDINALIA.....	93
55-§. SANOQ VA TARTIB SONLARNING JADVALI .....	94
56-§. LOTINCHA VA YUNONCHA OLD QO'SHIMCHALI SONLAR.....	96
57-§. AJRATUVCHI SONLAR VA RAVISH SONLAR – NUMERALIA DISTRIBUTİVA ET NUMERALIA ADVERBIA.....	97
58-§. O'TILGAN MAVZULARNI TAKRORLASH VA MUSTAQIL ISHLASH UCHUN MASHQLAR.....	99
59-§. LEKSIK MINIMUM .....	101
60-§. TAKRORLASH UCHUN ANATOMIYA BO'LIMIDAN TEST SAVOLLARI.....	102
61-§. QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN MATNLAR HIPPOCRATIS JUS JURANDUM (Gippokrat qasamyodi) .....	118
62-§. PREDLOG (PRAEPOSITIO).....	120
<b>LOTINCHA-O'ZBEKCHA LUG'AT.....</b>	<b>122</b>
<b>O'ZBEKCHA-LOTINCHA LUG'AT.....</b>	<b>138</b>

## II BO'LIM. KLINIK IBORALAR

<b>16-DARS</b>	
1-§. KLINIK IBORALARNING TUZULISHI.....	152
2-§. KLINIK IBORALARNING BIR QANCHA QOIDALARINI RASMIYLASHTIRISH.....	153
4-§. LEKSIK MINIMUM.....	155
5-§. ENG KO'P QO'LLANILADIGAN YUNONCHA OLD QO'SHIMCHALAR (PREFIKSLAR) .....	156
<b>17-DARS</b>	
6-§. ORGAN VA TANA QISMLARINING YUNONCHA, LOTINCHA, O'ZBEKCHA DUBLETLARI .....	157
7-§. FAN, USUL, TEKSHIRISH, DAVOLASH, KASALLIK MA'NOLARINI ANGLATUVCHI YUNONCHA SO'ZLAR (SUFFIKSLAR) .....	161
<b>18-DARS</b>	
8-§. ORGAN VA TO'QIMALARNING YUNONCHA-LOTINCHA-O'ZBEKCHA DUBLETLARI.....	163

9-§. ORGAN VA TO'QIMALARNING PATOLOGIK O'ZGARISHLARINI, TERAPEVTIK HAMDA XIRURGIK USULLARNI IFODALOVCHI YUNONCHA TERMIN ELEMENTLAR.....	167
<b>19-DARS</b>	
10-§. TO'QIMALAR, ORGANLAR, SUYUQIIKLAR, SEKRETLAR, JINS HAMDA YOSHNI IFODALOVCHI YUNONCHA, LOTINCHA, O'ZBEKCHA DUBLETLARI.....	169
11-§. FUNKSIONAL VA PATALOGIK HOLAT HAMDA JARAYONLARNI IFODALOVCHI YAKKA ATAMA ELEMENTLAR.....	176
<b>20-DARS</b>	
12-§. TURLI FIZIK XOSSA, XUSUSIYAT, SIFAT, ALOQADORLIK VA BOSHQA BELGILARNI IFODALOVCHI YAKKA ATAMA ELEMENTLAR.....	179
<b>21-DARS</b>	
13-§. KLINIKA BO'LIMINI TAKRORLASH.....	181
14-§. TAKRORLASH UCHUN KLINIKA BO'LIMIDAN TEST SAVOLLARI.....	183
<b>KLINIKA BO'ILIMI BO'YICHA ILOVALAR.....</b>	<b>199</b>
1-QISM.....	199
2-QISM.....	202
3-QISM.....	204
4-QISM.....	206
5-QISM.....	210
6-QISM.....	211
7-QISM.....	214
8-QISM.....	215
9-QISM.....	217
SO'Z YASALISHI. LOTIN TILI PREDLOGLARINING KLINIK TERMINLARDA OLD SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHA SIFATIDA QO'LLANILISHI.....	218
SO'Z YASALISHI. YUNON TILIDAGI PREDLOGLARNING KLINIK TERMINLARDA OLD SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHA SIFATIDA QO'LLANILISHI.....	221
KLINIK TERMINLARGA NAMUNALAR.....	224
KO'P SO'ZLI KLINIK TERMINLAR.....	233
KO'P SO'ZLI TASHXIS NOMLARI.....	234

### **III BO'LIM. DORISHUNOSLIK IBORALARI. RETSEPT**

#### **22-DARS**

1-§. DORIVOR VOSITALARNING NOMLANISHI.....	236
2-§. DORI SHAKLLARI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT.....	238
3-§. LEKSIK MINIMUM.....	246



**23-DARS**

4-§. I. DORI NOMLARI YASALISHIDA KO'P QO'LLANUVCHI MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QISMLAR VA ULARNING MA'NOLARI.....	247
5-§. II. DAVOLASHDA FOYDA BERADIGAN PREPARAT/ DORI NOMLARI/NING MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALARI .....	248
6-§. III. DORI NOMLARINI YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QISMLAR .....	249
7-§. DORI NOMLARINING DORI SHAKLLARI BILAN QO'LLANILISHI .....	251

**24-DARS**

8-§. FE'L (VERBUM) .....	252
9-§. LEKSIK MINIMUM.....	255

**25-DARS**

10-§. FARMASEVTIK TERMINLARNI VA TARKIBIY QISMLARNI ISHLATILISHINI MUSTAHKAMLASH. ....	257
11-§. LEKSIK MINIMUM. KENG TARQALGAN DORI SHAKLLARI.....	262
12-§. LEKSIK MINIMUM. DORILARNING FARMOKOLOGIK TA'SIR NOMLARI – NOMEN PHARMACOEFFECTUUM REMEDIORUM .....	263

**26-DARS**

13-§. ANIQLIK VA MAJHULLIK NISBATI SHART MAYLI HOZIRGI ZAMON ( <i>CONJUNCTIVUS PRAESENS INDICATIVI ACTIVI ET PASSIVI</i> ).....	266
14-§. LEKSIK MINIMUM .....	269
15-§. LEKSIK MINIMUM .....	270
16-§. DORILARNING NOMLANISHI .....	270

**27-DARS. RETSEPT**

17-§. I. RETSEPT HAQIDA TUSHUNCHA .....	271
18-§. III. RETSEPT YOZISH QOIDASI .....	273
19-§. LEKSIK MINIMUM .....	278

**28-DARS**

20-§. RETSEPTLARDA TABLETKA, SHAMCHALAR VA KO'Z PLYONKALARINI YOZISHDA TUSHUM KELISHIGINING QO'LLANILISHI.....	279
--	-----

**29-DARS. KIMYOVIY MODDALAR VA BIRIKMALAR NOMLARINING RETSEPTURADA QO'LLANILSHI**

21-§. KIMYOVIY ELEMENTLAR.....	284
22-§. KISLOTALAR NOMLARI.....	286
23-§. O'QING VA BIR NECHA MUHIM KIMYOVIY ELEMENTLARNI ESDA SAQLANG.....	289
24-§. LEKSIK MINIMUM .....	289
25-§. LEKSIK MINIMUM. KISLOTALARNING NOMLANISHI.....	290
26-§. LEKSIK MINIMUM. DORILARNING NOMI .....	291

27-§. OKSIDLAR, GIDROKSIDLAR .....	291
28-§. TUZLAR.....	292
29-§. LEKSIK MINIMUM.TUZ NOMLARIGA MISOLLAR .....	294
<b>30-DARS</b>	
30-§. RETSEPTURADA QISQARTMA SO'ZLAR .....	299
31-§. DORIVOR O'SIMLIKLARNING NOMLARI .....	304
32-§. DORI NOMLARI.....	304
33-§. FARMATSEVTIK IBORALAR BO'LIMINI TAKRORLASH UCHUN MASHQLAR .....	305
34-§. TAKRORLASH UCHUN RETSEPTURA BO'LIMIDAN TEST SAVOLLARI .....	315
FARMATSEVTIK TERMİNOLOGIYA BO'YICHA İLOVALAR .....	332
RAVISHLAR (ADVERBIA).....	332
SIFATLARDAN YASALGAN RAVISHLAR .....	333
RAVISHLARNING DARAJALARI .....	334
RETSEPTURA VA AMALIY MEDITSINADA QO'LLANILUVCHI RAVISHLAR LOTIN RAVISHLARINING YUNON TILIDAGI MUQOBILLARI.....	334
VAZN, O'LCHOV, HAJM, FOIZ BELGILARI.....	335
RETSEPTURADA FOIZLAR .....	336
PRONOMİNA – OLMOSHLAR.....	337
DORI SHAKLLARI NOMLANISHI. QATTIQ, YUMSHOQ, GAZSIMON VA SUYUQ DORI SHAKLLARI .....	340
QATTIQ DORI SHAKLLARI (FORMAE MEDICAMENTORUM DURAE) .....	341
KUKUNLAR (PULVERES).....	341
KAPSULALAR (CAPSULAE).....	343
TABLETKALAR (TABULETTAE) .....	343
DRAJELAR (DRAGEE) .....	344
GRANULALAR (GRANULA) .....	345
YIG'MALAR (SPECIES) .....	345
KO'Z PLYONKALARI (MEMBRANŪLAE OPHTHALMĪCAE).....	345
YUMSHOQ DORI SHAKLLARI (FORMAE MEDICAMENTORUM MOLLES) .....	346
MAZLAR (UNGUENTA).....	346
PASTALAR (PASTAE) .....	347
SHAMCHALAR (SUPPOSITORIA).....	347
MALHAMLAR (EMPLASTRA) .....	348
PILYULALAR (PILULAE).....	348
SUYUQ DORI SHAKLLARI (FORMAE MEDICAMENTORUM FLUIDAE) .....	349
ERITMALAR (SOLUTIONES).....	350
INYEKSIYA UCHUN ERITMALAR (SOLUTIONES PRO INJECTIONĪBUS) ...	351

TASHQARIGA QO'LLASH UCHUN ERITMALAR (SOLUTIÖNES AD USUM EXTERNUM).....	352
ICHGA QO'LLASH UCHUN ERITMALAR (SOLUTIÖNES AD USUM INTERNUM).....	352
DAMLAMA VA QAYNATMALAR (INFÜSA ET DECOCTA) .....	353
TOMIZG'ILAR (GUTTAE) .....	353
TINDIRMALAR (TINCTURAE) .....	354
MIKSTURALAR (MIXTURAE) .....	354
EKSTRAKTLAR (EXTRACTA).....	355
SUSPENZIYALAR (SUSPENSİÖNES) .....	355
EMULSIYALAR (EMULSA).....	356
SHILIMSHIQ MODDALAR (MUCILAGİNES).....	356
LINIMENTLAR (LINIMENTA).....	357
AEROZOLLAR (AËROSÖLA).....	357
BALZAMLAR (BALSAMA) .....	358
SOKLAR. (SUCCI) .....	358
SIROPLAR (SIRUPI) .....	358
XUSHBO'Y SUVLAR (AQUAE AROMATİCAE ) .....	359
<b>LOTINCHA-O'ZBEKCHA LUG'AT.....</b>	<b>360</b>
<b>O'ZBEKCHA-LOTINCHA SO'ZLAR LUG'ATI.....</b>	<b>370</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>378</b>
1. HUQUQIY-ME'YORiy HUIJATLAR VA ADABIYOTLAR .....	378
2. FAN MAVZULARI UCHUN FOYDALI ADABIYOTLAR.....	378



## SO‘ZBOSHI

Mazkur “Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari” darsligi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tuzilib, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan, 2015-yilda nashr etilgan shu nomli darslikning to‘ltirilgan, qayta ishlangan, ikkinchi nashridir.

Darslikdan jamoat salomatligi tibbiyot texnikumlari va tibbiyot kollejlari o‘quvchilari, tibbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash kurslarining o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Darslikning maqsadi talabalarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini oshirishdan iborat.

Darslik faqat tibbiy soha, ya‘ni anatomiya, davolash va dorishunoslikka doir atamalar asosida tuzilgan va mavzular quyidagi tartibda berilgan:

**I. Anatomiya bo‘limi.** Bunda anatomik iboralarning yasalishi, moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar, ot va sifat, sifat darajalari, son mavzulari va ularga oid mashqlar berilgan;

**II. Davolash (klinika) bo‘limi.** Darslikning bu bo‘limida tibbiyotning davolashga doir atamalarining yasalishi: lotincha va yunoncha ma‘nodosh so‘zlar (rasmlar asosida) va ularni tibbiyotda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan qoidalar va mashqlar berilgan;

**III. Dorishunoslik bo‘limi.** Bu qismda fe‘l so‘z turkumi, fe‘llarning mayl kategoriyalari, ularni retseptda qo‘llashga doir yo‘l-yo‘riqlar, dori shakllari, doriyor o‘simliklar (rasmlar asosida) nomlari hamda lotincha va o‘zbekcha retseptlar berilgan.

Har bir mavzudan keyin mashqlar hamda talabalarining dunyoqarashi va man‘aviy-ma‘rifiy bilimlarini oshirishga ko‘maklashuvchi lotincha maqollar va hikmatli so‘zlar berilgan.

Darslikdan yana tashqi va ichki a‘zolar (rasmlar asosida), mustaqil bajarish uchun mashqlar va 600 ta test savollari o‘rin olgan.

Darslik haqida qimmatli fikr mulohazalarini bildirgan barcha o‘rtoqlarga mualliflar samimiy minnatdorchilik bildiradi.

Jonkuyar inson, mehribon ustoz, o‘z kasbining bilimdoni va fidoiysi Hamdam Tirkashevich Umarovning xotirasi shogirdlar qalbida abadiydir.

## KIRISH

### LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI

Juda qadim zamonlarda hozirgi Italiya davlati joylashgan Appenin yarim orolida Latsiya hududi bo'lib, unda yashovchi xalqlardan birini Latini qabilasi deb atashgan. Latini qabilasining tili o'sha nom bilan latin tili (hozirgi kunda bizning talaffuzda lotin tili), ya'ni Lingua latina deb atalgan. Bu qabila bosqinchilik urushlari vaqtida butun Yevropa, Afrikaning shimoliy qismi va O'rta yer dengizida yashovchi qabilalarga o'z hukmronligini o'tkazgan. Bizga ma'lumki, Rim davlati qariyb yetti asr mobaynida G'arbiy Yevropada (german qabilalaridan tashqari) hukmron bo'lgan. Bosib olingan yerlarda yashovchi qabilalarga o'z tilini, ya'ni lotin tilini davlat tili deb qabul qilishga majbur qilgan. Lotin tili 7-asrga qadar Yevropada davlat tili hisoblanib, 18-asrgacha jahon tili, ilm-fan tili sifatida keng qo'llanildi. Rim davlati Yunonistonni bosib olganda bu yerda madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, u Rim davlatining madaniyatida o'z aksini topgan. Shu sababli bo'lsa kerak, jahon ilmiy atamalarining ko'pgina qismi, fanlarning qaysi sohasida bo'lmasin, lotin tilidan olingan. Shu boisdan, lotin tili barcha tillarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yevropa tillarida so'zlashuvchilar uchun lotin tili ilm-fan tili sifatida qabul qilingan. O'sha davr ba'zi taraqqiyparvar olim va ziyoliylari o'z asarlarini lotin tilida e'lon qilganlar.

Yevropa tibbiyot "otasi" Suqrot (Sokrat) (taxm. miloddan avvalgi 460-370-yillarda) yashagan, ijod qilgan. Uning asarlarida ilmiy tibbiy atamashunoslik boshlanishi aniqlangan. Suqrot o'z asarlarida qo'llagan atamalarining katta qismi xalqaro tibbiy lug'atga kiritilgan. Suqrotdan so'ng qadimgi yunon tilidagi tibbiy atamashunoslikni shakllanishida Aleksandriya tibbiyot maktabidan (qadimgi IV asr) Gerofil III (taxm. miloddan avvalgi 330-yilda tug'ilgan), Erosiztrat (taxm. miloddan avvalgi 330-240-yillar), keyinroq Ruf Efesskiy (taxm. miloddan avvalgi I asr) va o'qimishli olim, faylasuf, vrach, anatom, farmatsevt Klavdiy Galen (taxm. miloddan avvalgi 129-yillar) eng ko'p hissa qo'shganlar. Ular Suqrot bilan birga bo'lg'usi ilmiy tibbiy atamashunoslikka asos solganlar. Antik tibbiyotni, asosan yunonlar shakllantirganlar. Rim davlati paydo bo'lganidan buyon uning madaniy hayotida Yunonistonning tabiiy, ilmiy va tibbiy fanlari muhim rol o'ynaydi. Juda ko'plab yunoncha va lotinlashgan so'zlar davrlar mobaynida lotin tiliga kirdi (aër – havo, philosophia – falsafa, historia – tarix, diaphragma – diafragma va boshqalar). Yunon yozuvi ta'sirida lotin alifbosi 2 harfga ko'paydi (Yy – ipsilon va Zz – zeta).

Shu bilan birga, madaniyat va fan sohasida lotin tilining roli oshib bordi.

Rim olimlari va hakimlarning tabiiy va tibbiy fan masalalariga bag'ishlangan asarlari paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi I asrda Korneliy Sels qomusnoma yaratgan, undan "De medicina" ("Meditsina haqida") traktatining 8 kitobi bizgacha yetib kelgan. Sels va undan keyin rim olim va hakimlari o'z asarlarida yunon tilidan qabul qilingan atamalardan tez-tez foydalanib turganlar, ma'nodosh so'zlar sifatida yunoncha va lotincha so'zlarni teng qo'llab turganlar. Antik davr hakimlari yunon va lotin tillarini bilishi zarur edi.

Shunday qilib, antik davrdan boshlab atamashunoslik yunon-lotin tillari asosida shakllana boshladi. Bu ikki til tibbiy atamashunoslikning butun davrlari mobaynida an'anaviy tus oldi va hozirda ham davom etmoqda. Yunoncha-lotincha ikki tillilik shu narsada aniqroq ko'rinadiki, anatomik nomlar tibbiy ro'yxatlarda lotincha, kasallik, davolash usullari nomlari kelib chiqishi yunoncha bo'lgan so'zlar bilan beriladi, farmatsevtik terminlarda lotin tili va yunon tilining aralashmasidan hosil bo'lgan atamalarni uchratamiz. Masalan: lotincha "ren", yunoncha "nephros" – "buyrak"; "nephritis" (buyrak yallig'lanishi), lotincha "lien", yunoncha "splen" – "taloq"; "splenitis" (taloq yallig'lanishi). "Analoginum" so'zida "an-" old so'z yasovchi qo'shimchasi yunoncha "yo'q", "alg" o'zagi yunoncha "og'riq" degan ma'noni anglatsa, "-inum" orqa so'z yasovchi qo'shimchasi lotincha "dori" degan ma'noni bildiradi.

Miloddan avvalgi IV asr oxirlarida Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy (Vizantiyaning Konstantinopoldagi poytaxti bilan) qismlarga bo'linishi lotin tilining faoliyati kengayishiga, Vizantiyada va G'arbda yunon yozuvi va tilining asta-sekin o'z ro'lini yo'qotishiga olib keldi.

Miloddan avvalgi 476-yil G'arbiy Rim imperiyasi ag'darilgandan so'ng og'zaki lotin tili asta-sekin o'zining rasmiy ro'lini yo'qota boradi. Eski roman (lot. Romanus) tillari o'rtasidagi farq tobora kuchaya boshlaydi.

Roman tillarining (italyan, ispan, portugal, fransuz, retro-roman, provansal, katalon, keyinroq yana bir qator boshqa tillar, masalan rumin, moldavan) keyingi rivojlanish davri IX asrga to'g'ri keladi.

Roman tillariga asos vazifasini og'zaki lotin tili bajaradi. Shu bilan birga, adabiy lotin tili kitobiy, "ilm" tili sifatida sun'iy ravishda o'sishni G'arbiy Yevropada yana asrlar mobaynida O'rta Asrlar davrida – o'rta asr lotini, yuksalish (XIV-XVI asrlar) davrida gumanitar lotin nomi bilan davom ettirildi. O'sha davrlarda barcha cherkov maktablari va dunyoviy maktablarda lotin tilida o'qitiladi, ilmiy asarlar yaratiladi. Qadimgi yunon va arab hakimlari asarlari lotin tiliga o'giriladi. Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna 980-1037)ning "Tib qonunlari" asari XII asrdayoq lotin tiliga o'girilib, qariyb XVII asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi.

Yuksalish davrining insonparvar olimlari lotin tilini soxtalashtirishga, dag'allashtirishga qarshilik ko'rsatib, klassik lotin tilini saqlab qolish uchun



keskin kurashib kelganlar. Hozirda aytilishi va yozilishi lotin transkripsiyasida bo'lgan yunoncha so'zlar Erazm Rotterdamskiy (1469-1536) tomonidan ishlab chiqilgan. Yuksalish davrida lotin tili o'z mavqeini egallab, og'zaki va yozma axborotlarda fanning hamma sohalarida olimlarning munozara va tortushuvlarida qo'llana boshladi.

Xuddi shu davrda xalqaro tibbiy atamashunoslik lotin tili asosiga ko'chadi. Yirik italyan anatomi, ilmiy odam anatomiyasi bunyodkori Andrey Vezaliy (1514-1564) anatomiya fani bo'yicha dars bergan va lotin tilida o'zining "De humani corporis fabrica" ("Inson tanasining tuzulishi") nomli klassik asarini yozgan. Vezaliy lotincha anatomik atamashunoslikning takomillashishida Sels asarlariga asoslanib ko'p xayrli, ibratli ishlarni amalga oshirgan. Uilyam Garvey (1578-1657) o'zining "Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis animabilis" ("Hayvonlarda yurak va qon harakati borasida anatomik tadqiqot") asarini lotin tilida yozgan. Lotin tilida Yevropa mamlakatlarining atoqli mutaffakkirlari, faylasuflari, olimlari, shifokorlari – T.Moor, I.Nyuton. R.Dekart va boshqalar o'z asarlarini yozib qoldirganlar.

Lotin tili so'zlashuvdan qolgan "o'lik til" sifatida qaralsa-da, hozirgi kunda tibbiyot, huquqshunoslik, filologiya, tarix, kimyo va biologiya fanlari sohasida undan keng foydalaniladi. Bu ko'proq tibbiyotda aniq ko'zga tashlangan, chunki anatomiya va davolashga oid atamalar hamda dorilarning nomi lotin tilidadir.






Retsept varaqasidagi dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko'rsatmalar ham lotin tilida yoziladi.






I BO'LIM.  
ANATOMIK-GISTOLOGIK ATAMALARNING YASALISHI

1-DARS

1 -§. LOTIN TILI ALFAVITI






Lotin tili alfavitida 25 ta harf bor. Ular qanday yozilgan bo'lsa shunday o'qiladi.

Bosma harf	Yozma harf	O'qilishi	Misollar	Rasmlar
Aa	<i>Aa</i>	a	auris	
Bb	<i>Bb</i>	be	bronchus	
Cc	<i>Cc</i>	ka tse	coccyx cerebrum	 
Dd	<i>Dd</i>	de	dens	






Ee	<i>Ee</i>	e	ethmoidalis	
Ff	<i>Ff</i>	ef	flos	
Gg	<i>Gg</i>	ge	gaster	
Hh	<i>Hh</i>	ha	humerus	
Ii	<i>Ii</i>	i	ileum	



Jj	<i>Jj</i>	yota	jejunum	
Kk	<i>Kk</i>	ka	keras	
Ll	<i>Ll</i>	el	labium	
Mm	<i>Mm</i>	em	musculus	
Nn	<i>Nn</i>	en	nasus	
Oo	<i>Oo</i>	o	orbita	

Pp	<i>Pp</i>	pe	patella	
Qq	<i>Qq</i>	ku	quadratus	
Rr	<i>Rr</i>	re	ren	
Ss	<i>Ss</i>	es	scapula	
Tt	<i>Tt</i>	te	thorax	

Handwritten text and a stamp in the bottom left corner. The stamp is blue and contains the text "SANDYU" and "17024".

Uu	<i>Uu</i>	u	unguis	
Vv	<i>Vv</i>	ve	vertebra	
Xx	<i>Xx</i>	iks	larynx	
Yy	<i>Yy</i>	ipsilon	hyoideus	
Zz	<i>Zz</i>	zeta	zygoma	

Lotin tilida 6 ta unli harf bor: a, e, i, o, u, y, qolgan barcha harflar undoshlardir.

## 2 -§. UNLILARNING O'QILISHI

**Aa** unli harfi [a] deb talaffuz qilinadi: aorta [aorta] – aorta; amarus [amarus] – achchiq;

**Ee** unli harfi [e] deb talaffuz qilinadi: vertebra [vertebra] – umurtqa; foramen [foramen] – teshik;

**Oo** unli harfi [o] deb talaffuz qilinadi: odor [odor] – hid, is; tendo [tendo] – pay;

**Ii** unli harfi [i] va [y] deb talaffuz qilinadi:

1. So'z boshida unlidan oldin kelsa va ikki unli orasida kelsa [y] kabi o'qiladi: iecur [yekur] – jigar; maior [mayor] – katta;

2. qolgan barcha holatlarda [i] kabi o'qiladi: vita [vita] – hayot; internus [internus] – ichki;

**Uu** unli harfi [u] deb talaffuz qilinadi: rotundus [rotundus] – yumaloq; unus [unus] – bir;

**Yy** unli harfi yunoncha so'zlarda qo'llaniladi va [i] deb talaffuz qilinadi: myologia [miologiya] – muskullar haqidagi fan; Amygdala [amigdala] – bodom.

### O'qish uchun mashqlar

1. Vertebra, foramen, nervus, dens, febris, teres, secale, bene, genu, tendo, littera, meatus, semen, fovea, venosus, vegetativus, posterior, anterior, superior, inferior.

2. Vitaminum, finio, bilis, insana, longitudinalis, cranialis, tibia, fibula, iecus, iugum, iugularis, iunctura, maior, maius, iuventus, labium, impar, iodum, iuvenilis, index, insania, ieinum.


3. Dyspepsia, pyelitis, myelitis, myopia, myoma, Amygdala, Myrtillus, Nystatinum, hydrops, dystonia, pylorus, myocadium, symptoma, gyrus, systole, systema, tympanum, dactylos.

### Mustaqil o'qish uchun matnlar

#### HEPAR

*Hepar glandula maxima corporis humani est. Substantia hepatis mollis rubro-fusca est. Hepar in cavo abdominis sub diaphragmate locatur et secretioni bilis inservit. Illud in lobos duos impares dividitur: lobum dextrum majorem et lobum sinistrum minorem. Lobus sinister dextro tenuior est. In hepate facies tres distinguimus - faciem superiorem, inferiorem, posteriorem. Facies superior convexa, facies inferior concava sunt. In hepate margines duo sunt: margo anterior acutus, qui impressiones duas seu incisuras habet - incisuram vesicalem et umbilicalem, et margo posterior obtusus. Fel, cui succus pancreaticus admiscetur, per ductum choledochum in intestinum duodenum intrat. Usus hepatis est, ut fel secernat.*





ORGANA HOMINIS EXTERNA

1. caput, itis, n	-bosh	16. planta, ae, f	-oyoq kafti
2. auris, is, f	-quloq	17. calx, lcis, f	-tovon
3. facies, ei, f	-yuz	18. unguis, is, m	-tirnoq
4. collum, i, n	-bo'yin	19. frons, ntis, f	-peshona
5. faucus, i, m	-tomoq	20. oculus, i, m	-ko'z
6. pectus, oris, n	-ko'krak	21. nasus, i, m	-burun
7. mamma, ae, f	-sut bezi	22. os, oris, n	-og'iz
8. umbilicus, i, m	-kindik	23. mentum, i, n	-iyak
9. abdomen, inis, n	-qorin	24. brachium, i, n	-yelka kamari, yelka
10. pubes, is, f	-qovuq	25. handus, i, m	-qo'l
11. penis, is, m vagina, ae, f	-olat -qin	26. ulna, ae, f	-tirsak
12. femur, oris, n	-son	27. antebrachium, i, n	-bilak
13. genu, us, n	-tizzax	28. manus, us, f	-qo'l panjasi
14. crus, cruris, n	-boldir	29. palma, ae, f	-qo'l kafti
15. pes, pedis, m	-oyoq	30. digitus, i, m	-barmoq

## THORAX

*Thorax et abdomen in trunco hominis sunt. Thorax in parte superiore trunci est, abdomen in parte inferiore est. Thorax a claviculis usque ad diaphragma porrigitur. Ea pars trunci partim ossea, partim carnea est et interne membrana vestitur. Membrana pleura appellatur. Pleura membrana levis, robusta et tensa est. Ea costis et musculis intercostalibus adhaerens et totum cavum thoracis cingit. In thorace pars tracheae, pulmones, cor, pericardium cum vasis locantur. In thorace atque pars maxima (o)esophagi locata est. Trachea a radice linguae ad pulmones descendit, ubi in multos ramos dividitur. Pars superior tracheae larynx dicitur. Pars inferior juxta vertebram quartam colli in duos ramos dividitur, qui bronchi vocantur. Trachea ex an(n)ulis cartilagineis componitur.*

## 2-DARS

### 3-§.DIFTONGLAR

Diftong – ikkita turli unli harflarning bitta bo'g'inda bir tovushdek talaffuz etilishidir. Lotin tilida 4 ta diftong bor:

au diftongi [au] deb o'qiladi (juda [av] ga yaqin): auris [avris] – quloq; trauma [travma] -shikastlanish;

eu diftongi [eu] deb o'qiladi (juda [ev] ga yaqin): pneumonia [pnevmoniya] – pnevmoniya, zotiljam; pleura [plevra] -o'pkani o'rab turuvchi parda

ae diftongi [e] deb o'qiladi: gangraena [gangrena] – gangrena, tirik to'qimalarning o'lishi; aegrotus [egrotus] -kasal;

oe diftongi [e] deb o'qiladi: oedema [edema] – shish; Foeniculum [fenikulum] -shivit.

Agar ae va oe diftonglaridagi "e" harfi ustiga ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda diftong hosil bo'lmaydi va harflar o'zining alohida tovushini ifoda etadi:

aë [ae] deb o'qiladi: aër [aer] – havo;

oë [oe] deb o'qiladi: Aloë [aloye] – aloy, sabur.

### O'qish uchun mashq

Costae, venae, suturae, anaemia, aegar, praecordium, praemolaris, foetor, gangraena, dyspnoë, diaeta, aëronum, oedema, Foeniculum, vertebrae, caecus, oesophagus, auris, haematopoëticus, neuron, cranium, pleura, auricularis, pseudomembrana.

### 4-§. UNDOSHLARNING O'QILISHI

Cc –harfi ikki tovush [ts] va [k]ni ifoda etadi.

Cc -harfi a, o, u unlilari va undosh harflar oldida yoki so'z oxirida kelsa [k]

deb o'qiladi:

caput [kaput] -bosh;  
 costa [kosta] -qovurg'a;  
 sulcus [sulkus] -egat;  
 cranium [kranium] -kalla suyagi  
 lac [lyak] -sut.

Cc -harfi e, i, y unlilar oldida va ae, oe diftonglari oldida kelsa [ts] kabi o'qiladi:

processus [protsessus] -o'simta;  
 civitas [tsivitas] -shahar, davlat;  
 cyclus [tsiklyus] -sikl;  
 plicae [plitse] -burmalar;  
 coeruleus [tseruleus] -zangori, ko'k.

Hh harfi o'zbekcha [h] kabi o'qiladi, lekin sovet davrida rus olimlari tomonidan kiritilgan darsliklarda rus tilida o'zbek va lotin tillaridagi [h] kabi tovush bo'lmaganligi uchun [g] deb o'qish tavsiya etilgan:

hepar [hepar] -jigar;  
 humerus [humerus] -yelka suyagi.  
 Jj harfi [y] tovushidek talaffuz qilinadi:  
 jecur [yekur] -jigar;  
 juvenus [yuventus] -yosh.

Kk harfi lotin tiliga yunon va arab tillaridan kirib kelgan so'zlarda ishlatiladi:  
 Kalium [kalium] -kaliy;  
 keras [keras] -ko'z shoh pardasi.

Ll harfi rus tildagi kabi juda yumshoq talaffuz etiladi:  
 lac [lyak] -sut;  
 alcohol [alkohol] -alkogol.

Qq harfi o'zbek tilidagi [k] tovushidek talaffuz qilinadi:  
 Quercus [kverkus] -eman;  
 quinque [kvinkve] -besh.

Ss harfi ikkita tovush [s] va [z]ni ifoda etadi.

1. Agar Ss harfi ikki unli orasida yoki unli bilan m yoki n undosh harflari orasida kelsa [z] deb o'qiladi:

nasus [nazus] -burun;  
 organismus [organizmus] -a'zo, organizm;  
 ansa [anza] -qovuzloq.

2. Ss harfi so'z boshida, so'z oxirida, ikkilanib (ss) va undoshlar oldida kelsa [s] deb o'qiladi:

sulcus [sulkus] - egat;  
 sinus [sinus] - bo'shliq;



fossa [fossa] – chuqurlik;  
osseus [osseus] – suyakka tegishli.

Xx harfi ham ikki xil o'qiladi:

1. Xx harfi faqat birinchi bo'g'inda ikki unli o'rtasida kelsa, [gz] deb o'qiladi:

exitus [egzitus] -natija;

exoderma [egzoderma] -teri ustki qavati.

2. Xx harfi boshqa hollarda [ks] deb o'qiladi:

radix [radiks] -ildiz;

maxilla [maksillya] – yuqori jag';

plexus [pleksus] – chigal.

Zz harfi yunon so'zlarida uchraydi va [z] deb o'qiladi:

zygoma [zigoma] –yonoq;

zona [zona] -hudud.

Zz harfi quyidagi so'zlarda [ts] deb o'qiladi:

Zincum [tsinkum] – ruh;

influenza [inflyuentza] –yuqori nafas yo'llarining o'tkir katari.

Lotin tilidagi Bb, Dd, Ff, Gg, Mm, Nn, Pp, Rr, Tt, Vv harflari o'zbek tilidagi undoshlar kabi o'qiladi.

### O'qish uchun mashqlar

1. Canalis, capitulum, condylus, cavum, cranium, corona, corocoideus, fractura, sulcus, oculus, cubitus, capsula, lacrimalis, fructus, truncus, collum, bucca, siccus, costa, caput, corpus, crus.

2. Cella, cellula, acetabulum, cerebrum, processus, facies, cervix, cervicis, medicina, superficialis, cytus, tunicae, cylindrus, sulci palatini, caecum, occiput, plicae.

3. Caecus, vaccae, cyclus, coccyx, caverna, carcinoma, colica, varicella, clinica, contractura, centum, cancer, cervicalis.

4. Hiatus, haema, habitus, hepaticus, hepar, hallex, hypoglossus, hilus, histos, horizontalis, hymen, hypogastricus, habitus, hamulus, humerus.

5. Kinesis, keratium, kalium, Kalendae, keratoma, kefir, Kalium.

6. Fossa, humerus, mesenterium, septum, processus, hypoglossalis, basis cranii, fissura, dens incisivus, platysma, mesogastrium, mucosus, pars petrosa, status, septum, internus, fissura, sacrum, scala, osteologia, ossa, ossiculum, sutura, scabies, scapula, sella, serratus, sinister, massa, spissus, musculosus, usus, ansa, plasma, paralysis, vesica, cavernosus, tuberositas, causa, crisis, organismus.

7. Axis, externus, maxillaris, fornix, index, larynx, dexter, plexus, maxilla, os coxae, zygomaticus, trapezius, zona orbicularis, vena azygos, vertex, radix, extensor, maximus, apex, appendix, extremitas, sextus, cortex, cervix, circum-

flexus, duplex, eczema, zoster, zoologia.

### **5-§. HARF BIRIKMALARI**

Lotin tilida quyidagi harf birikmalarini e'tibor bilan o'rganish zarur:

qu – unlilar oldida [kv] kabi o'qiladi: aqua [akva] -suv; quintus [kvintus] -beshinchi;

ngu – unlilar oldida [ngv] kabi o'qiladi: lingua [lingva] - til; unguentum [unguentum] -surtma, maz;

ngu -undoshlar oldida [ngu] kabi o'qiladi: angulus [angulus] -burchak;

su – unlilar oldida [sv] kabi o'qiladi: suavis [svavis] -yoqimli; suillus [svillus] -cho'chqaga tegishli;

ti – unlilar oldida [tsi] kabi o'qiladi: articulatio [artikulatsiyo] – bo'g'im; solutio [solutio] -eritma;

ti -x, -s harflaridan keyin unlilar oldida ham [ti] kabi o'qiladi: mixtio [miks-tio] -aralashma; ostium [ostium] - teshik;

### **O'qish uchun mashqlar**

1. Aqua, ductus, quadratus, quintus, quadriceps, squama, quae, qui, squamosus, quoque, triquetrus, aquosus, liquor, obliquus, quantum, quies, aequalis, quartus.

2. Unguis, sanguis, sanguifer, lingua, sublingualis, anguis, inguis, inguen, unguentum, inguinalis, sublingualis, sanguineus, angulus, lingula.

3. Operatio, protuberatia, eminentia, spatia, intercostalia, vitium, auscultatio, palpato, dens sapientiae, curatio, solutio, actio, punctio, iniectio, combustio.

### **6-§. DIGRAFLAR (YUNONCHA HARF BIRIKMALARI)**

Digraf bu – bitta tovush beradigan ikkita undosh birikmasidir.

ch harf birikmasi [x] kabi talaffuz qilinadi: chole [xole] -o't;

sch harf birikmasi [sx] kabi talaffuz qilinadi: schema [sxema] -sxema;

ph harf birikmasi [f] kabi talaffuz qilinadi: phosphorus [fosforus] -fosfor;

rh harf birikmasi [r] kabi talaffuz qilinad: Rheum [reum] - ravocho;

th harf birikmasi [t] kab talaffuz qilinadi: thorax [toraks] -ko'krak qafasi.

### **O'qish uchun mashqlar**

1. Cochlea, chirurgus, concha, chondros, ischuria, splanchno, chondrosis, bronchus, nucha, trachea, trochanter, brachium, chylus, chiasma, scholasticus, splanchnologia, ischium, synchondrosis

2. Symphysis, hypophysis, phalanx, oesophagus, encephalon, nephritis, pharynx, phagocytus, phren, philtrum, pharmacologia, phosphorus, phlegmone, physiologia.

3. Rhaphe, rhombus, rheumatismus, rhachitis, rhythmicus, rhinitis, rhinencephalon, Rheum, rhizoma, rhomboideus, rhinorrhagia, Glycyrrhiza.

4. Thrombus, pathologia, asthma, arthron, Althaea, phthisis, phototerapia, thorax, ethmoidalis, lithiasis, thermoterapia, thyroideus, erythema, thymus, thalamus, thenar, thema.

### Mustaqil o'qish uchun mashqlar

1. In scapula spina scapulae, fossa supraspinata, fossa infraspinata sunt. Linea myelohyoidea in mandibula est. Costae sunt costae verae et costae spuriae. Cellulae in tela sunt. Est tela chorioidea, conjunctiva, elastica, subcutanea, submucosa et subserosa. Fractura tibiae seu fibulae periculosa non est.

2. Thyphus exanthematicus, icterus, morbilli sunt morbi contagiosi. Pharyngorrhagia est signum malum morbi. Medicina est disciplina antiqua. In ossibus sunt substantia compacta et substantia spongiosa. Natura vitam quotannis renovat.

3. Bulbus oculi in orbita iacet: Hippocrates et Galenus clari medici graecorum sunt. Cibis per oesophagum in ventriculum intrat. Medici graecorum ventriculum stomachum nominant. Scalpellum est culter acutus chirurgicus. Skeleton antebrachii ex radio et ulno.

4. Musculi organismi humani forma varii sunt, sunt musculi longi, lati, breves. Musculi faciei, quasi, sacculis, elasticis, cinguntur. Fasciae in fascias proprias et fascias subcutaneas dividuntur. Fascia propria profundae tela fibrosa compacta constat.

### 7-§. LEKSIK MINIMUM

I turlanishdagi otlar			
ala, ae, f	qanot	crista, ae, f	qirra
aorta, ae, f	aorta	lamina, ae, f	plastinka
arteria, ae, f	arteriya	lingua, ae, f	til
concha, ae, f	chig'anoq	mandibula, ae, f	pastki jag'
costa, ae, f	qovurg'a	maxilla, ae, f	yuqori jag'
orbita, ae, f	ko'z kosasi	patella, ae, f	tizza qopqog'i
scapula, ae, f	kurak	sutura, ae, f	chok
spina, ae, f	o'tkir qirra	tuba, ae, f	nay



vena, ae, f	vena	vertebra, ae, f	umurtqa
-------------	------	-----------------	---------

**Nota bene!**

**Invia est in medicina via sine lingua latina** – Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.  
**Omne principium difficile est** – Har bir ish boshlanishidagina qiyin.

### 3-DARS

#### 8-§. CHO'ZIQ VA QISQA BO'G'INLAR

Lotin tilida unli tovushlar cho'ziq yoki qisqa bo'lishi mumkin. Unli tovushning cho'ziqligi harf ustiga chiziqcha, masalan: ā, ō, ī; qisqaligi yarim oy (yarim to'garakcha), masalan: ă, ǒ, ǐ qo'yib belgilanadi.

Lotin tilida urg'u unli tovushlarning cho'ziq yoki qisqaligiga bog'liq. Tarixiy cho'ziqlik va qisqalik mavjud. Bu holatlarda ikkinchi bo'g'in ustiga lug'atlarda cho'ziqlik yoki qisqalik belgisi qo'yiladi:

Me -dí -cus –shifokor

Me -di -cí -na –tibbiyot

#### 9-§. SO'ZLARNI BO'G'INLARGA BO'LISH QOIDALARI

Barcha so'zlar bo'g'inlarga bo'linadi. So'zda qancha unli harf bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi:

1. Bitta unli harf mustaqil bo'g'in hosil qiladi. Bitta undosh harf esa bo'g'in hosil qilmaydi.

2. Bo'g'in chegarasi unli va undosh o'rtasida bo'ladi.

li-ne-a -chiziq; ar-ti-cu-la-ris -bo'g'imga oid; li-ga-men-tum -bog'lam; os-se-us -suyakka tegishli.

3. Diftonglar bir bo'g'inni tashkil etadi.

pae-di-a-ter -bolalar shifokori; ae-gro-tus-kasal, bemor.

4. l yoki r harflari bilan b, s, d, g, t undoshlari birikib kelsa, ular ajratilmaydi ver-te-bra -umurtqa; an-hy-drus -suvsiz.

5. Lotin tilida bo'g'inlar so'z oxiridan hisoblanadi.

pte-ry-go-i-de-us -qanotsimon

6 - 5- 4 -3 -2 -1

#### 10-§. URG'U

Lotin tilida urg'u odatda so'zning oxiridan ikkinchi bo'lib joylashgan, cho'ziq bo'g'ingga qo'yiladi. Agar so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'in qisqa bo'lsa, bu hol- da urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'inga qo'yiladi.

**Ikkinchi bo'g'in cho'ziq va urg'uli bo'ladi, agar u:**

1. Diftong bo'lsa:

al-tháe-a; di-áe-ta

3 -2 -1      3 -2 -1

2. Ikki undosh tovush oldida kelgan unli tovush:

li-ga-mén-tum; pro-cés-sus

4 -3 -2 -1      3 -2 -1

3. z va x undoshlaridan oldin kelsa:

cir-cum-flé-xus; Gly-cyr-rhí-za

4 -3 -2 -1;      4 -3 -2 -1

4. -ur, -in so'z yasovchi qo'shimchalaridagi "u" va "i" tovushlari

fis-sú-ra; of-fi-cí-na

3 -2 -1;      4 -3 -2 -1

5. -át, -ár, -ál, -ós sifat yasovchi suffikslar:

ar-ti-cu-lá-ris; spi-nó-sis; ha-má-tus; oc-ci-pi-tá-lis

5 -4 -3 -2 -1;      3 -2 -1;      3 -2 -1;      5 -4 -3 -2 -1

**Ikkinchi bo'g'in qisqa va urg'usiz bo'ladi, agar u:**

1. Unli tovush oldida kelgan unli tovush:

ti-bī-a; o-lě-um

3-2-1;      3-2-1.

2. r va l undosh harflari bilan b, p, s, g, d, t birikmasi (br, sr, dr, gr, tr, pr, bl, sl, dl, gl, tl, pl) oldida kelgan unli tovush:

ver-tě-bra; an-hỹ-drus

3 -2 -1;      3 -2 -1

3. ul, ol suffiksi (so'z yasovchi qo'shimchasi):

ca-pi-tū-lum; al-ve-ō-lus

4 -3 -2 -1;      4 -3 -2 -1

4. -īl, -īt, -īd, -īc sifat yasovchi suffikslar:

com-po-sī-tus; tho-ra-cī-cus; so-lu-bī-lis; flu-ī-dus

4 -3 -2 -1;      4 -3 -2 -1;      4 -3 -2 -1;      3 -2 -1

Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha ikkinchi bo'g'inga qo'yiladi:

sūl-cus; cōs-ta

2 -1;      2 -1

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. Qaysi bo'g'in cho'ziqligini aniqlang va sababini ko'rsating:**

di-ae-ta, la-goe-na, pro-ces-sus, ab-sur-dus, pro-fun-dus, hy-po-glos-sus, papil-la, com-pres-sor, di-a-phrag-ma, ap-pen-dix, me-dul-la, gar-ga-ris-ma, ex-ter-nus, si-nis-ter.

**2. Oxiridan oldingi bo'g'inning cho'ziq bo'lishini aniqlang va urg'u qaysi joyga qo'yiladi:**

palpebra, tenebrae, anhydrus, muliebris, quadruplex, cholodochus, monolithus.

**3. Bo'g'inga bo'ling, oxiridan oldingi bo'g'in cho'ziq bo'lishini tushuntiring, urg'u qo'ying:**

articulatio, linea, trochlea, arteria, neuralgia, memoria, facies, medius, symphysis, mixtura, cerebellum, nucleus, gangraena.

**4. mas-to-i-de-us ko'rinishi kabi bo'g'inlarga ajrating va oxiridan oldingi bo'g'inning cho'ziqligini aniqlang va urg'u qo'ying:**

sigmoideus, pterygoideus, coracoideus, styloideus, deltoideus, xiphoideus, cricoideus.

**5. Oxiridan oldingi bo'g'inning cho'ziqlik yoki qisqalik belgisini belgilang va urg'u qo'ying:**

ileum, nucleus, pancreas, balneum, dysenteria, olfactus, arachnoidea, amorphus, elementum, papillia, metacarpus, dyspnoë, apertura, musculus, malleolus.

**6. Qaysi bo'g'in urg'u talab qilishini aniqlang, belgi qo'yib o'qing:**

membrana, vagina, tunica, occiput, ventriculus, acetabulum, tympanum, palatum, condylus, tuberositas, deltoidea, humeri, abdomen, abdominis, tempora, corpora, vulnera, caput, capitis, homo, hominis, thorax, thoracis, cervix, cervicis, radix, radialis, cartilago, cartilaginis, oesophagus, Hyppocrates.

**7. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u qanday bo'g'inda bo'lishi kerak? O'qing:**

fossa, sulcus, morbus, apex, margo, cavum, septum, corpus, sanguis, arcus, tuber.

## 11-§. LEKSIK MINIMUM

II. TURLANISHDAGI OTLAR			
angulus, i, m	burchak	calcaneus, i, m	tovon suyagi
brachium, i, n	yelka	digitus, i, m	barmoq
cavum, i, n	bo'shliq	humerus, i, m	yelka suyagi
manubrium, i, n	dasta	radius, i, m	bilak suyagi
musculus, i, m	muskul	sternum, i, n	to'sh suyagi
septum, i, n	to'siq	tympanum, i, n	nog'ora
III. TURLANISHDAGI OTLAR			

corpus, oris, n	tana	crus, cruris, n	oyoqcha
foramen, inis, n	teshik	os, ossis, n	suyak
<b>IV. TURLANISHDAGI OTLAR</b>			
arcus, us, m	yoy	genu, us, n	tizza
cornu, us, n	shox	ductus, us, m	oqim
meatus, us, m	yo'l	processus, us, m	o'simta
sinus, us, m	sinus, bo'shliq	textus, us, m	to'qima
<b>V. TURLANISHDAGI OTLAR</b>			
facies, ei, f	yuza	dies, ei, f	kun

**Nota bene!**

**Repetitio est mater studiorum** – Takrorlash bilimning onasi.  
**Per aspera ad astra** – Qiyinchiliklarni yengib yulduzlarga.  
**Non scholae, sed vitae discimus** – Biz maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyamiz.

## 4-DARS

### 12-§. OT (NOMEN SUBSTANTIVUM)

Predmetning ma'nosini ifodalaydigan va grammatik son, egalik, rod, kelishik kategoriyalariga ega bo'lib, kim? nima? so'roqlariga javob beradigan so'z tur-kumiga ot deyiladi.

Lotin tilida otlar quyidagi grammatik kategoriyalarga ega:

1. Otlar lotin tilida uchta rodga ega:

Genus masculinum (m) – mujskoy rod (m.r)

Genus femininum (f) – jenskiy rod (j.r)

Genus neutrum (n) – sredniy rod (s.r)

2. Otlar lotin tilida ikkita songa ega: Numerus singularis (Sing.) – birlik son (birl.); Numerus pluralis (Plur.) – ko'plik son (ko'pl.)

3. Otlar lotin tilida besh ta kelishikka ega:

Casus nominativus (Nom.) – bosh kelishigi, – kim? nima?

Casus genetivus (Gen.) – qaratqich kelishigi, – kimning? nimaning?


Casus dativus (Dat.) – jo'nalish kelishigi, – kimga? nimaga?

Casus accusativus (Acc.) – tushum kelishigi, – kimni? nimani?



**SCELETON**

1. Ossa cranii	-kalla suyaklari
2. clavicula, ae, f	-o'mrov suyagi
3. sternum, i, n	-to'sh suyagi
4. scapula, ae, f	-kurak suyagi
5. humerus, i, n	-yelka suyagi
6. costa, ae, f	-qovurg'a
7. columna vertebralis	-umurtqa ustuni
8. ulna, ae, f	-tirsak suyagi
9. radius, i, m	-bilak suyagi
10. carpus, i, m	-qo'l kaft usti suyagi
11. metacarpus, i, m	-qo'l kaft suyagi
12. os sacrum	-dumg'aza suyagi
13. phalanx, ngis, f	-barmoq suyagi
14. os coxae	-chanoq suyagi
15. femur, oris, n	-son suyagi
16. patella, ae, f	-tizza qopqog'i
17. tibia, ae, f	-katta boldir suyagi
18. fibula, ae, f	-kichik boldir suyagi
19. tarsus, i, m	-oyoq kaft usti suyagi
20. ossa metatarsi matatarsalia (I-V)	-oyoq kaft suyaklari (I-V)
21. ossa hallucis	-oyoq bosh barmog'ining suyaklari



Casus ablativus (Abl.) - chiqish kelishigi, -kimdan? nimadan?

Yana Casus vocativus (Voc.) - atash, nomlash deb tarjima qilinadigan kelishik borki, u faqat muloqot qilishda qo'llaniladi, tibbiyot so'zlarida qo'llanilmaydi va biz buni inobatga olmaymiz.

4. Lotin tilida otlar 5 ta turlanishga ega: ular Genetivus Singularis, ya'ni qaratqich kelishigining birlik sonidagi qo'shimchasi yordamida aniqlanadi.

Turlanish	I	II	III	IV	V
Qo'shimcha	ae	i	is	us	ei

5. Otlarning negizini aniqlash uchun istalgan so'zni qaratqich kelishik birlik sonida turlash va undan qaratqich kelishigi birlik soni qo'shimchasini olib tashlash kerak. Otlar so'z o'zagiga barcha kelishik qo'shimchalarini qo'shish orqali turlanadi:

Nom	Gen	Rod	Turlanish	O'zak
morbus	morbi	m	II	morb
dies	diei	f	V	di
arcus	arcus	m	IV	arc
bursa	bursae	f	I	burs
corpus	corporis	n	III	corpor

6. Lotin tilida otlarning rodini bosh kelishik birlikdagi qo'shimchasi orqali aniqlanadi. Bosh kelishik birlikda Masculinum rod -us, -er, Femininum rod -a, -es, Neutrum rod -um, -on, -u qo'shimchalariga ega bo'ladi.

7. Lotin tilida otlar lug'at shaklida ko'rsatiladi va faqat shu shaklda yodlanadi. Otlarning lug'at shakli avvalo bosh kelishik birlikda to'liq, so'ngra qaratqich kelishigi birlikdagi qo'shimchasi va rodi ko'rsatiladi:

Nom.Sing.	Gen.Sing.	rod	Tarjimasi
vesica,	ae,	f	pufak
fundus,	i,	m	tub
dorsum,	i,	n	orqa
magister,	tri,	m	o'qituvchi
corpus,	oris,	n	tana
homo,	inis,	m	odam
mater,	tris,	f	miya pardasi
arcus,	us,	m	yoy

genu,	us,	n	tizza
dies,	ei,	f	kun

Otlarning birinchi turlanishiga qaratqich kelishigi birlikda -ae, bosh kelishik birlikda -a qo'shimchasiga ega bo'lgan Femininum roddagi otlar kiradi.

Nom.	Gen	Rod	Tarjimasi
fossa,	ae,	f-	chuqur
palma,	ae,	f-	kaft
planta,	ae,	f-	oyoq kafti
tunica,	ae,	f-	parda

**Turlanish namunasi**

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	fossa	fossae
Gen.	fossae	fossarum
Dat.	fossae	fossarum
Acc.	fossam	fossas
Abl.	fossa	fossis

Otlarning ikkinchi turlanishiga qaratqich kelishigi birlikda -i, bosh kelishik birlikda Masculinum rodda -us, -er qo'shimchalari, Neutrum rodda -um, -on qo'shimchalariga ega bo'lgan otlar kiradi.

Nom.Sing.	Gen.Sing.	Genus	Tarjimasi
oesophagus,	i,	m	qizilo'ngach
digutus,	i,	m	barmoq
liber,	bri,	m	kitob
uterus,	i,	m	bachadon
collum,	i,	n	bo'yin
rectum,	i,	n	to'g'ri ichak
colon,	i,	n	chambar ichak
olecranon,	i,	n	tirsak o'sig'i

**Turlanish namunasi**

	Masculinum		Neutrum	
Singularis				
Nom.	digit-us	magist-er	coll-um	col-on
Gen.	digit-i	magistr-i	coll-i	col-i
Dat.	digit-o	magistr-o	coll-o	col-o
Acc.	digit-um	magistr-um	coll-um	col-on
Abl.	digit-o	magistr-o	coll-o	col-o
Pluralis				
Nom.	digit-i	magistr-i	coll-a	col-a
Gen.	digit-orum	magistr-orum	coll-orum	col-orum
Dat.	digit-is	magistr-is	coll-is	col-is
Acc.	digit-os	magistr-os	coll-a	col-a
Abl.	digit-is	magistr-is	coll-is	col-is

**Nota bene!**

-er qo'shimchali otlarning negizida -r harfi saqlanib qoladi.

**Otlarning V turlanishining barcha qo'shimchalari jadvali**

Keli-shik	Turlanish	I	II	III	IV	V
Nom.Sing.		f: -a	m: -us,-er, n: -um,-on	m,f,n har xil	m:-us n: -u	f: -es
Gen.Sing.		-ae	-i	-is	-us	-ei
Dat.Sing.		-ae	-o	-i	m: -ui n: -u	-ei
Acc.Sing.		-am	m: -um n: -um,-on	m,f: -em n=Nom.Sing.	m: -um n: -u	-em
Abl.Sing.		-a	-o	-e (-i)	-u	-e
Nom.Plur.		-ae	m:-i, n: -a	m,f:-es n:-a (-ia)	m: -us n:-ua	-es
Gen.Plur.		-arum	-orum	-um (-ium)	-uum	-erum
Dat.Plur.		-is	-is	-ibus	-ibus	-ebus



Acc.Plur.	-as	m: -os n: -a	m,f: -es n:-a (-ia)	m: -us n: -ua	-es
Abl.Plur	-is	-is	-ibus	-ibus	-ebus

**Nota bene!**

Barcha qo'shimchalarni ko'chirib oling va ularni yodlang!!!

**13-§. I-II TURLANISHDAGI OTLARNING SUFFIKSLARI**

-cul-us, -cul-a, -cul-um, -ol-us, -ol-a, -ol-um, -ul-us, -ul-a, -ul-um qo'shimchalari otlarning kichraytirilgan turini hosil qiladi:

tuber -do'mboq	tuberculum -do'mboqcha
ramus -shox	ramulus -shoxcha
bronchus -bronx	bronchulus -bronxcha
radix -ildiz	radicula -ildizcha

Kichraytiruvchi ma'noli otlar ham o'sha otning rodini qabul qiladi.

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. Kichraytiruvchi ma'noli otlarni hosil qiling va ularni tarjima qiling:**

fovea, ae, f -chuqur	caput, itis, n – bosh
fons, fontis, f -manba, buloq	malleus, i, m – bolg'a
fossa, ae, f -chuqur	ductus, us, m – oqim
canalis, is, m -kanal	clavis, is, f – kalit
saccus, i, m -xalta	lobus, i, m – bo'lak
vesica, ae, f -pufak	corpus, oris, n – tana

**2. Lotin tiliga tarjima qiling.**

1. Qovurg'aning boshining yuzasi.
2. Pastki jag'ning teshigi.
3. Kallaning suyagi.
4. Boshning muskuli.
5. Yuzaning suyagi.
6. Yelka suyagining boshchasi.
7. Tizzaning bo'g'imi.
8. Pastki jag'ning tanasi.
9. Bo'shliqning egati.
10. Tilning uchi.
11. Yuzaning venasi.
12. Suyakning yuzasi.

**3. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Fovea capitis femoris.
2. Caput pancreatis.
3. Incisura apicis cordis.
4. Ligamentum capitis femoris.
5. Pars corporis.
6. Articulatio pedis.
7. Cavum oris.
8. Sutura cranii.
9. Basis cranii.
10. Apex partis corporis.
11. Apex radiceis dentis.
12. Os digiti pedis.

**4. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Articulationes manus. 2. Ossa digitorum manus. 3. Regiones manus. 4. Musculi levatores costarum. 5. Ossa capitis. 6. Foramina venarum. 7. Partes corporis humani. 8. Plicae tunicae mucosae. 9. Articulationes digitorum pedis. 10. Capita costarum.

14-§. LEKSIK MINIMUM

II TURLANISH OTLAR			
cancer, cri, m	-rak, o'sma	paediater, tri, m	-bolalar vrachi
oesophagus, i, m	-qizilo'ngach	lobus, i, m	-bo'lak
morbus, i, m	-kasallik	musculus, i, m	-muskul (mushak)
nasus, i, m	-burun	nevrus, i, n	-nerv (asab)
oculus, i, m	-ko'z	ramus, i, m	-shox
sulcus, i, m	-egat	ventriculus, i, m	-qorincha
cerebrum, cerebri, n	-bosh miya	collum, i, n	-bo'yin
cranium, i, n	-kalla suyagi	ligamentum, i, n	-bog'lam
septum, i, n	-to'siq	tuberculum, i, n	-do'mboqcha
colon, i, n	-chambar ichak	encephalon, i, n	-bosh miya
ganglion, ii, n	-tugun (nerv)	nodus, i, m	-tugun
I GURUH (I-II TURLANISHLI) SIFATLAR			
acusticus (m), acustica (f), acusticum (n)	-eshituvga oid	cardiacus, a, um	-yurakka tegishli
cavus, a, um	-bo'sh (kovak)	chronicus, a, um	-surunkali
coccygeus, a, um	-dum, quyruq	dexter, tra, trum	-o'ng
externus, a, um	-tashqi	fibrosus, a, um	-tolali
hepaticus, a, um	-jigarga tegishli	internus, a, um	-ichki
ischadicus, a, um	-quymichga tegishli	longus, a, um	-uzun
medius, a, um	-o'rta	latus, a, um	-keng
obliquus, a, um	-qiyshiq	opticus, a, um	-ko'ruvga tegishli
osseus, a, um	-suyakka tegishli	palatinus, a, um	-tanglayga tegishli
profundus, a, um	-chuqur	rectus, a, um	-to'g'ri

sinister, tra, trum	-chap	thoracicus, a, um	-ko'krakka tegishli
transversus, a, um	-ko'ndalang	zygomaticus, a, um	-yanoqqa tegishli

**Nota bene!**

**Scientia potentia est** – Bilim kuchdir.

**Non progredi est regredi** – Olg'a intilmaslik ortda qolmoq demakdir

**Alit laetio ingenium** – O'qish aqlni o'tkirlaydi.

**Mustaqil o'qish uchun matnlar**

*DE ABDOMINE (PLENC «PRIMAE LINEAE ANATOMIAE»)*

*Abdomen est cavitas, quae inter thoracem et pelvim locatur. Divisio interna est in tres cavitates: in cavitatem periton(a)ei, in cavitatem lumbalem, in cavitatem pelvis. In cavitate periton(a)ei: ventriculus, intestina tenuia et crassa, hepar cum vesica fellea, mesenterium, lien, pancreas, vasa lactea, quae intra duplicaturam mesenterii locantur. In cavitate lumborum extra periton(a)eum continentur: renes, glandulae suprarenales, uretheres, aorta descendens, vena cava ascendens, receptaculum chyli sive cisterna chyli. In cavitate pelvis sub periton(a)eo sunt: vesica urinaria, (intestinum) rectum et cetera organa.*

**5-DARS**

**15-§. MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI**

Lotin tilida shunday tushuncha borki, moslashmagan aniqlovchi deyiladi. Bu o'zbek tilida so'z yasalishi mavzusida o'rganiladi. Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishikdagi birlik yoki ko'plik sondagi otlar bilan ifoda qilinadi. Ular o'zgarmaydi, turlanmaydi, moslashmaydi:

Sulcus costae -qovurg'aning egati

Ikki va undan ortiq otlarning birikuvidan tashkil topgan anatomik terminlar rus tiliga so'zma-so'z, o'zbek tilida so'z oxiridan tarjima qilinadi. Lotin tilida birinchi bosh kelishikdagi ot so'ngra qaratqich kelishigidagi ot yoki otlar bo'ladi.

Qar. kel. Bosh kel.	Им.п. Вн.п.	Nom. Gen
kurakning kesmasi	-вырезка лопатки	-incisura scapulae
burunning devorchasi	-прегоротка носа	-septum nasi
kalla suyagining choki	-шов черепа	-sutura cranii

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### I. Otlarning turlanishini aniqlang va o'zagini toping:

crista, ae, f; musculus, i, m; sinus, us, m; ganglion, i, n; caput, capitis, n; rupertura, ae, f; cerebellum, i, n; margo, marginis, m; digutus, i, m; collum, i, n; meatus, us, m; facies, ei, f; genu, us, n; femur, femoris, n; os, ossis, n; cornu, us, n.

### II. O'zbek tiliga tarjima qiling:

1. Sulcus costae. 2. Septum linguae. 3. Collum mandibulae. 4. Collum scapulae. 5. Angulus mandibulae. 6. Capitulum humeri. 7. Muculus linguae. 8. Vena colli. 9. Vena cerebri. 10. Sutura cranii. 11. Bursa scapulae. 12. Cancer oesophagi. 13. Ramus oculi. 14. Ventriculus cerebri. 15. Nervus oculi. 16. Tuberculum costae. 17. Sulcus arteriae. 18. Fractura maxillae. 19. Ramus nervi. 20. Ligamentum tibiae.

### III. Lotin tiliga tarjima qiling:

1. Qovurg'aning bo'yni. 2. Umurtqaning venasi. 3. Qovurg'aning egati. 4. Ko'krakning qirradi. 5. Pastki jag'ning kesmasi. 6. O'mrov suyagining sinishi. 7. Umurtqaning arteriyasi. 8. Qovurg'aning bo'ynining qirradi. 9. Patki jag'ning sinishi. 10. Qovug'aning do'mboqchasi. 11. Tilning devorchasi. 12. Katta miyaning arteriyasi. 13. Burunning orqasi. 14. Burunning devorchasi (to'sig'i). 15. Bo'yinning muskuli. 16. Tilning venasi. 17. O'mrov suyagining boylami. 18. Burunning bo'shlig'i. 19. Nervning egati. 20. Qizilo'ngachning kasalligi. 21. Ko'zning nervi. 22. Qizilo'ngachning o'smasi. 23. Katta miyaning bo'lagi. 24. Yuqori jag'ning shoxi. 25. Burunning devorchasining sinishi. 26. Arteriyaning devorchasi.

## 16 -§. LEKSIK MINIMUM

I TURLANISH OTLAR			
ampulla, ae, f	-ampulla, ichiga dori quyub og'zi payvantlangan naycha		
apertura, ae, f	-teshik	gingiva, ae, f	-milk (tish milki)
cellula, ae, f	-hujayra	retina, ae, f	-to'r
fibra, ae, f	-tola	palpebra, ae, f	-qovoq
papilla, ae, f	-so'rg'ich		
II TURLANISH OTLAR			
bulbus, i, m	-olmacha, piyozcha	gyrus, i, m	-qiyish, pushta
bulbus oculi	-ko'z olmasi	nucleus, i, m	-yadro
ramus, i, m	-shox	spatium, i, n	-to'siq
cilium, i, n	-kiprik (mujgon)	supercilium, i, n	-qosh



I GURUH SIFATLARI			
cavernosus, a, um	-g'ovakli	oesophageus, a, um	-qizilo'ngachga oid
gastricus, a, um	-me'daga oid	pelvinus, a, um	-chanoqqa oid
nutricius, a, um	-oziqlantiruvchi	accessorius, a, um	-qo'shimcha
gluteus, a, um	-dumbaga oid		
II GURUH SIFATLARI			
corticalis, e	-po'stloqqa oid	pectoralis, e	-ko'krakga oid
lumbalis, e	-belga oid	pulmonalis, e	-o'pkaga oid
radialis, e	-bilak suyagiga oid	ulnaris, e	-tirsak suyagiga oid
spinalis, e	-orqa o'simtaga oid	papillaris, e	-ko'krak so'rg'ichga oid
ciliaris, e	-kiprikga oid	labialis, e	-labga oid

**Nota bene!**

**Homo ornate locum, non homines locus** – O'rin odamning husni emas, balki odam o'rinning husnidir.

**Pereculum in mora** – Kechiktirilishi xavflidir.

**6-DARS**

**17-§. SIFAT (ADJECTIVUM). SIFATNING NEGIZI. SIFATLARNING I VA II GURUHLARI**

Predmetning belgisini bildirib qanday? qanaqa? so'roqlariga javob beradigan so'z turkumiga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar otlar kabi rodlarda, sonlarda va kelishiklarda turlanadi.

Lotin tilida sifatlar ikkita katta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh sifatlari I va II turlanishdagi otlarning qo'shimchalari bilan turlanadi. Shuning uchun ular I va II turlanish sifatlari deyiladi. Ikkinchi guruh sifatlari III turlanishda turlanadigan otlarning qo'shimchalari bilan turlanadi. Shuning uchun ular III turlanish sifatlari deyiladi. IV va V turlanishdagi sifatlar mavjud emas.

I guruh sifatlari – I va II turlanishdagi otlar kabi qo'shimchalarga ega:

-us, -er – Masculinum rodi – II turlanish

-a – Femininum rodi – I turlanish

-um – Neutrum rodi – II turlanish

Lug'atga I guruh sifatleri Masculinum rod formasida to'liq yoziladi so'ngra Femininum va Neutrum rodlarning qo'shimchasi ko'rsatiladi. Shunday qilib otlardan farqi sifatlar rodlar bilan yoziladi.

latus, a, um – keng

rectus, a, um – to'g'ri

sinister, tra, trum – chap

Anatomiyada -ior -m, f; -ius -n qo'shimchalari bilan bir nechta sifatlar uchraydi.

anterior -m,f	oldingi	posterior, ius	orqadagi
anterius -n			
superior, ius	yuqoridagi	inferior, ius	pastki
maior, ius	katta	minor, us	kichik

## 18 -§. II GURUH SIFATLARINING XUSUSIYATLARI

II guruh sifatleri III turlanishli sifatlar bo'lib, ular 3 ta kichik guruhga bo'linadi. Bosh kelishikda ular quyidagi qo'shimchalarga ega bo'ladi:

1. II guruhning birinchi guruhcha sifatlariga uch qo'shimchali sifatlar mansub bo'lib, ular Masculinum rod -er, Femininum rod -is, Neutrum rod -e qo'shimchasiga ega.

acer, acris, acre – o'tkir.

saluber, salubris, salubre – sog'lom.

2. II guruh ikkinchi guruhcha sifatlariga ikki qo'shimchali sifatlar mansub bo'lib, ular Masculinum va Femininum rod -is, Neutrum rod -e qo'shimchasiga ega.

brevis, breve – kalta

articularis, articulare – bo'g'imga tegishli

communis, commine – umumiy

3. II guruh uchinchi guruhcha sifatlariga barcha uchala rod uchun bir xil qo'shimchali sifatlar mansub bo'lib, ular bosh kelishikda -s, -x yoki -r qo'shimchalariga ega bo'ladi. Bu xil sifatlarining asosini aniqlash uchun ularni qaratqich kelishigida turlash kerak.

biceps, bicipitis – ikki boshli

simplex, simplicis – oddiy

teres, teretis – dumaloq

4. Otlarning asoslariga -al, -ar suffikslarini hamda -is, -e sifat yasovchi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan ko'pgina III turlanishdagi sifatlar hosil qilinadi.

cervicalis, e – bo'yinga tegishli  
 muscularis, e – mushakka tegishli  
 occipitalis, e – ensaga tegishli.

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Quyidagi otlardan sifat hosil qiling.

dens, dentis, m	-tish	nasus, i, m	-burun
vertebra, ae, f	-umurtqa	costa, ae, f	-qovurg'a
cranium, ii, n	-kalla suyagi	dorsum, i, m	-orqa
pectus, oris, n	-ko'krak	femur, oris, n	-son suyagi
palma, aris, m	-kaft	pulmo, onis, m	-o'pka
fibula, ae, f	-kichik boldir suyagi	tibia, ae, f	-katta boldir suyagi
planta, ae, f	-oyoq tagi	cerebrum, i, n	-bosh miya.

#### 2. Sifatlarni tarjima qiling va nervus oti bilan moslashtiring.

kallaga tegishli, son suyagiga tegishli, yuzaga tegishli, pastki jag'ga tegishli, bilakka tegishli, orqa miyaga tegishli, tirsakka tegishli, bo'yinga tegishli, g'al-taksimon.

#### 3. Tarjima qiling.

1. Bo'lak (yelkaga tegishli, ichakka tegishli, to'g'ri ichakka tegishli, barmoq-ga tegishli, orqaga tegishli) arteriya.

2. Bronxial (o'n ikki barmoqli ichakka tegishli, bodomsimon bezga tegishli, ko'krakka tegishli, qorinchali, qorinchalararo) shox.

3. To'g'ri ichakga oid (bo'laklar orasidagi, mushakka tegishli, bronxial, bu-runga oid) vena.

#### 4. Tarjima qiling va otlar bilan sifatlarni moslashtiring.

1.Yon dumg'aza arteriyasi. 2.Dumg'aza teshigi. 3.Yon shox. 4.Bo'g'im mus-kuli. 5.Ensa qirg'og'i. 6.Ensa suyagi. 7.Burun shoxi. 8.Burun chig'anog'i. 9.Bu-run bo'shlig'i. 10.Ko'taruvchi, tushuruvchi muskul. 11.Ikki boshli, uch bosh-li muskul. 12.Ko'taruvchi bo'yin arteriyasi. 13.Tushuruvchi chamber ichak. 14.Qo'shuvchi shox.

#### 5. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'ying va sifatlarni otlar bi-lan moslashtiring.

1. Cartilago nasal... accessori...
2. Vena lateral... sinistr...
3. Foramen sacral... pelvin...
4. Ligamentum triangular... dextr...
5. Crista sacral... lateral...

6. Aorta pulmonal... sinistr...
7. Sulcus temporal... transvers...
8. Rete venos... plantar...
9. Ganglion lymphatic... articular...
10. Sutura palatin... transvers...
11. Musculus palmar... long...
12. Crus membranace... commun...
13. Arteria gastric... brev...
14. Tuber frontal... min...
15. Articulatio simpl... brev...
16. Ganglion cervical... impar...

**6. Lotin tiliga tarjima qiling va moslashtiring:**

1. Burunga tegishli (devorcha, qism, chig'anoq)
2. Ensaga tegishli (muskul, suyak, teshik)
3. Quloqqa tegishli (boylam, muskul, tog'ay)
4. Ko'z yoshiga tegishli (bez, suyak)

**7. Tarjima qiling, moslashtiring va Nom., Gen., Abl. Sing. va Plur.da turlang:**

1. Oddiy oyoqcha. 2. Bo'yinga tegishli tugun. 3. Oddiy bo'g'im. 4. Qo'shuvchi shox. 5. Burunga tegishli tog'ay. 6. Peshonaga tegishli qirg'oq. 7. Umumiy pardali oyoqcha. 8. Tanglayga tegishli kanal. 9. Kichik yumaloq muskul.

**8. Lotin tiliga tarjima qiling:**

- 1.Kichik boldir suyagi arteriyasining teriga oid shoxi. 2.O'rta chakkaga tegishli arteriyaning egati. 3.Ensa suyagining yon qismi. 4.Katta boldir suyagi muskulining payi. 5.Tanglay suyagining gorizontal plastinkasi. 6.Peshonaga tegishli nervning o'rta shoxi. 7.Bo'yin umurtqasining do'mboqchasi. 8.Jigarning yumaloq boylami. 9.Ko'z yoshi bezining chuquri. 10.Miya pardasining vena to'ri. 11.Bosh miyaning yondagi egati. 12.Boshning to'g'ri yondagi muskuli. 13.Bel arteriyasining egati. 14.Bosh miya oyoqchasining o'rta egati. 15.Son nervining muskulga tegishli shoxi. 16.Peshona suyagining g'alvirsimon teshigi.

**9. Anatomik birikmalarni tarjima qiling.**

- 1.Nervi cutanei brachii lateralis. 2.Vena cerebri media superficialis. 3.Ramus cutaneus cruris medialis. 4.Ramus communicans cum nervo auriculo temporalis. 5.Rami nasalis interni nervi ethmoidalis. 6.Lamina orbitalis ossis ethmoidalis. 7.Caput breve musculi bicipitis brachii. 8.Sulcus arteriae vertebralis. 9.Fovea glandulae lacrimalis.

**10. Murakkab sifatlarni quyidagi iboralarda grammatik tahlil qiling va ularni tarjima qiling.**

- 1.Bronchus superficialis. 2.Corpus infrapatellare. 3.Sulcus intertubercularis. 4.Sulcus interventricularis. 5.Tuberositas supraglandularis. 6.Septum interatri-



ale. 7.Glandula submandibularis. 8.Articulatio subthalaris. 9.Linea intercondy-  
laris. 10.Musculus subscapularis. 11.Arteria subscapularis. 12.Ligmentum  
intercostale.

### 11. O'qing, tarjima qiling:

*Cranium dividitur in cranium cerebrale et cranium viscerale. Cranium ce-  
rebrale ex octo ossibus compositur: osse frontali, duobus ossibus temporalibus,  
parietalibus, osse sphenoidali, ethmoidali, occipitali; cranium viscerale ossa qu-  
indecim formant, maxilla, ossa palatina, zygomatica, nasalia, lacrima, conchae  
nasalis inferiores, vomer, mandibula, os hyoideum. Ossa cranium immobilia sunt,  
mandibula solum mobilis os est. Varii muscoli cranium tegunt: muscoli frontalis,  
occipitalis, auriculares, nasales, zygomatici, temporales.*

octo	– sakkiz	compositus	– iborat
quindecim	– o'n besh	solum	– yagona
tegunt	– qoplaydilar.		

### 19-§. I-II TURLANISHDAGI SIFATLARNI YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

I. -ace-us, a, um; -e-us, a, um suffikslari otlarning asosiga qo'shilib, I-II turla-  
nish sifatlarini hosil qilib, organlarga taaluqligini bildiradi.

oss-e-us, a, um – suyakka tegishli (os, ossis, n – suyak)

membran-ace-us, a,um – pardali (membrana, ae, f – parda).

II. -ic-us, a, um, -in-us, a, um suffikslari otlar asosiga qo'shilib I-II turlanish  
sifatlarini hosil qilib predmetga yoki joyga taalluqligini bildiradi.

pancreat-ic-us, a, um – oshqozonosti beziga tegishli (pancreas, atis, f – osh-  
qozonosti bezi)

palat-in-us, a, um – tanglayga tegishli (palatum, i, n – tanglay).

III. -os va -lent suffikslari otlar asosiga qo'shilib, sifatlar hosil qilib, nima  
ekanligini bildiradi.

call-os-us, a, um – qavariq

pur-u-lent-us, a, um – yiringli.

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Quyidagi otlarni sifatlarga aylantiring va tarjima qiling:

a) -os suffiksi bilan

squama, ae, f – tanga;                      membrana, ae, f – parda

b) -in suffiksi bilan

canis, is, m, f – it, kuchuk;              pelvis, is, f – chanoq;              femina, ae, f – ayol

c) -e-us suffiksi bilan

cartilago, inis, f – tog'ay;              larynx, yngis, m – hiqildoq;              coccyx, ygis, m – dum;

amyllum, i, n – kraxmal;              fel, fellis, n – o't.

**2. Lotin tiliga tarjima qiling.**

ko'ndalang (boshcha, qism, o'simta, boylam, qirra)  
 tanglayga tegishli (arteriya, bo'shliq, teshik, yuza)  
 tashqi (yo'l, yuza, arteriya, o'simta, do'mboq, nerv, teshik)  
 dumga tegishli (shox, muskul, umurtqa)  
 o'ng (bo'g'im, soha, kanal, yoy, tana)  
 chap (tizzaga, yo'l, teshik, vena)

**3. Tarjima qiling va moslashtiring.**

o'ng (ko'ndalang, chap, qiyshiq, tashqi) qism  
 chap (ko'ndalang, tashqi, qiyshiq) bo'shliq  
 tanglayga oid (ko'ndalang, qiyshiq) chok  
 chap (o'ng, qiyshiq, keng) boylam

**4. O'qing, moslashtirilishiga e'tibor bering.**

1.Facies externa et interna. 2.Sulcus palatinus minor. 3.Canalis opticus.  
 4.Femur dextrum et sinistrum. 5.Caput longum. 6.Articulatio dextra. 7.Tuber  
 medium. 8.Corporum externum. 9.Foramen coccygeum. 10.Cornu coccygeum.  
 11.Genu dextrum. 12.Regio palatina. 13.Pars media. 14.Plexus fibrosus. 15.Ar-  
 cus profundus. 16.Regio profunda. 17.Foramen profundum. 18.Corporum osseum.  
 19.Pars cardiaca. 20.Facies obliqua. 21.Processus zygomaticus. 22.Os longum  
 et latum.

**5. O'qing va tarjima qiling.**

**RADIUS**

*Antebrachium ex ulna et radio constat. Ulna et radius longi sunt. In radio ca-  
 put radii et capitulum humeri distinguimus. Forma capituli radii rotunda est.  
 Capitulum radii de radio cetero collo radii parvo seperatur. In radio cristam in-  
 terosseam acutam videmus.*

constat -iborat bo'lishi                      sunt -bor  
 distinguimus -biz farqlaymiz              seperatur -taqsimlamoq  
 videmus -biz ko'rayapmiz

**20-§. LEKSIK MINIMUM**

articularis, e	bo'g'inga tegishli	auricularis, e	quloqqa tegishli
brevis, e	kalta, qisqa	cerebralis, e	miyaga tegishli
cervicalis, e	bo'yinga tegishli	communis, e	umumiy
ethmoidalis, e	g'alvirsimon	facialis, e	betga, yuzaga oid
frontalis, e	pehonaga tegishli	insanabilis, e	davosiz, bedavo
lateralis, e	yondagi	longitudinalis, e	uzunasiga
lumbalis, e	belga tegishli	medialis, e	o'rtacha, yaqin

occipitalis, e	ensaga tegishli	palmaris, e	kaftga tegishli
pectoralis, e	ko'krakka tegishli	plantaris, e	oyoq tagiga tegishli
sacralis, e	dumg'azaga tegishli	sphenoidalis, e	ponasimon
sublingualis, e	til ostiga tegishli	superficialis, e	yuzaki
temporalis, e	-chakkaga tegishli	ascendens, entis	ko'tariluvchi
descendens, entis	tushuruvchi	biceps, cipitis	ikki boshli
impar, imparis	toq, yakka	simplex, icis	oddiy
communicans, antis	qo'shuvchi, tutashuvchi		

**Nota bene!**

**Radices litterarum amare sunt, fructus dulces** – Ilmning ildizi achchiq, mevasi esa shirin.

**Debes, egro potes** – Bajarishing kerakmi, demak qo'lingdan keladi.

**Mustaqil o'qish uchun matnlar**

**DENTES**

*Dentes in cavitate (cavo) oris locati sunt. In aetate puerili dentes decidui increscunt. Postea dentes decidui decidunt et dentes permanentes increscunt. In omni dente corona dentis, collum dentis et radix dentis distinguitur. Alii dentes unam radicem, alii plures radices habent. Materia dentium ex dentino, enamelo et substantia ossea constat. Radix dentis periodontio cingitur. Praeterea gingivae dentes cingunt item et periosteum. Intra coronam dentis locatur cavitas (cavum) et canalis dentis. In apice radice dentis est foramen apicis dentis. Per foramen apicis dentis in cavitatem (cavum) dentis, ubi pulpa dentis est, vasa sanguinea et nervi intrans. Dentes forma coronae sunt: dentes incisivi, dentes canini, dentes pr(a)emolares, dentes molares et dentes (sapientiae) serotini.*

**7-DARS**

**21-§. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI**

Sifatlar, sifatdosh yoki tartib sonlar bilan ifodalangan aniqlovchi moslashgan aniqlovchi deyiladi. Moslashgan aniqlovchi (sifat, ravish, olmosh, son) otlar bilan rodada, sonda va kelishikda moslashadi va gapda aniqlanmishdan (otdan) keyingi o'rinda keladi.

ramus dexter – o'ng shox                      vertebra septima – yettinchi umurtqa  
Moslashgan aniqlovchini tarjima qilish uchun oxirgi so'zdan boshlanadi:  
nervus caroticus internus – ichki uyqu nervi  
arteria iliaca externa – tashqi yonbosh arteriyasi

### Mashqlar

#### 1. Qavs ichidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring, termini tarjima qiling:

- |                                    |                                     |
|------------------------------------|-------------------------------------|
| 1. sulcus (transversus, a, um)     | 2. linea (obliquus, a, um)          |
| 3. sutura (squamosus, a, um)       | 4. humerus (dexter, tra, trum)      |
| 5. musculus (rectus, a, um)        | 6. intestinum (caecus, a, um)       |
| 7. digitus (longus, a, um)         | 8. morbus (chronicus, a, um)        |
| 9. clavicula (sinister, tra, trum) | 10. tuberculum (zygomaticus, a, um) |
| 11. ganglion (acusticus, a, um)    | 12. fossa (medius, a, um)           |

#### 2. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'ying, moslashtiring, termini tarjima qiling:

- |                        |                               |
|------------------------|-------------------------------|
| 1. vena cav...         | 2. aorta thoracic...          |
| 3. ventriculus dext... | 4. vertebra coccyge...        |
| 5. nervus ischiadic... | 6. morbus chronic...          |
| 7. incisura cardiac... | 8. glandula thoracic...       |
| 9. musculus lat...     | 10. arteria gastric...        |
| 11. vena hepatic...    | 12. brachium dextr...         |
| 13. colon transvers... | 14. diameter (f) transvers... |
| 15. ganglion medi...   | 16. foramen caec...           |

#### 3. Moslashtirib tarjima qiling:

1. ko'ndalang (egat, arteriya, boylam)
2. yuqori (kesma, shox, tugun)
3. chap (ko'z, kurak, devorcha)
4. chuqur (nerv, arteriya, teshik)
5. tanglayga tegishli (egat, vena, bo'shliq)

#### 4. Moslashtirib tarjima qiling:

ichki qiyshiq muskul, chuqur o'rta vena, uzun ko'ndalang boylam, tanglayga tegishli ko'ndalang chok, uzun to'g'ri muskul, keng qiyshiq boylam, ichki ko'krak arteriyasi, tashqi qiyshiq muskul, chap jigarga oid vena, o'ng ko'ngdalang egat.

#### 5. Tarjima qiling, Nom. Gen. Abl. Sing. va Plur.ga qo'yib turlang:

ko'krakga tegishli umurtqa, chuqur shox, o'ng ko'z, suyakga tegishli devorcha, yurakga tegishli tugun, chap oshqozoncha, ko'ruv nervi, ko'krakga tegishli ichki arteriya

#### 6. Terminlarni moslashmagan aniqlovchi bilan tarjima qiling:




1. Crista colli costae. 2. Tuberculum colli costae. 3. Fractura septi nasi. 4. Fractura colli costae. 5. Incisura ligamenti costae. 6. Fovea septi linguae. 7. Fractura mandibulae et maxillae. 8. Sulcus linguae et palati. 9. Arteria cerebri et cranii. 10. Sutura cranii et scapulae. 11. Fractura dorsi nasi. 12. Fractura nasi. 13. Facies tuberculi costae. 14. Lamina arcus vertebrae. 15. Ligamentum tuberculi ossis. 16. Lobus cerebri. 17. Musculus dorsi. 18. Fossa fibulae. 19. Angulus sterni. 20. Basis cranii.

**22-§. LEKSIK MINIMUM**

<b>I TURLANISHDAGI OTLAR</b>			
clavicula, ae, f	o'mrov, o'mrov suyagi	nucha, ae, f	ensa
fascia, ae, f	mushakni o'rab turuvchi yupqa parda	fibula, ae, f	kichik boldir suyagi
tibia, ae, f	katta boldir suyagi	squama, ae, f	tangacha
tonsilla, ae, f	bodomcha	ulna, ae, f	tirsak suyagi
<b>II TURLANISHDAGI OTLAR</b>			
nasus, i, m	burun	palatum, i, n	tanglay
vestibulum, i, n	dahliz	porus, i, m	teshik
organum, i, n	organ, a'zo		
<b>III TURLANISHDAGI OTLAR</b>			
caput, itis, n	bosh	os (or), oris, n	og'iz
<b>I GURUH SIFATLAR</b>			
pterygoideus, a,um	qanotsimon	thyr(e) oideus,a,um	qalqonsimon
venosus, a, um	vena qon tomiriga oid	albus, a, um	oq
asper, a, um	g'adir-budur	coronarius, a, um	tojsimon
iliacus, a, um	yonbosh ichakga oid	liber, era, erum	erkin, ozod
niger, gra, grum	qora	sacer, cra, crum	dumg'azaga oid
durus, a, um	qattiq	massetericus, a,um	chaynovga oid

mylohyoideus, a, um	jag'-til ostiga tegishli	palatoglossus, a, um	tanglay-tilga oid
<b>II GURUH SIFATLARI</b>			
alaris, e	qanotga oid	cerebralis, e	miyaga oid
cervicalis, e	bo'yinga oid	ethmoidalis, e	g'alvirsimon
frontalis, e	pehonaga oid	maxillaris, e	yuqori jag'ga oid
mandibularis, e	pastgi jag'ga oid	nasalis, e	burunga oid
occipitalis, e	ensaga oid	orbitalis, e	ko'z kosasiga oid
sphenoidalis, e	ponasimon	temporalis, e	chakkaga oid
vertebralis, e	umurtqaga oid	jugularis, e	bo'yinturuq
sacralis, e	dumg'azaga oid		




**CAVITAS ORIS - OG'IZ BO'SHLIG'I**

1. labium, i, n	lab	dens, dentis, m	tish
palatum, i, n	tanglay	6. dens incisivus	kesuvchi tish
2. palatum durum	qattiq tanglay	7. dens caninus	qoziq tish
3. palatum molle	yumshoq tanglay	8. dens premolaris	kichik oziq tish
4. uvula, ae, f	tilcha	9. dens molaris	katta oziq tish
5. lingua, ae, f	til	10. tonsilla, ae, f	bodomcha

alveolaris, e	alveolangan, katakli, pufakli	buccalis, e	lunjga tegishli
dentalis, e	tishga oid	infraorbitalis, e	ko'z kosasi ostiga oid
mentalis, e	engakga oid	mollis, e	yumshoq

**Nota bene!**

**Aliis inserviando consumer** – O'zgalarga nur berib, o'zim ado bo'laman.  
**Medicus curat, natura sanat morbus** – Tabiat sog'aytiradi, vrach davolaydi.



**APPARATUS DIGESTORIUS**

1) pharynx, yngis, m	-tomoq, halqum	7) pancreas, atis, n	-me'da osti bezi
2) parotis, itis, f	-quloq oldi so'lak bezi	8) jejunum, i, n	-ingichka ichak
3) oesophagus, i, m	-qizilo'ngach	9) caecum, i, n	-ko'r ichak
4) gaster, tris, f	-me'da	10) processus vermiformis caeci	-ko'r ichakning chuvalsimon o'simtasi
5) duodenum, i, n	-o'n ikki barmoqli ichak	11) crossum, i, n	-yo'g'on ichak
6) hepar, atis, n	-jigar	12) rectum, i, n	-to'g'ri ichak
vesica fellea (biliaris)	-o't pufagi	anus, i, n	-orqa chiqaruv teshigi

## 8-DARS. ANATOMIK SO'ZLARNING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK TUZILISHI

### 23-§. MURAKKAB ANATOMIK IBORALARNING TARJIMASI

Anatomik so'zlar bir, ikki, ko'p so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi mumkin.

1. Bir so'zli anatomik so'z bitta otdan iborat:

**Vertebra** – umurtqa, **ligamentum** – bog'lam, **ossa** – suyaklar:

2. Ikki so'zli anatomik so'zlar ot va aniqlovchi (ot yoki sifat)dan iborat:

**Vertebra thoracica** – ko'krak umurtqasi.

**Ligamentum latum** – keng bog'lam.

**Septum nasi** – burunning to'sig'i.

**Fundus cranii** – kalla suyagining tubi.

3. Ko'p so'zli anatomik so'zlar ot va bir nechta aniqlovchilardan iborat:

**Ligamentum transversum profundum** – chuqur ko'ndalang bog'lam.

**Vena cerebri hominis** – odamning bosh miyasining venasi

Aniqlovchi so'z bir vaqtning o'zida moslashmagan va moslashgan aniqlovchi ko'rinishida bo'lishi mumkin:

**Arteria transversa colli** – bo'yinning ko'ndalang arteriyasi.

Bu terminda **transversa** moslashgan aniqlovchi, **colli** moslashmagan aniqlovchi hisoblanadi.

Anatomik iboralarda moslashgan aniqlovchi (sifat) aniqlanmish (ot)dan so'ng yoki iboraning oxirida turadi.

**Arteria transversa colli** – bo'yinning ko'ndalang arteriyasi

**Arteria cerebri media** – katta miyaning o'rta arteriyasi.

Anatomik iboralarni rus tiliga bosh kelishikda turgan so'zdan, so'ngra qaratqich kelishigidagi so'zni tarjima qilinadi. O'zbek tiliga qaratqich kelishigida, so'ngra bosh kelishikda turgan so'z tarjima qilinadi. Lotin tilida birinchi bosh kelishigidagi so'z tarjima qilinadi.

Nom	Gen	Nom	Tarjima
septum	nasi	osseum	burunning suyakka tegishli to'sig'i
Nom	Nom	Gen	Tarjima
vagina	fibrosa	nervi	nervning tolali qini

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1.O'zbek tiliga tarjima qiling:

1.Lobulus glandulae thyroideae. 2.Sulcus nervi petrosi. 3.Musculus obliquus oculi. 4.Vena cerebri interna. 5.Nervus cutaneus brachii. 6.Bursa ischiadica



musculi. 7.Plica mucosa nasi. 8.Nucleus nervi hypoglossi. 9.Sulcus venae cavae. 10.Arteria ligamenti uteri.

**2. Lotin tiliga tarjima qiling:**

1.Bo'yinning ko'ndalang nervi. 2.Tilning ko'ndalang venasi. 3.Kurakning ko'ndalang boylami. 4.Orqaning uzun qismi. 5.Bosh miyaning tashqi venasi. 6.Ko'ndalang nervning egati. 7.Nervning chuqur venasi. 8.Chap venaning burmasi. 9.Dumba muskulining xaltasi. 10.O'ng ko'zning nervi.

**24-§. MURAKKAB ANATOMIK IBORALARNI TARJIMA QILISH**

1. Anatomik iboralarda har doim birinchi bo'lib ot bosh kelishikda turadi. Unga taalluqli sifat bitta guruhni tashkil qilib bosh kelishikda bo'ladi. Bosh kelishikdagi guruh iborada faqat bitta bo'lishi mumkin.

2. Ikkinchi joyda turgan ot qaratqich kelishigida bo'ladi.

3. Qaratqich kelishigidagi guruh bir nechta bo'lishi mumkin. Bu terminda nechta qaratqich kelishigida turgan otga bog'liqdir.

4. Murakkab anatomik iboralar quyidagi usullar asosida tarjima qilinadi:

a) lotin tiliga birinchi bosh kelishik guruhi, so'ngra qaratqich kelishik guruhi tarjima qilinadi.

b) rus tiliga ham xuddi shunday tartibda tarjima qilinadi.

c) o'zbek tiliga birinchi qaratqich kelishik guruhi so'ngra bosh kelishik guruhi tarjima qilinadi. Har bir guruhni oxiridan boshlab tarjima qilish kerak.

Nom	Nom	Gen	gen	Gen
5	4	3	2	1
ramus	profundus	arteriae	transversae	colli
bo'yinning	ko'ndalang	arteriyasi-ning	chuqur	shoxi
plica	tunicae	mucosae	vesicae	felleae
o't	pufagining	shilliq	pardasining	burmasi

Murakkab anatomik iboralarni to'g'ri tarjima qilish uchun grammatik tahlil qilish kerak. Grammatik tahlil sxemasi har bir so'zning asosiy tuzilishini to'liq xarakteristikasini ko'rib chiqadi.

Ramus oesophageus aortae thoracicae -ko'krak qafasi aortasining qizilo'n-gach shoxi

*ramus, i, m II*

*oesophageus, a, um I-II*

*aorta, ae f I*

*thoracicus, a, um I-II*

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Tarjima qiling, grammatik tahlil qiling.

1.Plicae venae cavae sinistrae. 2.Vagina externa nervi optici. 3.Vena cerebri media profunda. 4.Fractura septi nasi. 5.Vena lobi medii. 6.Bursa ishiadica musculi glutei. 7.Vena cerebri interna. 8.Vena profunda linguae. 9.Bursa ischiadica musculi obturatorii interni. 10.Musculus transversus linguae.

### 2. Lotin tiliga tarjima qiling.

1.Qalqonsimon bezning qiyshiq chizig'i. 2.Burunning suyak devorchasi. 3.O'ng ko'zning qiyshiq muskuli. 4.Chap oshqozonning chuqur venasi. 5.Ko'ndalang bo'shliqning egati. 6.Bo'yinning ko'ndalang nervi. 7.Qalqonsimon bezning boylami. 8.Boshning uzun muskuli. 9.Qorinning tashqi qiyshiq muskuli. 10.G'orsimon tananing devorchasi.

### 3. Tarjima qiling, moslashtiring va Nom., Gen., Abl.Sing. va Plur.da turlang.

1.Ko'ndalang chambar ichak 2.Tashqi qiyshiq muskul. 3.Chap oshqozon arteriyasi. 4.Uzun ko'ndalang boylam. 5. anglayning ko'ndalang choki.

### 4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1.Ligamenta columnae vertebralis. 2.Articulationes membri superioris. 3.Sinus venarum cavarum. 4.Plexus cavernosi concharum. 5.Musculi costarum longi. 6.Ossa digitorum pedis. 7.Sutura cranii. 8.Venae cerebri inferiores. 9.Ossa faciei, cranii, carpi, metacarpi, thoracis. 10.Regiones capitis, colli, thoracis, abdominis.

### 5. O'qing, tarjima qiling.

#### De humero

*In humero collum anatomicum humeri et collum chirurgicum humeri videmus. Post collum anatomicum duo tubercula sunt. Humerus trochleam in externo habet. Supra trochleam fossa coronoidea et fossa olecrani jacent (sunt). Trochlea humerum cum ulna jungit. Juxta trochleam capitulum humeri humerum cum radio jungit.*

duo - ikki

extremum, i, n - 1) so'ng 2) uch

est - bor.

habet - ega bo'lish

jungit - qo'shmoq

## 25-§. LEKSIK MINIMUM

I TURLANISHDAGI OTLAR			
bursa, ae, f	xalta	valvula, ae, f	qopqoq
vena portae	darvoza venasi	pleura, ae, f	plevra, o'pkani o'ragan parda

II TURLANISHDAGI OTLAR			
cerebellum, i, n	miyacha	nodus, i, m	tugun
thalamus, i, m	ko'ruv do'mbog'i	ostium, i, n	teshik, kirish
thymus, i, m	ayrisimon bez	cingulum, i, n	bel (belbog')
rhythmus, i, m	ritm, ohang, zarb	volvulus, i, m	ichak qopqog'i
I GURUH SIFATLARI			
cavus, a, um	bo'sh	laryngeus, a, um	hiqildoqqa oid
cutaneus, a, um	teriga oid	pharyngeus, a, um	halqumga oid
ischiadicus, a, um	quymichga oid	mastoideus, a, um	so'rg'ichsimon
magnus, a, um	katta	squamosus, a, um	tangachali
parvus, a, um	kichik	trapezoideus, a, um	trapetsiyasimon
II GURUH SIFATLARI			
auricularis, e	quloqqa oid	facialis, e	yuzga oid
parietalis, e	tepa suyakka oid	lacrimalis, e	ko'z yoshga oid
dorsalis, e	orqaga oid	muscularis, e	muskulga oid
ventralis, e	oldingi	lingualis, e	tilga oid
QIYOSIY DARAJADAGI SIFATLAR			
anterior, ius	old	major, ius	katta
posterior, ius	orqa	minor, us	kichik
inferior, ius	pastki	superior, ius	yuqori

**Nota bene!**

**Per scientiam ad salutem aegroti** - Ilm orqali kasalni sog'aytirish  
**Amat victoriam curam** - G'alaba tirishqoqlikni yaxshi ko'radi  
**Veni, vidi, vici** - Keldi, ko'rди, yengdi.

**26 -§. LEKSIK MINIMUM**

SIFATLARNING I-II TURLANISHI II QISM			
calcaneus, a, um	tovonga tegishli	grossus, a, um	yo'g'on, katta
circumflexus, a, um	aylana	heroicus, a, um	kuchli ta'sir etuvchi

felleus, a, um	o'tga oid	gastricus, a, um	oshqozonga oid
gluteus, a, um	dumbaga oid	hyoideus, a, um	til osti (suyakka)
hypoglossus, a, um	til osti (nerv)	mucosus, a, um	shilliq
lacteus, a, um	sutsimon	petrosus, a, um	toshli
tympanicus, a, um	nog'oraga tegishli	peroneus, a, um	kichik boldir suyagiga tegishli

**Nota bene!**

**Tempus vulnera sanat** – Jarohatni vaqt davolaydi.

**Medice, cura te ipsum** – Shifokor, muolajani o'zingdan boshla.

## 9-DARS

### 27-§. SIFAT DARAJALARI. QIYOSIY DARAJA SIFATLARINING YASALISHI VA TURLANISHI

Lotin tilida sifatlarni 3 ta darajaga ega:

Gradus positivus – oddiy daraja

Gradus comparativus – qiyosiy daraja

Gradus superlativus – orttirma daraja.

Oddiy daraja, bu – sifatlarning lug'at formasi:

longus, a, um – uzun

ruber, bra, brum – qizil

acer, acris, acre – o'tkir

simplex, icis – oddiy.

**QIYOSIY DARAJA:** Qiyosiy darajali sifatlarni hosil qilish uchun oddiy darajali sifatlarning negiziga Masculinum va Femininum rodlar uchun -ior suffiksini, Neutrum rod uchun -ius suffiksini qo'shish kerak.

ODDIY DARAJA	NEGIZ	SUFFIKS	QIYOSIY DARAJA
longus, a, um – uzun	long	m,f: -ior n: -ius	longior, longius – uzunroq
ruber, bra, brum – qizil	rubr		rubrior, rubrius – qizilroq
brevis, e – kalta	brev		brevior, brevis – kaltaroq
simplex, icis – oddiy	simplic		simplicior, simplicius – oddiyroq



Qiyosiy darajali sifatlar 3-turlanish otlarning qo'shimchalari bilan Masculinum va Femininum rodlarda liquor; Neutrum rodga esa corpus kabi turlanadi:

	m, f	N
Nom	longior	longius
Gen	longioris	
Nom	simplicior	simplicius
Gen	simplicioris	

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

**1. Oddiy darajali sifatlardan qiyosiy darajali sifatlar hosil qiling:**

chuqur, keng, o'tkir, yumshoq, yangi, uzun, kalta, oddiy.

**2. Lotin tiliga tarjima qiling va Nom., Gen., Abl. Sing. va Plurga qo'ying:**

chuqurroq bo'shliq, uzunroq yuza, kaltaroq arteriya, oddiyroq bo'g'im, kengroq muskul, o'tkirroq qirra.

### 28-§. LEKSIK MINIMUM

I TURLANISH OTLAR			
fossa, ae, f	chuqur	fovea, ae, f	chuqurcha
membrana, ae, f	parda	palma, ae, f	kaft
planta, ae, f	oyoq kafti	plica, ae, f	burma
medulla, ae, f	miya	medulla ossium	suyak iligi
II TURLANISH OTLAR			
atrium, i n	yurak bo'lmasi	bronchus, i, m	bronx
lobus, i, m	bo'lak	thalamus, i, m	ko'ruv do'mbog'i
retinaculum, i, n	to'rcha	thymus, i, m	tolali bez
carpus, i, m	qo'l kaft oldi suyagi	lumbus, i, m	bel
metacarpus, i, m	qo'l kaft suyagi	nodulus, i, m	tuguncha
I GURUH SIFATLARI			
arteriosus, a, um	arteriyaga oid	oblongatus, a, um	uzunasiga
sanguineus, a, um	qonga oid	pyloricus, a, um	me'daning chi- qish qismiga oid
spurious, a, um	yolg'on	verus, a, um	chin

II GURUH SIFATLARI			
cerebellaris, e	miyachaga oid	generalis, e	umumiy
analıs, e	orqa chiqaruv teshigiga oid	biliaris, e	o'tga oid

**Nota bene!**

**Dulce et decorum est, pro patri, mori** – Vatan uchun jon bermoq, baxt va sharaf erur!

**Ad cogitandum et agentum homo natus est** – Inson fikrlash va harakat qilish uchun yaratilgan.

**10-DARS**

**29-§. SIFAT DARAJALARI. ORTTIRMA DARAJA SIFATLARINING YASALISHI VA TURLANISHI.**

Sifatlarning orttirma darajasi quyidagi yo'llar bilan yasaladi:

a) Sifatlarning ko'pgina orttirma darajalari oddiy darajali sifatlarning asosiga -issim suffiksini va 1 -guruh sifatlarning rod qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

-issim-us -Masculinum rodi uchun

-issim-a -Femininum rodi uchun

-issim-um -Neutrum rodi uchun

ODDIY DARAJA	NEGIZ	SUFFIKS	ORTTIRMA DARAJA
longus, a, um – uzun	long	-issim	longissimus, a, um – eng uzun
brevıs, e – kalta	brev		brevissimus, a, um – eng kalta
simplex, icıs – oddiy	simplic		simplicissimus, a, um, – eng oddiy

b) -er qo'shimchasi bilan tugagan sifatlarning orttirma darajasi Masculinum rod shakliga -rim suffiksi va 1-guruh sifatlarning qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

-rim-us – Masculinum rod uchun

-rim-a – Femininum rod uchun

-rim-um – Neutrum rod uchun

Oddiy daraja	Orttirma daraja
ruber, bra, brum – qizil	ruberrimus, a, um – eng qizil
acer, acris, acre – o'tkir	acerrimus, a, um – eng o'tkir

Orttirma darajali sifatlar 1-2-turlanish otlar kabi turlanadi.

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

**1. Oddiy darajali sifatlardan orttirma darajali sifatlar hosil qiling.**

chuqur, keng, yumshoq, qora, sog', qizil, oddiy, kalta.

**2. Tarjima qiling, Nom., Gen., Abl. Sing. va Plur. da turlang.**

eng chuqur bo'shliq, eng oddiy bo'g'im, eng keng muskul, eng qizil o'zak.

**3. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1.Musculus longissimus dorsi. 2.Musculus longissimus cervicis. 3.Musculus longissimus thoracis. 4.Musculus longissimus capitis. 5.Os durius. 6.Substantia compactior. 7.Ligamentum latius. 8.Auditus acrior.

**4. Sifatlarni barcha darajalarga qo'ying va otlar bilan moslashtiring.**

chuqur (bo'shliq, asab, vena),

kalta (qovurg'a, muskul, boylam),

oddiy (bo'g'im, boldir),

qizil (o'zak, orqa miya).

**5. O'qing va tarjima qiling.**

*Prima costa omnium costarum latissima est. Phalanges hallicis crassiores sunt quam phalanges pollices. Costa prima brevior reliques ac latior. Durieres osse dentes sunt. Omnium ossium sceleti hominis femur longissimum et crossum est. Os sacrum sceleti feminae latius et brevius est quam viri. Periodus incubationis typhi abdominalis longior est periodo typhi recurrentis periodus incubationis typhi exanthematici longissima est.*

omnium – barchadan

reliquis – qolgan

vir – erkak

recurrens – qaytaladigan, qaytarma.

### 30-§. NOTO'G'RI DARAJALI SIFATLAR

Quyidagi sifatlarning darajalari turli asosdan hosil qilinadi, shuning uchun bunday sifatlarni noto'g'ri darajali sifatlar deyiladi.

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
bonus, a, um – yaxshi	melior, melius – yaxshiroq	optimus, a, um – eng yaxshi
malus, a, um – yomon	peior, peius – yomonroq	pessimus, a, um – eng yomon

magnus, a, um – katta	major, majus – kattaroq	maximus, a, um – eng katta
parvus, a, um – kichik	minor, minus – kichikroq	minimus, a, um – eng kichik
multus, a, um – ko'p	plures, plura – ko'proq	plurimus, a, um – eng ko'p

**Nota bene!**

Anatomiya iboralarida barcha qiyosiy darajalar magnus, a, um va parvus, a, um so'zlaridagi oddiy daraja ma'nosida qo'llaniladi.

Musculus teres major – katta yumaloq muskul

Arteria palatina minor – tanglayga tegishli kichik arteriya

Musculus gluteus maximus, minimus – katta, kichik dumba muskuli

**31-§. YETISHMAGAN DARAJALI SIFATLAR**

Bir qancha sifatlarning oddiy darajasi yo'q. Bunday holatda qiyosiy daraja yetishmagan oddiy daraja kabi tarjima qilinadi.

Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
anterior, anterieus – oldingi	-
posterior, posterius – orqadagi	postremus, a, um – eng orqadagi
superior, superius – yuqorigi	supremus, a, um – eng yuqorigi
inferior, inferius – pastki	infimus, a, um – eng pastki

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. Uchala darajada tarjima qiling.**

1. Yaxshi (symptom, tashxis, odam).
2. Yomon (prognoz, dori, kasallik).
3. Katta (teshik, vena, muskul).
4. Kichik (shox, kanal, do'mboq)

**2. Nom., Gen., Abl. Sing. va Plur.ga qo'ying.**

1. Tuber ischiadicum majus.
2. Ductus sublingualis major.
3. Dosis maxima.
4. Facies articularis inferior.

**3. Nuqtalar o'rniga qo'shimchalarni qo'yib otlar bilan sifatlarni moslashtiring va tarjima qiling.**

Musculus teres mai... (min...)

Canalis palatin... mai... (min...)

Cornu mai... (min...)

Foramen palatin... mai... (min...)



Ductus sublingual... mai...

Digitis minim...

Musculus glute... maxim... (minim...)

Processus articular... inferi...

Foramen longitudinal... anteri...

Ganglion cervical... superi...

Musculus longitudinal... superi... (inferi...)

Ligamentum longitudinal... anteri... (poster...)

#### 4. Nom.Sing., Gen.Sing.ga qo'yib tarjima qiling.

1.Orqa quloqqa oid muskul. 2.Oldingi bo'g'imga oid yuza. 3.Pastki bo'g'imga oid o'simta. 4.Katta va kichik shox. 5.Yuqori bo'yinga tegishli tugun. 6.Katta quymuchga oid do'mboq. 7.Eng yuqori burunga oid chig'anoq. 8.Oldingi uzunasiga boylam. 9.Eng yuqori qovurg'alararo arteriya. 10.Oldingi tovonga oid yara.

#### 5. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1.Venae cordis minimae. 2.Foramina venarum minimarum. 3.Ligamentum capitis fibulae anterius. 4.Tubercula anteriora vertebrarum lumbalium. 5.Bursa subtendinea muscoli bicipitis femoris inferior. 6.Vaginae synoviales muscoli obliqui superioris. 7.Ramus communicans cum nervo laryngeo inferiore.


#### 6. Lotin tiliga tarjima qiling.

1.Yuqori toshsimon bo'shliqning egati. 2.Kichik chanoqning teshigi. 3.Katta do'mboqchanning qirrasi. 4.Pastki qismning yuqorigi qirg'og'i. 5.Chanoq diafragmasining pastki fassiyasi. 6.Yuqorigi qovoqning ko'taruvchi muskuli. 7.Me'daosti bezining oldingi yuzasi. 8.Til osti suyagining katta shoxi. 9.O'ng o'pkaning yuqorigi bo'lagi. 10.Yondagi qorinchaning pastki shoxi. 11.Kalla suyagining katta orqadagi to'g'ri muskuli. 12.Chap qorinchaning orqadagi venasi.

#### 7. Tarjima qiling.

*Circulus sanguinis major circulo sanguinis minore multo longior est. Sanguis venosus per venae cavae superiorem et inferiorem in atrium dextrum cordis infunditur. In facie pelvina ossis sacri foramina sacralia anterior in fascia dorsali foramina sacralia posteriora sita sunt. Hepar est glandula corporis maxima in parte abdominis superiori sita. Omnium vasorum vasa capillario minima et superior dividuntur. Trochanter major et minor in superior parte femoris sunt. Pulmones in cavo dextro et sinistro thoracis locatio, maiorem partem cavi sinistri occupant. Habitus aegroti post operiatonem optimus est. Diagnosis cholera simplex est, sed prognosis pessima.*

infunditur – quyilmoq    occupant – band qilmoq  
sed – ammo



### APPARATUS RESPIRATORIUS(I)

1. cavitas nasi	burun bo'shlig'i	7. bronchus, i, m	bronx, nafas yo'li
2. naris, is, f	burun teshigi	8. bronchialis, e	bronxga oid
3. cavum oris	og'iz bo'shlig'i	9. diaphragma, atis, n	ko'krak va qorin o'rtasidagi to'siq
4. pharynx, yngis, m	halqum	10. costa, ae, f	qovurg'a
5. larynx, ngis, m	hiqildoq, tomoq	11. pulmo, onis, m	o'pka
6. trachea, ae, f	kekirdak		

32-§. LEKSIK MINIMUM

colica, ae, f	qorinda bexosdan og'riq paydo bo'lishi	varix, icis, m,f	venaga tegishli tugun, venaning kengayishi
oedema, atis, n	shish	hernia, ae, f	churuk, churra
icterus, i, m	sariq kasallik	inflammatio, onis, f	yallig'lanish
infarctus, us, m	qon bilan taminlanishi to'xtashi natijasida o'lgan to'qima sohasi	ileus, i, m	ichak tutulishi, ichak harakatlarining hajmi
valvulus, i, m	ichakning darvoza orqasi	paralysis, is, f	falaj (shol)
paresis, is, f	parez (yengil chala falaj)	eczema, atis, n	yuqmaydigan teri kasalligi
prolapsus, us, m	tushurish, yoqish	spasmus, i, m	pay tortish, talvasa
coma, atis, n	xushsizlik holati	pneumonia, ae, f	o'pka yallig'lanishi

**Nota bene!**

**Salus populi -suprema lex** – Xalq farovonligi oliy qonun.

**Usus optimus magister est** – Tajriba eng yaxshi o'qituvchidir.

11-DARS

33 -§. III TURLANISH OTLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

III turlanishga barcha uchala rodada qaratqich kelishik birlikda -is qo'shimchasi bilan tugaydigan otlar kiradi. Bosh kelishik birlikda III turlanishdagi otlar turli qo'shimchalarga ega bo'ladi.

III turlanishdagi otlar teng murakkab va noteng murakkab bo'ladi. Teng murakkab so'zlar deb bosh va qaratqich kelishikda teng, bir xil bo'g'inga ega bo'lgan so'zlarga aytiladi.

Nom.Sing.: cos-ta nerv-us au-ris ge-nu fo-mes ca-na-lis

Gen.Sing.: cos-tae ner-vi au-ris ge-nus fo-mis ca-na-lis

Noteng murakkab otlar qaratqich kelishik birlikda, bosh kelishik birlikdagi



otlarga nisbatan bir bo'g'in ko'p bo'ladi.

Nom.Sing.: mar-go ca-put ra-dix 2 bo'g'in

Gen.Sing.: mar-gi-nis ca-pi-tis ra-di cis 3 bo'g'in

III turlanishda ko'pincha otlarning asosi bosh kelishikning asosiga to'g'ri kelmaydi. III turlanishdagi otlarning asosini qaratqich kelishik birlikda -is qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Nom.Sing.	Gen.Sing.	Asosi
phalanx	phalang-is	phalang
caput	capit-is	capit
articulatio	articulation-is	articulation

Turlanishda so'zlarning asosiga kelishik qo'shimchalari qo'shiladi.

Barcha III turlanish otlar 3 tipga bo'linadi: undosh, unli, aralash tiplarga.

Undosh tipga o'zagi bitta undosh bilan tugagan va teng bo'g'inga ega bo'lma-gan otlar kiradi. Masalan: pulmo, onis, m – o'pka, caput, itis, n – bosh.

Unli tipga Nominativus Singularis da -e, -al, -ar qo'shimchalari bilan tugagan Neutrum roddagi otlar kiradi. Masalan: animal, alis, n – hayvon, rete, is, n – to'r, exemplar, aris, n – nusxa.

Aralash tipga unli va undosh tiplarga xos 2 xil otlar kiradi:

a) Nominativus Singularis.da -is yoki -es qo'shimchasini oluvchi teng bo'g'in-li otlar: Masalan: auris, is, f – quloq, fomes, is, f – ochlik.

b) Asosi 2 yoki 3 ta undosh bilan tugagan noteng bo'g'inga ega bo'lgan otlar kiradi. Masalan: cor, cordis, n – yurak, venter, tris, m – qorin, pars, partis, f – qism.

### 34 -§. III TURLANISH MASCULINUM RODDAGI OTLAR

Otlarning rodi bosh kelishik birlikdagi qo'shimchasi bilan aniqlanadi. Mas-culinum roddagi otlar Nominativus Singularis.da quyidagi qo'shimchalar bilan xarakterlanadi:

-o, -or, -os, -er, -es, -ex.

Ular Genetivusda quyidagi qo'shimchalarni olishini eslab qoling.

Nom	Gen	Misollar	Tarjima
-o	-inis	homo, hominis, m	odam
-o	-onis	pulmo, pulmonis, m	o'pka
-or	-oris	flexor, flexoris, m	bukuvchi
-os	-oris	flos, floris, m	gul
-er	-eris	trochanter, trochanteris, m	ko'st
-er	-ris	venter, ventris, m	qorin



-es	-etis	paries, parietis, m	devor
-es	-edis	pes, pedis, m	oyoq (tovon)
-ex	-icis	apex, apicis, m	cho'qqi

**2 so'z istisno tarzda Femininum rodiga mansubdir:**

gaster, gastris, f – oshqozon  
 mater, matris, f – miya pardasi  
 pia mater – yumshoq miya pardasi  
 dura mater – qattiq miya pardasi.

**Quyidagi so'zlar istisno tarzda Neutrum rodiga kiradi:**

cor, cordis, n	yurak	os, ossis, n	suyak
os, oris, n	og'iz	piper, piperis, n	murch
tuber, tubercis, n	do'mboq		

**Turlanish namunasi**

Casus	Sing.	Plur.
Nom	liquor	liquor-es
Gen	liquor-is	liquor-um
Dat	liquor-i	liquor-ibus
Acc	liquor-em	liquor-es
Abl	liquor-e	liquor-ibus

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. Quyidagi otlarning negizini toping, tarjima qiling.**

flos, floris, m; pes, pedis, m; iecur, oris, n; sanguis, inis, m; venter, ventris, m; cortex, icis, m; os, ossis, n; cartilago, inis, f; dens, dentis, m; cor, cordis, n; foramen, inis, n.

**2. Quyidagi otarning qaratqich kelishigini hosil qiling va asosini aniqlang, tarjima qiling.**

extensor, pollex, stapes, sapo, carbo, depressor, hallex, levator, sphincter, abductor, adductor, margo, vertex, index, tendo, masseter, mas, rubor, calor, dolor, herpes.

**3. Otlar bilan sifatlarni moslashtiring va tarjima qiling.**

- |                  |                                    |
|------------------|------------------------------------|
| 1. homo san...   | 9. pulmo dext... et sinist...      |
| 2. cor san...    | 10. dur... et pi... mater          |
| 3. gaster san... | 11. paries membranace... extern... |
| 4. os palatin... | 12. pes sinist... et dext...       |

5. tuber ischiadic... 13. cortex sicc...  
 6. homo aegrot... 14. piper nigr...  
 7. cor aegrot... 15. flos alb...  
 8. gaster aegrot... 16. os temporal...  
 17. tumor malign... et benign...

**4. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Musculus depressor anguli oris. 2. Musculus levator scapulae. 3. Musculus depressor flexor pollicis. 4. Vagina fibrosa digiti pedis. 5. Musculi levatores costarum longi. 6. Incisura cardiaca pulmonis dextri. 7. Musculus extensor digitorum. 8. Vena lobi medii pulmonis dextri. 9. Vagina tendinis musculi extensoris. 10. Pollices longi. 11. Vagina tendinum musculi extensoris digitorum pedis. 12. Vena cordis parva.

**5. Tarjima qiling va moslashtiring, Nom.Sing. va Plur., Gen.Sing. va Plur. da turlang.**

1. Sog'lom odam. 2. Pardali devor. 3. O'ng o'pka. 4. O'ng oyoq panjasi. 5. Bukuvchi muskul. 6. Uzun suyak. 7. Katta og'iz. 8. Kasal oshqozon.

**6. Lotin tiliga tarjima qiling.**

1. Yurakning uchining kesmasi. 2. O'ng o'pkaning uchi. 3. Barmoqlarning bukuvchi muskuli. 4. Og'iz bo'shlig'ining shilliq pardasi. 5. Barmoqning chuqur bukuvchi muskuli. 6. Me'daning devori. 7. Qalqonsimon bezning ko'taruvchi muskuli. 8. O'ng o'pka. 9. Chap oyoq. 10. Uzun suyak. 11. Yurak va o'pkalarning kasalliklari.

**7. Lotin tiliga tarjima qiling.**

1. O'ng va chap oyoq. 2. O'ng va chap do'mboq. 3. Sog'lom oshqozon. 4. Kasal yurak. 5. Katta va kichik muskul. 6. Sog'lom odam. 7. Kasal o'pka. 8. Tanglay suyagi. 9. Qattiq miya pardasi. 10. Quymich do'mbog'i.

**Note bene!**

**Tarjimada "miya pardasi" sifati iborada birinchi bo'lib qo'yiladi:**

pia mater – yumshoq miya pardasi  
 dura mater – qattiq miya pardasi

**8. O'qing va tarjim qiling.**


*Maxilla os par est. Maxillae corpora et quattuor processibus constat. Corpus maxillae sinum maxillarem habet. Sinus maxillaris foramen pyramidis cum apice habet. In regione apicis parietis sinus maxillaris crassi sunt, parietes ceteri sinus tenues sunt. Sinus maxillaris foramen latum seu hiatum maxillarem habet.*

crassus, a, um	yo'g'on	tenuis, e	yupqa
quattuor	to'rt	ceteri	boshqa

MUSCULI

1. m. temporalis	chakka muskuli
2. m. orbicularis oculi	ko'zning aylana muskuli
3. m. zygomaticus major	yanoq katta muskuli
4. m. masseter	chaynov muskuli
5. m. depressor anguli oris	og'iz burchagining tushyruvchi muskuli
6. m. sternocleidomastoideus	to'sh-o'mrov-so'rg'chsimon muskuli
7. m. trapezius	trapetsiyasimon muskuli
8. m. deltoideus	deltasimon muskuli
9. m. pectoralis major	ko'krakning katta muskuli
10. mm. serrati anteriores	oldingi tishli mushaklar
11. m. biceps brachii	yelkaning ikki boshli muskuli
12. m. brachioradialis	yelka-bilak muskuli
13. m. flexor carpi	kaftni bukuvchi muskuli
14. m. extensor brevis	kalta yozuvch muskul
15. m. gastrocnemius	boldir muskuli
16. m. soleus	kambalasion muskul
17. m. tibialis anterior	katta boldir suyagining oldingi muskuli
18. m. vastus medialis	ichki serbar muskul
19. m. gracilis	nozik muskul
20. m. sartorius	mashinachilar muskuli
21. m. pectineus	taroqsimon muskul
22. m. obliquus externus abdominis	qorinning tashqi qiyshiq muskul
23. m. rectus abdominis	qorinning to'g'ri muskul
24. m. flexor carpi ulnaris	kaftni tirsak tomon bukuvchi muskul
25. m. extensor carpi ulnaris	panjani yozuvchi tirsak muskul
26. m. mentalis	iyak muskuli
27. venter frontalis	peshona qorinchasi







35 -§. LEKSIK MINIMUM

Quyidagi mushaklarni va ularning funksiyalarini esda saqlang:

m. abductor (oris, m)	-uzoqlashtiruvchi muskul
m. adductor (oris, m)	-yaqinlashtiruvchi muskul
m. depressor (oris, m)	-pastga tushuvchi muskul
m. extensor (oris, m)	-yozuvchi muskul
m. flexor (oris, m)	-bukuvchi muskul
m. levator (oris, m)	-ko'taruvchi muskul
m. masseter (eris, m)	-chaynov muskuli
m. rotator (oris, m)	-aylantiruvchi muskul
m. sphincter (oris, m)	-qisuvchi muskul
m. constrictor (oris, m)	-qisuvchi muskul

**Nota bene!**

**Amor tussique non celatur** – Sevgi va yo'talni yashirib bo'lmaydi.  
**Si vera narretis, non opus sit testibus** – Agar haqiqatni gapirsangiz, guvo-  
 hga hojat yo'q.

12-DARS

36 -§. III TURLANISH FEMININUM RODDAGI OTLAR

Nominativus Singularis da Femininum roddagi otlar quyidagi qo'shimcha-  
 lar bilan xarakterlanadi: -as, -is, -es, -do, -go, -io, -s, -x

Ular Genetivusda quyidagi qo'shimchalarni olishini eslab qoling.

Nom.	Gen.	Misollar	Tarjima
-as	-atis	tuberositas, tuberositatis, f	g'adir-budir
-s	-tis	pars, partis, f	qism
-is	-idis	iris, iridis, f	oq yoy parda
-is	-is	auris, auris, f	quloq
-es	-is	fomes, fomis, f	ochlik
-x	-cis	radix, radices, f	ildiz
-x	-gis	phalanx, phalangis, f	barmoq suyagi
-do	-inis	longitudo, longitudinis, f	uzunlik

-go	-inis	cartilago, cartilaginis, f	tog'ay
-io	-onis	articulatio, articulationis, f	bo'g'im

**Istisno tarzida Masculinum rodiga taalluqli so'zlar:**

canalis, is, m – kanal  
 dens, dentis, m – tish  
 margo, marginis, m – qirg'oq, chet  
 pulvis, pulveris, m – kukun  
 sanguis, sanguinis, m – qon  
 tendo, tendinis, m – pay.

**Istisno tarzda Neutrum rodiga ikki ta so'z taalluqli:**

pancreas, pancreatis, n – me'daosti bezi  
 vas, vasis, n – tomir.

**Turlanish namunasi**

Casus	Sing.	Plur.
Nom	cartilago	cartilagin-es
Gen	cartilagin-is	cartilagin-um
Dat	cartilagin-i	cartilagin-ibis
Acc	cartilagin-em	cartilagin-es
Abl	cartilagin-e	cartilagin-ibus

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. Quyidagi otlarni qaratqich kelshikda turlang va asosini toping.**

extremitas, articulatio, cervix, larynx, mucilago, pix, injectio, pelvis, curatio, auscultatio, palpato, dilacatio, commotio, dosis, basis, narcosis, paralysis, pharynx, cavitas, meninx, frons, mens.

**2. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling.**

- |                            |                             |
|----------------------------|-----------------------------|
| 1. articulatio composit... | 9. sanguis venos...         |
| 2. auris medi...           | 10. canalis optic...        |
| 3. dens san..., aegrot...  | 11. margo zygomatic...      |
| 4. cartilago thyroide...   | 12. pancreas accessori...   |
| 5. radix long...           | 13. tuberositas deltoide... |
| 6. vas lymphatic...        | 14. dens incisiv...         |
| 7. tendo calcane...        | 15. regio olfactori...      |
<b>Encephalomalacia, ae, f</b>	ensefalomalatsiya (yunoncha encephalos – bosh miya, malacia – yumshash), miya to'qimalarining namli yemirilishi (o'lishi); birqancha zaharlanish, kalla suyagi-miya shikastlanishi, miya infarktida kuzatiladi.
<b>Endosteum</b>	ichki suyak ustki pardasi (yunoncha endo – ichki, osteum – suyak)
<b>Enterolithus, i, m</b>	enterolit (yunoncha enteron – ichak, lithos – tosh) quyuqlashgan oziq-ovqat qoldiqlari natijasida hosil bo'ladigan ichak tiqini
<b>Epidemia, ae, f</b>	epidemiya, ma'lum vaqt davomida ma'lum hududda qayd etilgan, tarqalishi sezilarli kengayuvchi, aniq yuqumli kasallikning keng tarqalishi
<b>Fibrōma, ātis, n</b>	fibroma – tolali o'sma (lotincha fibra – tola)
<b>Forāmen, īnis, n</b>	teshik (foro, are – teshmoq)

<b>Gastrectomia, ae, f</b>	gastrektomiya – bo'sh ichak va qizilo'ngach oraliq'iga anastomoz qo'yish bilan oshqozonni to'liq olib tashlash
<b>Gonarthrōsis, is, f</b>	gonartroz – tizza bo'g'imining kasalligi, artrozi
<b>Haemophthalmus, i, m</b>	gemoftalm, ko'z soqqasi bo'shlig'idan qon oqishi
<b>Hidrocystōma, āris, n</b>	gidrotsistoma – ter bezining o'smasi
<b>Histolýsis, is, f</b>	gistoliz – to'qima yoki bakterial kelib chiqqan, proteolitik fermentlarni eritish yo'li bilan to'qimalarning buzilishi
<b>Hypacusia, ae, f</b>	gipakuziya (yunoncha, hypo – kam, pasayish, acusia – eshitishning buzilishi) – spiral organ retseptor hujayralarining qo'zg'alishlarining pasayishini oldindan aniqlash
<b>Hyperhidrōsis, is, f</b>	gipergidroz – terning haddan ziyod ajralishi
<b>Hysterorrhaphia, ae, f</b>	gisterorafiya, bachadon yorilishi paytida uning devorlarini tikish jarrohlik operatsiyasi
<b>Ichthyōsis, is, f</b>	ixtiroz – butun teri qoplami yoki ko'p qismining shikastlanishi bilan xarakterlanadigan keratozning har xil ko'rinishi
<b>Ichthyotoxicōsis, is, f</b>	ixtiotoksikoz – zaharlangan baliq mahsulotlaridan tanovul qilish oqibatida kelib chiqadigan ovqatdan zaharlanish
<b>Illusiones, um, f, pl</b>	illyuziyalar (in – -da, -ga, ludere – aldamoq), aniq vaqtda haqiqatda mavjud voqea va narsalarning xato idrok qilinishi
<b>Imbibitio, onis, f</b>	imbibitsiya (in – -da, bibire – to'yintirmoq, shimdirmoq) to'qima suyuqligida eritilgan moddalar bilan to'qimalarni to'yintirish
<b>Immobilisatio, onis, f</b>	immobilizatsiya (in – yo'q, mobilis – harakarchan) orttirilgan ba'zi kasalliklarda tananing birqancha qismlari yoki bir qismining harakatini cheklash yohud to'liq harakatsiz holat



<b>Implantatio, onis, f</b>	ekish (in - -da, -ga, plantare - o'tqazmoq, ko'chirmoq) 1) organizm uchun begona materiallar (plastmassa, biologik nofaol metallar va shunga o'xshash) bilan to'qimalarni almashtirish maqsadida jarrohlik operatsiyasi; 2) (tog'aylar, suyaklar, anatomik tuzatish va shu kabilarni qayta o'rnatish uchun) ko'p turli plastik jarrohlik operatsiyalarining umumiy nomi
<b>Irregularis, e</b>	irregulyar, noregulyar (in - yo'q, regula - qoida, o'lchov), noto'kis, noto'g'ri, yangilish
<b>Laparotomia, ae, f</b>	laparotomiya - qorin bo'shlig'ini (qorin devori orqali) operatsiya usuluda kesish
<b>Leontiāsis, is, f</b>	leontiaz (yunoncha leontos - sher) odamning yuzi sherning tumshug'iga o'xshab qolishi bilan kuzatiladigan shakl o'zgarishiga uchragan yuz yumshoq to'qimalarining keskin gipertrofiyasi (oziqlanishning haddan oshib ketishi); ba'zi leykozlarda moxov kasalligida kuzatiladi
<b>Leucōsis, is, f</b>	leykoz (yunoncha leukos - oq, osis - ko'payish), qon ishlab chiqaruvchi hujayralarda rivojlanuvchi va suyak iligini zararlovchi o'smalarning umumiy nomi, oq qon saratoni
<b>Leukaemia, ae, f</b>	levkemiya (yunoncha leukos - oq, haema - qon) oq qon kasalligi, leucosis ga qarang
<b>Lipōma, ātis, n</b>	lipoma - yog'li o'sma (yunoncha lipos - yog')
<b>Lithotomia, ae, f</b>	litotomiya, toshni olib tashlash maqsadida suydik pufagida jarrohlik operatsiyasi o'tkazish
<b>Medicāmen, īnis, n</b>	dori (medico, are - davolamoq)
<b>Melanōma, ātis, n</b>	melanoma (yunoncha melas - qoramtir, qora, +oma - o'sma, shish), melanindan rivojlanuvchi xavfli o'sma (melaninum - melanin, odatda oqsillarning majmuasi ko'rinishida to'qima, teri, sochlarda bo'ladigan qora, to'q qo'ng'ir rangli pigmentlarning umumiy nomi)
<b>Menometrorrhagia, ae, f</b>	menometrorragiya - me'yoriy davom etadigan yoki shiddatli ko'tariladigan hayz ko'rish davrida bachadondan qon ketishi
<b>Menophobia, ae, f</b>	menofobiya - hayz ko'rishdan yoki uning (hayolda qolgan) yoqimsiz hissidan qo'rqish



<b>Mesarteriitis, itidis, f</b>	mezarterit (yunoncha mesos - o'rta, +itis -yallig'lanish, lotincha arteria -arteriya) arteriya o'rta qavatining yallig'lanishi
<b>Mesogastrium, i, n</b>	mezogastriy (yunoncha mesos - o'rta, gaster, tris, f - qorin) - 1) oshqozon bilan bog'langan homila churra-si qismlarining umumiy nomi; 2) qorinning o'rta qismi
<b>Metaphasis, is, f</b>	metafaza - urchuq bo'linish ekvatorial yassilikga qay-si xromasomalar joylashishi vaqtida ro'y beradigan hujayra klinik bo'linishining ikkinchi bosqichi; meta-faza yakunida xromosomalar bo'linishi boshlanadi
<b>Myodystrophia, ae, f</b>	miodistrofiya, muskul to'qimalarining oziqlanishi-ning buzilishiga doir o'zgarishlarning umumiy nomi
<b>Myomalacia, ae, f</b>	miomalatsiya, yemirilayotgan mushaklarning yum-shashi
<b>Neuroblastus, i, m</b>	neyroblast (yunoncha neuron - asab, blastos - homi-la), yetilgan neyronlarning o'zgarishi oqibatida miya-da shakllanadigan kam farqlanadigan asab tolalari
<b>Neurologia, ae, f</b>	nevrologiya, me'yoriy va kasal holatdagi asab tizimi tuzilishi va funksiyasini o'rganuvchi tibbiy-biologik fan
<b>Nosologia, ae, f</b>	nozologiya, kasalliklar va ularning tasniflarini o'rga-nuvchi fan
<b>Odontolithus, i, m = Calcūlus dentālis</b>	tish toshi
<b>Odontoscopia, ae, f</b>	odontoskopiya - antropologiyada qabul qilingan tish tizimi tuzilishi va o'ziga xoz rivojlanish tavsifi uslub-lari yig'indisi
<b>Odynophobia, ae, f</b>	odinofobiya - og'riqdan qo'rqish
<b>Onycholysis, is, f</b>	tirnoq egatidan tirnoq plastinkasini ajratib olish
<b>Oophoritis, idis, f</b>	ooforit (yunoncha oophoron - tuxumdon, -itis - yallig'lanish), tuxumdonning yallig'lanishi
<b>Ornithōsis, is, f</b>	ornitoz - qushlardan odamga nafas yo'llari orqali o'tadigan xlamidiyalar chaqiradigan o'tkir yuqumli kasallik

<b>Orthopaedia, ae, f</b>	ortopediya (yunoncha orthos - to'g'ri, paedia - ta'lim, o'rganish), tayanch harakat apparatlarining shakl buzilishlarini o'rganuvchi hamda diagnostika, davolash va profilaktika uslublarini rivojlantiruvchi klinik tibbiyotning bir qismi
<b>Otitis, idis, f</b>	otit (yunoncha us, ot-os - quloq) quloqning turli qismlari yallig'lanishi
<b>Otoplastica, ae, f</b>	otoplastika - quloq chanog'ini tiklash uchun jarrohlik operatsiyasi
<b>Panalgia, ae, f</b>	panalgiya (yunoncha pas, pantos - butun, algos - og'riq), butun tanada og'riqni his qilish
<b>Pharmacognosia, ae, f</b>	farmakognoziya (yunoncha pharmakon - dori, gno-sis - bilish) o'simlik va hayvonlardan olingan dorivor xom ashyolarni o'rganuvchi hamda ularni to'plash, saqlash, boyitish usullarini ishlab chiquvchi farmatsiyaning bo'limi
<b>Phleborrhexis, is, f</b>	fleboreksis - venani kesish
<b>Phobophobia, ae, f</b>	fobofobiya - kasallikdan hayoldan ketmas qo'rquvning paydo bo'lishi
<b>Pneumectomy, ae, f</b>	pnevmektomiya - o'pkani jarrohlik yo'li bilan to'liq olib tashlash
<b>Podalgia, ae, f</b>	podalgiya - jismoniy zo'riqishdan so'ng (asosan yassi tovonlikda) oyoqdagi og'riq
<b>Poliomyelitis, idis, f</b>	poliomielit (yunoncha polios - kulrang, myelos - orqa miya, +itis - yallig'lanish) bir nomli virus chaqirgan, asosan, orqa miyaning oldingi shoxlari, bosh va orqa miya shilliq pardasi, ba'zan, organlar limfa to'qimalari, markaviy nerv tizimi shikastlanishi bilan xarakterlanuvchi, ko'proq bolalarda kuzatiladigan o'tkir yuqumli kasallik
<b>Polyneuritis, idis, f</b>	polinevrit (yunoncha polys - ko'p, neuron - asab, +itis - yallig'lanish), qo'l-oyoq uchlarida sezishning, oziqlanishning buzilishi, vegetativ qon tomir to'rlarida namoyon bo'luvchi chetki nervlarning ko'plab yallig'lanishi

<b>Proctorrhagia, ae, f</b>	proktoragiya (yunoncha proktos – orqa teshik, rragos – yirtilish, oqish), to'g'ri ichakdan yiring va shilliq moddaning qon bilan oqishi
<b>Prophasis, is, f</b>	profaza – mitotik apparat shakllanishi hamda yadro va kariolemalar bo'linishi, xromosomalar buramalashishi vaqtida ro'y beradigan hujayra bo'linishining birinchi bosqichi
<b>Pseudoarthrōsis, is, f</b>	psevdoartroz, soxta bo'g'im (yunoncha pseudo – soxta, arthron – bo'g'im, +osis – kasallik), butunlikning turg'un buzilishi yoki potologik qo'zg'aluvchanlikning mavjudligi oqibatida suyaklarning ossifikatsiyasi (yemirilishi)
<b>Psychopathia, ae, f</b>	psixopatiya, psixik beqarorlik tufayli organizmda garmonlar almashinuvining buzilishi, tug'ma ruhiy holat
<b>Pyodermia, ae, f</b>	piodermiya (sinonim – piodermatoz, piodermis, pioderma) terining yiringli yallig'lanishi bilan xarakterlanadigan streptokokklar, stafilokokklar va boshqa qo'zg'atuvchilar chaqiradigan dermatoz (teri kasallik)larning umumiy nomi
<b>Rotatio, ōnis, f</b>	murojaat (lotincha roto, are – o'ranmoq, tugmoq)
<b>Sphygmographia, ae, f</b>	sfigmografiya – arteriya devorlariga tomir urishi zarbini qayd etish asosida gemodinamikaning tadqiqot usuli
<b>Symptōma, ātis, n</b>	simptom (yunoncha sympipto, are – mos kelmoq)
<b>Systema, ātis, n</b>	tizim, tizim (yunoncha synistemio, ire – bog'lamoq)
<b>Tenolysis, is, f</b>	payni chandiqlardan jarrohlik yo'li bilan xalos qilish
<b>Thanatophobia, ae, f</b>	tanatofobiya – o'limdan qo'rqish
<b>Thyroidectomy, ae, f</b>	tiroidektomiya (yunoncha thyreos – qalqon, -eidos – simon; anat:glandula thyroidea – qalqonsimon bez), qalqonsimon bezni olib tashlash uchun jarrohlik operatsiyasi
<b>Thyrotomia, ae, f</b>	tirotomiya (yunoncha thyreos – qalqon, -tomia – kesish), qalqonsimon bezni halqumdan o'rta uzunlikda kesish uchun jarrohlik operatsiyasi
<b>Topophobia, ae, f</b>	topofobiya, hayoldan ketmaydigan ma'lum joydan qo'rqish



<b>Toxicomania, ae, f</b>	toksikomaniya (yunoncha toxicon – zahar, -mania – jalb qilish), muayyan moddalarni muntazam ravishda ishlatish oqibatida, surunkali intoksikatsiya (zaharlanishning so‘rilishi) bilan rivojlanadigan kasalliklarning umumiy nomi
<b>Typhlectasia, ae, f</b>	tiflektaziya (yunoncha typhlon – ko‘r ichak, ektasis – kengayish), ko‘r ichakning devorlari yo‘g‘onlashmasdan kengayishi
<b>Typhlospasmus, i, m</b>	tiflospazma (yunoncha typhlos – ko‘r ichak, spasmus – spazm, sanchiq) ko‘richakning sanchib qolishi
<b>vaginītis, ĩdis, f colpītis, ĩdis, f</b>	vaginit (lotincha vagina, ae, f – qin, yunoncha kolpos – qin) qinning shilliq qavatining yallig‘lanishi
<b>Xanthopsia, ae, f</b>	ksantopsiya (yunoncha xantos – sariq, ophis – ko‘rish), amilnitrit, santonin, pikrin kislotasidan zaharlanish oqibatida va boshqa kasallik holatlari qatorida barcha narsalar sariq rangda ko‘rinadi, ko‘rish qobiliyatining buzilishi
<b>Xerophthalmia, ae, f</b>	kseroftalmiya, oftalmokseroz (yunoncha xeron – quruq, ophthalmos – ko‘z), ko‘z shoh pardasi va shilliq pardasi yuzasining qurib qolishi
<b>Xiphopăgus, i, m</b>	ksifopag – egizaklar, qilichsimon o‘simta hududida qo‘shilib kelganlar

### KO‘P SO‘ZLI KLINIK TERMINLAR

<b>Achylia gastrīca</b>	oshqozon axiliyasi – oshqozon shilliq qavati fermentlar va xlorid kislotani erkin tanlayolmaydigan kasallik holati
<b>Achylia pancreatīca</b>	oshqozonosti bezi axiliyasi – oshqozonosti bezi faoliyatining yetishmasligi sababli oshqozonosti bezi shirasida fermentlar yo‘qligi
<b>Dyspersia gastrogēna</b>	gastrogen dispersiya – oshqozonda oziq-ovqatlarining hazm bo‘lish jarayonining buzilishi bilan xarakterlanadigan dispersiya (hazm qilishning buzilishi)



<b>Dyspersia pancreatica</b>	pankreatik dispersiya – oshqozonosti bezi tashqi ajratish faoliyati yetishmasligi sababli yuzaga kelgan dispersiya (hazm qilishning buzilishi)
<b>Dyspersia putrida</b>	putridli (chirigan) dispersiya – ichakda chirish jarayonining rivojlanishida oqsillar hazm bo'lishining buzilishi bilan xarakterlanadigan ichak dispersiyasi (hazm qilishning buzilishi)
<b>Tachycardia neurogena</b>	nevrogen taxikardiya – 1) asab-his tuyg'uning jamlanishi ta'sir etishi ostida yuz beradigan taxikardiya (yurak ritmining tez urushi); 2) asab tizimi bir qancha shikastlari oqibatida kuzatiladigan taxikardiya (yurak ritmining tez urushi)
<b>Tachycardia paroxymalis ventricularis</b>	ventrikulyar paroksizmal (o'qtin-o'qtin qo'zib turuvchi) taxikardiya – miokard qorinchalarida patologik aylanish qo'zg'alish natijasida taxikardiya (yurak ritmining tez urushi)

### KO'P SO'ZLI TASHXIS NOMLARI

<b>Atherosclerosis universalis praecipue arteriarum coronarum cordis</b>	asosan yurakning vena arteriyasining umumiy aterosklerozi (yogsimon moddalar zichlashuvi)
<b>Morbus ischaemicus cordis</b>	yurakning ishemik kasalligi
<b>Infarctus myocardi recens</b>	yurak muskullarining yangi infarkti
<b>Cholecystitis perforativa calculosa acuta</b>	o'tkir toshli teshiluvchi xoletsistit (o't pufagining yallig'lanishi)
<b>Peritonitis fellea</b>	o'tli peritonit (qorin pardasining yallig'lanishi)
<b>Appendicitis gangrenosa perforativa, peritonitis diffusa</b>	teshiluvchi yiringli appenditsit (chulvalchangsimon o'simtaning yallig'lanishi), tarqaluvchan peritonit (qorin pardasining yallig'lanishi)
<b>Bronchitis purulenta obstructiva diffusa chronica, phasis exacerbationis</b>	surunkali tarqalivchi o'zgaruvchi yiringli bronxit (bronxning yallig'lanishi), kuchayish davri
<b>Insufficiencia respiratoria gradus I (primi)</b>	nafas olishning yetishmovchiligi I darajasi

<b>Bronchitis chronica et emphysema pulmōnum</b>	surunkali bronxit (bronxning yallig'lanishi) va o'pka emfizemasi
<b>Emphysema pulmōnum cum bronchitide chronica</b>	o'pka emfizemasi surunkali bronxit (bronxning yallig'lanishi) bilan
<b>Insufficiencia circulatoria sub forma asthmatis cardiālis</b>	yurak astmasi ko'rinishida qon aylanish yetishmovchiligi
<b>Arrhythmia cordis sub forma extrasistolārum ventricularium</b>	qorinchalarning haddan ziyod torayishi shaklida yurak arritmiyasi (ritmining yo'qolishi)
<b>Crisis hypertonica subsequente oedemate pulmōnum</b>	o'pkaning shishi bilan kechuvchi gipertonik (qon bosimi oshishiga oid) keskin o'zgarish
<b>Contusio universālis subsequentibus vulneribus contūsis multiplicibus trunci et membrōrum superiorum</b>	gavda va qo'llarning ko'p sonli kontuziyali jarohatlari oqibatidagi umumiy kontuziya (qattiq zarb, portlash natijasidagi jarohat)

### III BO'LIM DORISHUNOSLIK IBORALARI. RETSEPT.

#### 22-DARS

##### 1-§. DORIVOR VOSITALARNING NOMLANISHI

**Dorivor vositalarning nomeklaturasi** bu hozirgi davrda qo'llanilayotgan barcha dorivor vositalar nomining yig'indisidir.

**Dorivor vosita** (medicamentum, remedium) bu odam va hayvonlarning kasalliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida ishlatish uchun ruxsat etilgan farmakologik vositadir.

**Dorivor modda** (materia medica, substantia pharmaceutica) bu alohida kimyoviy birikmadan yoki biologik moddadan iborat bo'lgan dorivor vositadir.

**Dorivor o'simliklar xom ashyosi** – davolash maqsadida qo'llash uchun ruxsat etilgan o'simliklar xomashyosi.

Dorivor vosita yoki dorivor o'simlik mahsulotiga kerakli davolash ta'siriga erishish uchun berilgan qulay holat dori shakli (forma medicamentorum) deb aytiladi.

**Dori preparati** (praeparatum) – ma'lum dori shaklidagi dorivor vositadir.

**Murakkab dori vositasi** bu bir dori shaklida belgilangan dozalarda birdan ortiq ta'sir etuvchi moddalarga ega bo'lgan dorivor vositasidir.

**Dorivor vositalar nomenklaturasi (D.V.N.)** – hozirgi vaqtda ishlatishga ruxsat berilgan hamma dorivor vositalar nomining yig'indisidir. Dorivor vositalarning hozirgi zamon nomenklaturasi tabiiy paydo bo'lgan va qat'iy tuzilish qoidasiga ega emas. Har bir dorivor vosita ma'lum bir nomlanishga ega bo'ladi. Nomlar esa ixtiyoriy ravishda o'ylab chiqariladi.

Dorivor vositalar nomenklaturasiga vatanimizda ishlab chiqarilgan vositalar nomi bilan birga chet eldan keltirilgan vositalarning nomi ham kiradi.

Dorivor vositalar sifatida qo'llaniladigan organik kimyoviy moddalar ikkita nomga ega: ilmiy/tizimtik (tizimli)/ va trivial/shartli (odatdagi)/.

“Trivial” so'zi lotincha – “trivialis” odatdagi, oddiy so'zidan kelib chiqqan. Ilmiy nom dorivor moddalarning kimyoviy tarkibini ifodalaydi. Shifokorlar va farmatsevtlar ilmiy nomni bilishlari zarur. Lekin ilmiy nomlar uzun, o'qilishi qiyin bo'lganligi sababli ularni tibbiyotda ishlatish noqulaylik tug'diradi. Shuning uchun, ko'pincha, dorivor vositalarning ilmiy emas, balki trivial nomlari qo'llaniladi. Misol uchun:

Ilmiy nomlanishi	Trivial nomlanishi
1. Fenil 2, 3-dimetil, 4. Metilamina pirazon-5-N-metasulfanat natriy	Analgin
Trans-9, 13-dimet -71, 1, 5-trimetilsiklogeksin-5-6-nonatetrasin-7, 9, 11, 13	Retinol /A vitamini

Dorivor preparatlarning trivial nomlarini nomeklatura komissiyasi beradi. Bunday nomlar quyidagi talablarga to'g'ri kelishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: qisqalik, talaffuz osonligi, berilgan nomlarning boshqalardan fonetik farqlanishi bilan trivial nomlar to'g'ri belgilarni ifodalaydi: kimyoviy tarkibini, farmakologik guruhga mansubligini, davolash ta'sirini va hokazolarni.

Trivial nomlar quyidagi usullar bilan farqlanadi: bitta asosga ega bo'lgan hamda ikkita va undan ortiq asosga ega nomlar.

a) Bitta asosga ega bo'lgan nomlarni -in+um yoki -ol+um suffikslarini qo'shish bilan hosil qilish mumkin. Misol uchun:

Streptomycinum /asos/ Streptomyc, -in+um suffiks/

Mentholum /asos/ Mentha -/yalpiz/ -ol+um suffiks/

b) Perefeksli - suffiksli usulda asosga perefiks /old so'z yasovchi qo'shimcha/ va suffiks /orqa so'z yasovchi qo'shimcha/ qo'yiladi. Misol uchun:

Anti+febr+inum, Anti+strum+inum,

anti -(qarshi) -old qo'shimcha, -in+um suffiks

febris, is, f – isitma ko'tarilishi

struma, ae, f – bo'qoq

II. Ikkita va undan ortiq asosga ega bo'lgan nomlar quyidagi usullar bilan hosil bo'lishi mumkin.

a) Qo'shish: bu usulda asoslar interfiks /birlashtiruvchi unli/ yordamida yoki unlisiz birlashadi. Misol uchun:

Haematogenum – gematogen

Haemat+o+gen – paydo bo'lishi, rivojlanish

Apilacum – apilak

/apis – ari, lac – sut/

b) "Abreviatsiya" usulida (ya'ni qisqartirish so'zi lotincha "brevis" kalta so'zidan olingan). Bu usul bilan so'zlardan ajratib olingan ma'noli bo'laklarning qo'shilishidan qisqartirilgan murakkab so'zlar hosil bo'ladi. Bunday so'zlar abbreviatura deb ataladi. Misol uchun:

Analphenum – tugmachasimon dorining nomi

Analginum dan – anal qismi, va

Phenacetinum dan – phen olingan.

d) Abbreviatsion suffiksli usulda abbreviaturaga suffiks qo'shiladi:

Neriolonum / /Nerium oleander – Sambitgul/.



Dorivor vositalarning nomlanishida abbreviatura keng qo'llaniladi.

Dori nomlari hamisha bosh harf bilan yoziladi, lug'at shakli anatomik terminlar kabi bo'ladi. Misol uchun:

Novocainum, i, n – novokain;

Aspyrinum, i, n – aspirin;

Biceptolum, i, n – bitseptol;

Allacholum, i, n – allaxol.

## 2-§. DORI SHAKLLARI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

(Dori shakllari haqida to'liq ma'lumotni ilivalardan topasiz). Dori moddalarini chiqarish va yozish dori shakllarining mumkin qadar o'qishga qulayligidir. Dori shakllarining qattiq, suyuq, yumshoq, gazsimon bo'lishi uning tayyorlanishiga bog'liq. Masalan:

tabuletta, ae f – tabletka (tugmachasimon dori shakli)

pilula, ae, f – pilyula, hab dori (soqqachasimon qat-qat dori shakli)

pasta, ae, f – pasta (xamirsimon yumshoq dori shakli)

unguentum, i, n – surtma, maz (yumshoq dori shakli).

**Tabuletta, ae f** – tabletka. Ichish, sirdan ishlatish yoki inyeksiya qilish (tegisli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan, dorivor moddalarni presslab olingan, dozalangan qattiq dori turi.



**Tinctura, ae, f** – nastoyka, tindirma, spirtli eritma. Ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining qizdirilmagan va spirtli, spirt-suvli, spirt-efirli tiniq ajratmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turi.



**Capsula, ae, f** – kapsula (qoplamali dori). Ichish uchun mo'ljallangan ichiga dorivor vosita solingan g'ilof (jelatin, kraxmal yoki boshqa polimerlardan tayyorlangan)dan iborat bo'lgan dozalangan dori turi



**Pilula, ae, f** – habdori. Ichishga mo'ljallangan, tarkibida dorivor vosita va yordamchi moddalar bo'lgan bir xil plastik massadan tayyorlangan sharcha holdagi dozalangan qattiq dori turi.



**Pasta, ae, f** - pasta (xamirsimon modda). Tarkibida 20-25% dan ortiq kukun holdagi moddalar bo'lgan suyuq surtma



**Sirupus, i, m** - sharbat. Ichish uchun mo'ljallangan, qandning suvdagi konsentrlangan eritmasidagi dorivor moddalarning eritmasidan iborat suyuq dori turi.



**Infusum, i, n** - damlama va **decoctum, i, n** - qaynatma. Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan dorivor o'simlik mahsulotining suvli ajratmasi yoki shu maqsad uchun maxsus tayyorlangan konstantrant eritmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turlari.



Damlama va qaynatma bir-biridan tayyorlash usuli (olov ustida yoki suv hammomida qizdirish va keyinchalik damlash vaqti) bo'yicha farq qiladi.


Damlama – dorivor o'simlikning yumshoq qismidan tayyorlanadi. Qaynatma – dorivor o'simlikning dag'al qismidan tayyorlanadi.



**Extractum, i, n** – ekstrakt. Ichishga yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining konsentrlangan ajratmasidan iborat bo'lgan quyuq dori turi.




**Emulsum, i, n** – emulsiya. Ichish, sirtidan ishlatish yoki inyeksiya qilish uchun mo'ljallangan, o'zaro aralashmaydigan suyuqliklardan iborat despers tizimdan tashkil topgan suyuq dori turi.





**Unguentum, i, n** – quyuq surtma. Sirdan ishlatishga mo'ljallangan yopishqoq kondensatsiyali yumshoq dori turi.



**Linimentum, i, n** – suyuq surtma. Sirdan qo'llaniladigan, tana temperaturasida eriydigan quyuq suyuqlik yoki dirildoqsimon massadan iborat dori turi



**Aërosolum, i, n** – aerosol. Gaz yoki gazlar aralashmasidan iborat dispers muhitdan qattiq modda zarrachasi yoki suyuqlikdan iborat dispers fazadan tashkil topgan, maxsus qolip yordamida olinadigan dispers tizimli dori turi.



**Pulvis, eris, m** – kukun, poroshok. Ichish, sirdan ishlatish yoki inyeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan kukun holi-

dagi qattiq turi. Kukunlar yirik (pulveres grossi), mayda (pulveres subtiles) va juda mayda (pulveres subtilissimi) turga bo'linadi. Kukunlar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Bir dori moddasidan tashkil topgan kukun oddiy (pulvis simplex), ikki va undan ortiq dori moddasidan tashkil topgan kukun murakkab (pulvis compositus) deyiladi.



**Solutio, onis, f** – eritma. Inyeksiya qilish, ichish yoki sirtidan ishlatish uchun mo'ljallangan bitta yoki bir nechta dorivor moddalarni eritish yo'li bilan olingan bir xil tiniq suyuq dori turi.

Eritma suvli (solutio aquosa), spirtli (solutio spirituosa) yoki moyli (solutio oleosa) bo'lishi mumkin.



**Species, ei, f** – yig'ma. Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan damlamalar va qaynatmalar tayyorlash uchun qo'llaniladigan maydalangan yoki butun bir necha tur dorivor o'simlik mahsulotining va ba'zan dorivor vositalar qo'shilgan aralashmasi.





DORIVOR O'SIMLIKLARNING QISMINI BILDIRUVCHI SO'ZLAR




herba, ae, f – o't



folium, i, n – barg



flos, floris, m – gul



fructus, us, m – meva



radix, icis, f – ildiz



rhizoma, atis, n – ildizpoya



semen, inis, n – urug'



gemma, ae, f – kurtak

### Mustaqil ishlash uchun mashlar

#### 1. Dorivor moddalar va preparatlar nomini o'qing. Sizga tanish bo'lgan ma'no beruvchi qo'shimchalarni ajrating va tarjima qiling.

Valocardinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Bicillinum, Rifothyroinum, Mammophysinum, Oetronum, Erythromycinum, Valosedan, Polyoestradiolum, Pharyngosept, Adrimycinum, Mycoseptinum, Chinosedan, Kanamycinum, Methicillinum, Norsulfazolum, Sulfazinum, Pyocidum, Adrenalinum, Gonodotrofinum, Somatotrofinum, Novocainum, Haemodesum, Enterodesum, Pananginum, Quadevitum, Novurit, Urodanum, Rifamycinum, Synoestrolum, Gentamycinum, Synthomycinum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycesinum, Glycerinum, Glucosum, Asthmatinum, Anaesthesinum, Hydrocortisonum.

#### 2. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Folium Belladonnae, folia Helianthi, oleum Amygdalarum, oleum Anisi, tinctura Erysi, aërosolum "Cametonum", extractum Strychni, extractum Convalariae, granula Amydarini, suppositoria olei Cacao, decoctum foliorum Salviae.

#### 3. Lotin tiliga tarjima qiling.

Arpabodiyonning moyi, kanakunjitning moyi, ravochning sharbati, mavrakning barglarining damlamasi, gazako'tning ekstrakti, chayono'tning barglarining damlamasi, do'lananing nastoykasi, shaftolining moyining emulsiyasi, tet-



ratsiklinning mazi, daktinomitsinning eritmasi, follikulinning moyli eritmasi, yodning spirtli eritmasi, "Flakarbin" granulari, "Undevit" drajesi, streptotsidning suyuq surtmasi, marvaridgulgning o'ti.

**3-§. LEKSIK MINIMUM**

1. Aloë, Aloës, f	sabur, aloy	2. Althaea, ae, f	gulhayri
3. Belladonna, ae, f	belladonna	4. Chamomilla, ae, f	moychechak
5. charta, ae, f	qog'oz	6. Convallaria, ae, f	marvaridgul
7. gutta, ae, f	tomchi	8. Mentha, ae, f	yalpiz
9. tinctura, ae, f	spirtli eritma	10. Valeriana ae, f	valeriyana
11. spirituosus, a, um	spirtli	12. destillatus, a, um	tozalangan
13. fluidus, a, um	suyuq	14. oleosus, a, um	moyli
14. comphoratus, a, um	kamforaga oid		

**O'qing va sizga tanish bo'lgan so'zlarni lotincha yozilishini esda saqlang.**

1. aërusolum, i, n	aerazol	2. capsula, ae, f	kapsula, qobiq
3. massa, ae, f	miqdor	4. mixtura, ae, f	aralashma
5. pasta, ae, f	xamirsimon modda (pasta)	6. pilula, ae, f	hab dori (pilyula)
7. tabuletta, ae, f	tugmachasimon modda (tabletka)	8. dragee	qattiq dori shakli (draje, fr)
9. extractum, i, n	ekstrakt, so'rim (ekstrakt /o'simliklardan suv va suv-spirt yordamida tayyorlangan kontsentrangan dori turi)	10. ampulla, ae, f	ampulla, ichiga dori quyib og'zi payvandlangan naycha
11. linimentum, i, n	suyuq surtma (liniment)	12. suppositorium, i, n	shamcha

**Nota bene!**

**Optimum medicamentum quies est** – Tinchlik eng yaxshi davodir.  
**Medica mente, non medicamentis** – Dori bilan emas, aql bilan davola.

Mustaqil o'qish uchun matnlar

**DE MODIS INTRODUCTIONIS MEDICAMENTORUM**

*Medicamenta saepissime «per os» sumuntur, rarius aliis modis introducuntur. Solutiones speciales adhibentur pro injectionibus subcutaneis, vel intra venas, intra arterias introducuntur etc. Suppositoria in rectum, globuli in vaginam inducuntur. Unguenta saepe «pro frictione» signantur. Sunt medicamenta «pro inhalatione». Sunt etiam medicamenta, quae sub linguam ponuntur.*

**DE DOSIBUS**

*Doses remediorum sunt: dosis minima, dosis media - dosis medicinalis seu dosis therapeutica, dosis maxima, dosis toxica, dosis letalis. Pharmacopoea doses maximas remediorum venenorum et remediorum heroicorum probe notat «pro dosi» et «pro die». Doses toxicae morbos molestos et interdum mortem provocant. Jam decigrammata duo (0,2) Morphini dosis letalis est. Medicus et pharmaceuta doses medicamentorum bene scire debent.*

**23-DARS**

**4-§. I. DORI NOMLARI YASALISHIDA KO'P QO'LLANUVCHI MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QISMLAR VA ULARNING MA'NOLARI**

Ma'no beruvchi qism	Ta'rif -tavsif ma'nosi	Misollar
aeth-	etil	Aethasolum, Aethacridinum
benz-	benzol guruni	Benzonaphtholum, Benzylpenicillinum
glyc-, gluc-	shirin	Glucosum, Glucolon, Glycerinum
hydr-	suv, vodorod	Hydrocortisonum, Hydroperitum
-iod-	yod	Diodthyrazinum
mers-	simob	Mercoral, Mercurphyllinum
meth-	metil guruhi	Methylsulfazinum
naphtha-	qora moy /neft/	Naphthalanum, Naphthizonum
oxy-	nordon, kislorod	Oxytetracyclinum, Oxacillinum
phen-	fenil guruhi	Phenalginum, Phenobarbitalum
sulfa-, thio-	oltingugurt, sulfat atomi kiradigan birikma	Norsulfasolum, Sulfapyridazinum, Thiopentalum-natrium, Thiaminum
-zid-, -zin-, -zol-, -zon-	azot guruhi	Aminazinum, Norsulfazolum

Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. O'qing va ma'lum chastotali bo'laklarni ajrating.

Hexamethylentetraminum, Phenophthalinum, Coffeinum – natrii benzoas, Methylii salicylas, Aethylmorphini hydrochloridum, Methylsulfazinum, Benzo-naphtholum, Glycophagum, Glyciranum, Mercloran, Mercaphamidum, Mercazolium, Benzacillinum, Benzoestrolum.

2. Lotincha yozing:

Sulfadimezin, etilmorfin, etilmizol, benzobail, benzamil, glyutamizol, gliko-ran, gidroksidramin, gidrargirum, merkupurin, merkusal, metilprednizalon, tiodirin, metiluratsil, naftanman, oksfedrin, oksolin, fentanil, fenilbutazol, sul-fatiazol, sulfazin, tribuson, trimidazol.

5-§. II. DAVOLASHDA FOYDA BERADIGAN PREPARAT /DORI NOMLARI/ NING MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALARI

Bo'laklar ma'nosi	Davolashda foyda beradigan preparat ma'nosi	Misollar
1. aller- (gr), -anth-, -phyll-	allergiyaga qarshi	Allergolum, Strophanthinum, Platyphyllinum
2. -vas-, -angi-	tomirning kengayishi	Divascolum, Angitolum
3. -somm-, -barb-, -dorm-	uxlatuvchi	Barbamylum, Corbamalum, Somnafinum, Dormital
4. -bil-, -chol- (col)	o'tga taalluqli	Bilergenum, Cholaminum, Etacolum, Cholevinum
5. -cor-, card	yurakka oid	Vasocor, Cardiovalinum
6. -dol-, -alg-, -aesthes-	og'riq bosuvchi	Anaesthesinum, Promedolum, Analginum
7. -flog-, -phlog-	yallig'lanishga qarshi	Floginal, Phlogex
8. -haemat-, -aemia	qonga oid	Haematogenum
9. lax-	surgi	Acetolax, Laxasept
10. -press-, -tens-	gipertoniya, qon bosimini tushiruvchi	Depressan, Protensinum
11. -pyr-	isitma pasaytiruvchi	Amidopyrinum
12. -sed-	tinchlantiruvchi	Sedeval

13. -stress-, -tranqu-	tinchlantiradigan	Anastress, Tranquil
14. -ur-	siydik haydovchi	Diurometan, Saurinum
15. -verm-, -helm (int)-	gijjaga qarshi	Univerm, Helmintinum
16. -vom (it)-	qusishga qarshi	Vomital, Emitiral
17. -test-, vir-	erkak jinsiy organlaridan tayyorlangan	Agovirinum, Testosteronum
18. -myco-	zamburug'larga qarshi	Mycoseptinum
19. -sept-	zararsizlantiruvchi	Enteroseptolum
20. -thyr-	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi	Thyrotrophinum

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. O'qing va ma'lum chastotali bo'lak (ma'noli so'z yasovchi)larini ajrating.

Promedolum, Flogodinum, Amydopyrinum, Tenormal, Anacardiolum, Sedrolum, Prodorm, Cardiotoxinum, Pertranquil, Vasodilan, Tranquisan, Novalgium, Allergysinum, Sedanylum, Morphocyclinum, Butafloginum, Cyclodorm, Nepressolum, Anaestress, Allercur, Isotensinum, Dipidolor.

#### 2. Lotincha yozing.

Anestezin, barbamil, piranal, amidopirin, teofillin, platifillin, strofantin, angiotrofin, divaskol, stenkord, barbital, algolizin, depredol, dolatin, xolevid, morfotsiklin, lanokordal, apressin, tensial, tensatrin, tetrakor, algokalmin, dipiron.

### 6-§. III. DORI NOMLARINI YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QISMLAR

Bo'laklar	Ta'rif-tavsif /ma'noli qism/	Misollar
1. -andr-, -stan-, -ster-, -test-, -vir-	androgenlar, erkak jinsiy gormonlarining preparatlari	Androtinum, Testobolinum, Testaform, Sterandril, Oraviron, Proviron- Depot
2. -apis-	ari zahari	Apisarthronum
3. -cain-	mahalliy og'riqni qoldiruvchi, yo'qotuvchi	Novocainum



4. -cid (lot. occidere -o'ldirmoq)	mikrobg qarshi	Streptocidum
5. -cillin-	antibiotik penicillinlar	Penicillinum
6. -cyclin-,	tetratsiklin hosilalari	Tetracyclinum
7. -mycin-	mikrobg qarshi	Erythromycinum
8. -cort-	buyrak usti bezi po'stlog'i garmonlari	Corticomycesinum
9. -oestr-	ayollar jinsiy gormonlarining preparatlari	Oestradiolum
10. -vipер-	ilon zaharidan tayyorlanadi	Viprosalum
11. -vit-	vitaminlar	Undevit

Chastotali bo'laklar dorivor preparat nomida ko'p qo'llaniladigan so'z bo'laklari. Har bir chastotali bo'lak o'zining alohida ma'nosiga ega hamda preparatlar to'g'risida u yoki bu ma'lumotni beradi.

Chastotali bo'laklarni va ularning ahamiyatini bilish juda ko'p miqdordagi dori nomlarini tushinib olishga hamda dorivor preparatlarning nomini to'g'ri, xatosiz yozishga yordam beradi.

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. O'qing va ma'lum ma'noli so'z yashovchi qo'shimchalarni ajrating:

Biltrastum, Synoestrolum, Methycillinum-natrium, Oxytetracyclinum, Testosteronum, Triiostrostum, Primotest, Androlum, Adicillinum, Oestroben, Stanolon, Pantocidum, Trichomonacidum, Apilacum, Biomycinum.

#### 2. Lotincha yozuvda ifoda eting /yozing/

Androtardil, aplakol, kortikotrofin, estrogenin, testoviron, vipratoks, ampi-tsillin trigidrat, atsignost, adenovit, biligrafin, sestotsid, daunomitsin, dekortin, diksesterol, eritromitsin, fosfat, furatsillin, marevid, mastered, metitsillin-natriy, novokain, nilatsid, estramen, pantokain.

#### 3. Quyidagi o'simliklar nomidan alkaloidlar (asosiy o'simliklarda uchraydigan azotli organik moddalar gruppasi)ni hosil qiling:

Lobeli/ia/ -lobeliya

Papaver -ko'knori

Strychn/os/ -kuchala daraxti

Theobrom/a/ -shokaladli daraxt

Ephedr/a/ -xitoycha guttapercha daraxti

Sphaerophys/a/ -sferofiza

Veatr/um/ -maralquloq /bot/

**4. Ma'nosiga qarab alkaloidlar (glyukozidlar) va o'simliklar guruhiga ajratilgan:**

Coffea, ae, f; Hyoscyamus, i, m; Ruta, ae, f; Atropinum, i, n; Papaverinum, i, n; Salsola, ae, f; Ephedrinum, i, n; Strychninum, i, n; Papaver, eris, n; Lobelia, ae, f; Rutinum, i, n; Ephedra, ae, f; Coffeinum, i, n; Hyoscyaminum, i, n; Lobelinum, i, n; Strychros, i, m; Atropa, ae, f; Salsolinum, i, n.

**5. O'zbekcha yoki ruscha yozing:**

Acedinum, Phosphacolum, Polyglykinum, Quateronum, Norsulfazolum, Analginum, Mentholum, Phthivazidum, Naphthizinum, Aethazolum, Penicillinum, Erythromycinum

**7-§. DORI NOMLARINING DORI SHAKLLARI BILAN QO'LLANILISHI**

1. Agar dori (preparat) nomi dori shakli bilan kelsa, birinchi dori shakli bosh kelishik birlikda, so'ngra dori nomi qaratqich kelishigi birlikda bosh harf bilan yoziladi.

Streptotsid mazi -Unguentum Streptocidi

Novokain eritmasi -Solutio Novocaini

Vazelin moyi -Oleum Vazelini

2. Kombinatsiyalangan (murakkab) dori nomlari qo'shtirnoqqa olinib, bosh kelishik birlikda ifodalanadi:

"Urosal" tabletkasi -Tabulettae "Urosalum".

"Kalendula" mazi -Unguentum "Calendula".

3. Agar dori shaklini aniqlovchisi (moyli, spirtli, ...) bo'lsa dori nomidan so'ng kelib, dori shakli bilan moslashgan aniqlovchi hosil qiladi:

Sinestrolning moyli eritmasi -Solutio Synoestrolis oleosa.

Tetratsiklinning qobiqqa o'ralgan tabletkalari -Tabulettae Tetracyclini obductae.

4. Agar dorivor o'simliklarning qismini bildiruvchi (barg, gul, ildiz, ...) aniqlovchi kelsa, dorivor o'simlik nomidan oldin qaratqich kelishigi birlik yoki ko'plikda tarjima qilinadi:

Valeriana ildizining damlasi -infusum radices Valerianae

Chayono'tning barglari -foliorum Utricae.

**Mustaqil o'qish uchun matnlar**

**DE PULVERIBUS**

*Pulvis est forma medicamentorum dura. Nomina pulverum varia sunt. Sunt pulveres grossi, grossissimi, subtiles, subtilissimi; sunt pulveres simplices et compositi; sunt pulveres divisi et indivisi; sunt pulveres ad usum internum et pulveres ad usum externum. Pulveres indivisi plerumque sunt pulveres ad usum externum, qui asper-*

*siones nominantur. Pulveres divisi pro usu interno adhibentur.*

### **DE UNGUENTIS**

*Unguentum est forma medicata ad usum externum, quae consistentiam adipis suilli habet. Pro basi unguentorum Lanolinum, Vaselinum, adipēs animalium, olea vegetabilia, cera, Paraffinum, Ichthyolum, Naphthalanum etc. adhibentur.*

*Remedia ingredientia sunt liquores et pulveres varii.*

*Ad praeparationem unguentorum tales liquores sunt: Terebinthina, pix liquida, solutio Plumbi subacetatis, liquor Aluminium subacetatis etc. Ex pulveribus tales pulveres adhibentur: Camphora pulverata, amyllum Solani, Sulfur depuratum, Hydrargyrum praecipitatum album, Talcum, Bismuthi subnitras etc.*

*Unguenta in ollis bene clausis in loco frigido et obscuro servantur. Unguentum ophthalmicum semper ex tempore paratur. Unguenta ex officinis praecipue in ollis cum signatura flava dantur.*

## **24-DARS**

### **8-§. FE'L (VERBUM)**

To'rt turlanish. Noaniq shakl. Buyruq va shart mayllari.

Predmetning ish-harakatini ifodalovchi so'z turkumiga fe'l deb ataladi. Lotin tilida fe'l o'zbek tilidagidek shaxs, son va mayl bilan tuslanadi. Lotin tilida fe'llar to'rtta turda tuslanishga ega.

Birinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llar "-āre" qo'shimchasi bilan tugallanadi: dāre -bermoq.

Ikkinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llar "-ēre" qo'shimchasi bilan tugallanadi: miscēre -aralastirmoq.

Uchinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llar "-ēre" qo'shimchasi bilan tugaydi: solvēre -eritmoq.

To'rtinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llar "-ire" qo'shimchasi bilan tugaydi: audire -eritmoq.

Nota bene: II tuslanish -ēre -cho'ziq, III tuslanish -ēre -qisqa o'qiladi, farqi negizda ko'rinadi: miscere -misce, solvere -solv

### **FE'LNING LUG'AT SHAKLI**

Fe'llarning lug'at shakli quyidagi ketma-ketlikda yoziladi:

1. Fe'lning aniqlik mayli hozirgi zamon I shaxs birlik soni (praesens indicatīvi actīvi);
2. Fe'lning aniqlik mayli o'tgan zamon I shaxs birlik soni (perfectum indicatīvi actīvi);
3. Fe'lning shaxssiz shakli (supīnum);

4. Fe'ning hozirgi zamon noaniq shakli (infinitivus praesentis activi).

Tuslanish	Aniqlik mayli hozirgi zamon I shaxs birlik soni (praesens indicativi activi)	Aniqlik mayli o'tgan zamon I shaxs birlik soni (perfectum indicativi activi)	Fe'ning shaxssiz shakli (Supinum)	Fe'ning hozirgi zamon noaniq shakli (infinitivus praesentis activi)
I	curo davolayapman	curāvi davoladim	curātum davolash	curāre davolamoq
II	misceo aralashtirayapman	miscui aralashtirdim	mixtum aralashtirish	miscēre aralashtirmoq
III	solvo erityapman	solvi eritdim	solūtum eritish	solvēre eritmoq
IV	nutrio ovqatlantiryapman	nutrīvi ovqatlantirdim	nutrītum ovqatlantirish	nutrīre ovqatlantirmoq

Bu to'rt asosiy shakllar lug'atlarda quyidagicha qisqartirib yoziladi:

curo, āvi, ātum, āre – davolamoq

misceo, scui, xtum, ēre – aralashtirmoq

solvo, vi, solūtum, ěre – eritmoq

nutrio, vi, ĩtum, ĩre – ovqatlantirmoq

Hamonki, tibbiyot oily o'quv yurtlarida faqat fe'llarning hozirgi zamon (praesens)da tuslanishi o'qitilar ekan, studentlarga fe'llarni quyidagicha yozish va faqat uchta shaklni o'rganish tavsiya etiladi:

curo, ātum, āre – davolamoq

misceo, xtum, ēre – aralashtirmoq

solvo, solūtum, ěre – eritmoq

nutrio, ĩtum, ĩre – ovqatlantirmoq

Yana shu narsani ham qayd etib o'tish joizki, fe'llarning lug'atlarda yozilish shaklini soddalashtirish maqsadida, zamonaviy adabiyotlarda Siz, studentlar uchun bir qancha yangiliklar ham kiritilmoqda. Bu yangilik shundan iborat, ya'ni fe'l lug'atda 3 ta so'z bilan ifodalanmoqda:

1. Fe'ning aniqlik mayli hozirgi zamon I shaxs birlik soni (praesens indicativi activi)da yoziladi;

2. Fe'ning noaniq shaklining qo'shimchasi ko'rsatiladi;

3. Fe'ning qaysi tuslanishga tegishli ekanligi arab raqamida beriladi. Masalan:



1. addo, ere, 3 -qo'shmoq
2. audio, ire, 4 -eshitmoq
3. curo, are, 1 -davolamoq
4. do, are, 1 -bermoq
5. finio, ire, 4 -tugamoq
6. misceo, ere, 2 -aralashtirmoq
7. recipio, ere, 3 -olmoq
8. signo, are, 1 -belgilamoq
9. steriliso, are, 1 -qaynatib tozalamoq (sterilizatsiya qilmoq)
10. verto, ere, 3 -aylantirmoq, ag'darmoq
11. salveo, ere, 2 -sog'lom bo'lmoq, salom bermoq (salomlashuvda ishlatiladigan fe'l)
12. valeo, ere, 2 -sog'lom bo'lmoq (xayrlashuvda ishlatiladigan fe'l)

### FE'LNING NEGIZINI ANIQLASH

Agar fe'llarning noaniq shaklidan birinchi, ikkinchi va to'rtinchi turda "-re", uchinchi turda esa "-**ĕre**" qo'shimchasi olib tashlansa, fe'lning negizi hosil bo'ladi. Masalan:

I dāre	-bermoq	da	(asosi -a bilan tugaydi)
II miscĕre	-aralashtirmoq	misce	(asosi -e bilan tugaydi)
III solvēre	-eritmoq	solv	(asosi undosh harf bilan tugaydi)
III diluĕre	-suyultirmoq	dilu	(asosi -u bilan tugaydi)
IV audire	-eshitmoq	audi	(asosi -i bilan tugaydi)

### FE'LNING BUYRUQ MAYLI BIRLIK VA KO'PLIK SONI (*IMPERATĪVUS PRAESENTIS SINGULARIS ET PLURALIS*)

Buyruq mayli buyurish, so'rash, iltimos kabi ma'nolarni ifodalab, odatda, ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Buyruq mayli birlik sonini hosil qilish uchun fe'lning noaniq shaklidan barcha turlarda -re qo'shimchasini olib tashlash kerak. Masalan:

I dare	-bermoq	Da	-ber!
II miscere	-aralashtirmoq	Misce	-aralashtir!
III solvere	-eritmoq	Solve	-erit!
IV audire	-eshitmoq	Audi	-eshit!

III tuslanishdagi quyidagi to'rtta fe'lning buyruq mayli birlik soni negizi bilan bir xil bo'ladi:

facĕre-	qilmoq:	fac!	-qil
dicĕre-	gapirmoq	dic!	-gapir
ducĕre-	boshlab bormoq	duc!	-boshlab bor
fĕre-	olib bormoq	fer!	-olib bor

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilish uchun fe'lning negiziga I,II,IV tuslanishda "-te", faqat III tuslanish fe'l negiziga "-ite" qo'shimchasini qo'shish kerak, Masalan:

<i>Infinitivus</i>	<i>Negiz</i>	<i>Imperativus Pluralis</i>
curāre – davolamoq	curā-	curāte – davolang
docēre – o'qitmoq	docē-	docēte – o'qiting
solvēre – eritmoq	solv-	solvite – eriting
audīre – eshitmoq	audī-	audīte – eshiting

### FE'LNING BUYRUQ MAYLI INKOR SHAKLI (*IMPERATIVUS PRAESENTIS NEGATIVUS*)

Fe'lning buyruq mayli inkor shakli I shaxs birlik sonida nolo -tilamayman, II shaxs birlik sonida noli -tilamaysan, II shaxs ko'plik sonida nolite -tilamaysiz so'zlaridan so'ng asosiy fe'lning noaniq shakli yozilib hosil qilinadi:

nolo sanare –davolamay	-I shaxs birlik
noli sanare –davolama	-II shaxs birlik
nolite sanare –davolamang	-II shaxs ko'plik

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Fe'llarning tuslanishi va asosini aniqlang:

legēre -o'qimoq, sterilisare -qaynatib tozalamoq, recipēre -olmoq, diluēre -suyultirmoq, valere -sog' bo'lmoq, munire -himoya qilmoq, coquēre -qaynatmoq, laborare -ishlamoq, obducēre -parda bilan qoplamoq.

#### 2. Buyruq maylini hosil qiling:

conspergēre -sepmoq, signare -belgilamoq, studēre -o'qimoq, extrahēre -chiqarmoq, colare -suzmoq, solvēre -eritmoq, miscēre -aralash-tirmoq, addēre -qo'shmoq, finire -tugatmoq, vertēre -ag'darmoq.

#### 3. Lotin tilidagi qaysi fe'llar quyidagi so'zlar bilan talaffuz qilinishini

#### ajrating:

Sterilizatsiya, ekstrakt, filtr, finol, preparat, laboratoriya, auditoriya, leksiya, formatsiya, filtratsiya.

### 9-§. LEKSIK MINIMUM

I tuslanish			
agito, ātum, -are	chayqatmoq	ausculto, ātum, āre	eshitib ko'rmoq
consto, -, āre	iborat bo'lmoq	colo, ātum, are	suzmoq

curo, ātum, āre	davolamoq	do, dātum, āre	bermoq
exsicco, ātum are	quritmoq	formo, ātum, āre	shakl bermoq
macero, ātum, are	ivitmoq	palpo, ātum, āre	paypaslamoq
refrigero, ātum, are	sovitmoq	praepāro, ātum, āre	tayyorlamoq
sano, ātum, āre	sog'aytirmoq	servo, ātum, āre	saqlamoq
signo, ātum, āre	belgilamoq	steriliso, ātum, āre	qaynatib tozalamoq
<b>II tuslanish</b>			
adhibeo, ĩtum, ěre	qo'llamoq	debeo, debĭtum, ěre	qarzdor (majbur) bo'lmoq
doceo, doctum, ěre	o'rgatmoq	habeo, ĩtum, ěre	ega bo'lmoq
misceo, mixtum, ěre	aralashtirmoq	moveo, motum, ěre	harakatlantirmoq
noceo, cĭtum, ěre	zarar yetkazmoq	salveo, etum, ěre	sog' bo'lmoq
studeo, -, ěre	shug'ullanmoq	valeo, ĩtum, ěre	sog' bo'lmoq
video, visum, ěre	ko'rmoq		
<b>III tuslanish</b>			
addo, addutum, ěre	qo'shmoq	concido, etum, ěre	kesmoq
conspargo, etum, ěre	sepmoq	contundo, dtum, ěre	yanchmoq
coquo, etum, ěre	pishirmoq, qaynatmoq	defendo, fensum, ěre	himoya qilmoq
diagnosco, gnōtum, ěre	aniqlamoq	diluo, etum, ěre	suyultirmoq
disco, -, ěre	o'qimoq	divĭdo, vĭsum, ěre	bo'lmoq
extendo, etum, ěre	surtmoq	extraho, ctum, ěre	chiqarib olmoq
extrimo, mtum, ěre	siqmoq, suzgichdan o'tkazmoq	infundo, fūsum, ěre	quymoq
obduco, ctum, ěre	o'rab olmoq, qoplammoq	praescribo, ptum, ěre	yozib bermoq

recipo, ptum, ěre	olmoq	repěto, tĭtum, ěre	takrorlamoq
solvo, solĭtum, ěre	eritmoq	sumo, sumptum, ěre	ichmoq, qabul qilmoq
tego, tectum, ěre	qoplamoq	tero, etum, ěre	qirg'ichdan o'tkazmoq
verto, rtum, ěre	orqasiga aylanti- rib qaramoq	vivo, victum, ěre	yashamoq
IV tuslanish			
audio, ĭtum, ĭre	eshitmoq	scio, scitum, ĭre	bilmoq
dormio, ĭtum, ĭre	uxlamoq	sentio, sensum, ĭre	sezmoq
finio, ĭtum, ĭre	tugatmoq	venio, ventum, ĭre	kelmoq
nutrio, ĭtum, ĭre	ovqatlantirmoq		

### Fe'llarning ayrim lug'atlarda berilishi

1. addo, ere 3	qo'shmoq	2. audio, ire 4	eshitmoq
3. curo, are 1	davolamoq	4. do, are 1	bermoq
5. finio, ire 4	tugatmoq	6. misceo, ere 2	aralashtirmoq
7. recipio, ere 3	olmoq	8. signo, are 1	belgilamoq
9. steriliso, are 1	qaynatib tozalamoq (sterilizatsiya qilmoq)	10. verito, ere 3	aylantirmoq, ag'darmoq
11. salveo, ere 2	sog'lom bo'lmoq, salom bermoq (salomlashuvda ishlatiladigan fe'l)	12. valeo, ere 2	sog'lom bo'lmoq (xayrlashuvda ishlatiladigan fe'l)

## 25-DARS

### 10-§. FARMASEVTIK TERMINLARNI VA TARKIBIY QISMLARNI ISHLATILISHINI MUSTAHKAMLASH.

Farmasevtik terminshunoslik "farmatsiya" (yun. pharmakeia - dori tayyorlash va qo'llash) nomi ostiga birlashuvchi va dori-darmonlar tarkibini o'rganish, qidirib topish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi qator



maxsus fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuada markaziy o'rinni qo'llash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan dorivor moddalar va preparatlar ya'ni dori darmonlar nomenklaturasi egallaydi. Dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar 2 xil nomga ega:

ilmiy yoki tizimli nom; trivial (lot. trivialis - odatiy) nom.

### Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar

#### 1. Kimyoviy tarkib haqida ma'lumot beruvchi tarkibiy qismlar:

Tarkibiy qism	Ma'nosi	Misol
-acet(yl)-	atsetilsalitsil kislota mavjudligi	Acetosal
-aeth(yl)- (yun. aithēr - efir)	etil, etilen mavjudligi	Aethacardinum
-arsen-	margumush mavjudligi	Myarsenolum
-az(o)-, -(a)zid-, -(a)zin-, -zol- (yun. azotos - hayotsiz)	azot yoki azot guruhi mavjudligi	Azetidin
-benz- (gr. benzoa - xushbo'y shira)	benzol halqa mavjudligi	Benzohexonium
-bis-	vismut mavjudligi	Bisalum
-cyan-	sianid kislota yoki uning unumlari mavjudligi	Cyanocobalaminum
-fer(r)-	temir mavjudligi	Ferramidum
-form- (lot. formica - chumoli)	chumoli kislota unumlari mavjudligi	Formalinum
-glyc-	glukoza, shakar mavjudligi	Corglyconum
-io(d)-	yod mavjudligi	Iodolein
-merc- (lot. Mercurius - Merkuriy, savdo-sotiq homiysi)	simob vositalari mavjudligi	Mercuropin
-meth(yl)- (yun. methy - asal)	metil, metilen mavjudligi	Methacyclinum
-ox(y)- (yun. oxys - nordon)	kislrod mavjudligi	Oxytetracyclinum
-phen(yl)- (yun. phaino - yoritmoq)	fenil mavjudligi	Phenobarbitalum

-phosph- (yun. phosphoros - nur sochuvchi)	fosfor mavjudligi	Phosphemidum
-phthor- (yun. pht-horos - buzilish)	ftor mavjudligi	Phthorocort
-thi(o)- (yun. theion - oltingugurt)	oltingugurt mavjudligi	Thiodipinum
-yl- (yun. hyle - modda; daraxt)	kislota va uglevodorod radikal-lari mavjudligi	Methylandrostendiolum
-zep(am)-	benzodiazepin unumlari mavjudligi	Phenazepanum

## 2. Dori vositasining terapevtik yo'nalganligini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar

-alg-, -dol-	og'riq qoldiruvchi, analgetik	Promedolum
-aller(g)-	allergiyaga qarshi	Allergival
-atraz-	tinchlantiruvchi	Atraxinum
-barb-	uyqu chaqiruvchi	Barbamylum
-chol(e)-, -bil-	o't haydovchi	Cholenzimum
-cid- (lot. occidere - o'ldirmoq)	mikrobga, parazitga qarshi	Streptocidum
-cor-, -card-	yurakka oid, toj tomirlarini kengaytiruvchi	Corvalolum
-c(o)um-, -arol-	qon ivishiga to'sqinlik qiluvchi	Acenocumaro-lum
-haem(at)-, -aem-	qon yaralishini rag'batlantiruvchi	Haematogenum
-lax-	bo'shashtiruvchi, surgi	Acetolax
-myc(o)-, -fung-	zamburug'ga qarshi	Amycazolum
-orex-	ishtaha tushiruvchi	Anorex
-peps-	ovqat hazm bo'lishini tartibga soluvchi	Pepsinum
-pres(s)-, -ten-	qon bosimini tushiruvchi, gipotenзив	Apressinum
-phlog- (-flog-)	yallig'lanishga qarshi	Flogicort

-pyr-	harorat tushiruvchi	Antipyrinum
-sed-, -tranqu-, -val-	tinchlantiruvchi, sedativ	Sedonal
-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptik	Enteroseptolum
-trast-, -gnost-, -graf-	rentgen kontrast, tashxisga oid	Choletrast
-tromb-	tromblar agregatsiyasiga to'sqinlik qiluvchi	Trombolithinum
-ur-	siydik haydovchi	Diurometan
-vas-, -angi-	qon tomirini kengaytiruvchi, spazmni yo'qotuvchi	Vasodilatolum
-verm-, -helm(int)-	gijjaga qarshi	Univerm
-vom(it)-, -emet-	qayt qilishga qarshi	Emetisan

**3. Dori vositaning farmakologik guruhini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar:**

**a) og'riqsizlantiruvchilar:**

-aesthes-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik	Anaesthesinum
-cain-	mahalliy og'riqsizlantiruvchi	Novocainum
-morph- (yun. Morpheus - Morfey, tush ma'budi)	umumiy og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	Morphinum
-narc-	umumiy og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	Narcotan

**b) antibiotiklar, mikrobgga qarshilar:**

-ceph- (-cef-, -cep-)	sefalosporinlar guruhi antibiotiklari	Cephaloridinum
-cillin-	penitsillinlar guruhi antibiotiklari	Oxacillin
-cyclin-	tetrasiklin guruhi antibiotiklari	Tetracyclinum
-mycin-, -mycetin-	Streptomyces shtampi zamburug'laridan ishlab chiqariladigan antibiotiklar	Laevomycetinum

-sulfa-	mikrobga qarshi sulfanilamidlar	Norsulfazolum
---------	---------------------------------	---------------

**c) gormonal:**

-cort(ic)-	buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari	Hydrocortisonum
-gest-	sariq tana gormonlari	Progesteronum
-insul-	me'daosti bezi gormonlari	Insulincridesum
-oestr- (yun. oistros - ehtiros)	ayol jinsiy gormonlari vositalari	Dimoestrolum
-stan-, -ster-, -vir-, -andr-, -test-	erkak jinsiy gormonlari vositalari	Tetrasteronum
-parathy-	qalqon oldi bezi vositalari	Parathyreoidinum
-pitu(itr)-	gipofiz orqa bo'lagi vositalari	Pituitrinum
-thyr- (-tyr-, -tir-)	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar	Liothyroninum

**d) fermentli:**

-as-	fermentlar	Lydasum
------	------------	---------

**e) vitaminli:**

-vit-	vitaminlar	Hexavitum
-------	------------	-----------

**4. O'simlik yoki hayvon mahsulotlarini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar:**

-al(li)-	sarimsoq, piyoz	Allisatum
-anth-	gul	Strophanthinum
-api-, -virap-	asalari hayot faoliyati mahsulotlari	Apisatronum
-haemato-	hayvon qoni	Haematosenum
-ichthy- (yun. ichthyos - baliq)	qazilma baliq va boshqa dengiz hayvon qoldiqlari tutgan tog' jinslari	Ichthyolum



-papaver-	ko'knor boshchasi, guli, urug'i	Papaverinum
-phyll-	barg	Euphyllinum
-phyt-	o'simlik	Phytinum
-rhiz-	ildiz, ildizpoya	Glycyrrhizinum
-theo- (1. yun. theobroma - "ma'budlar taomi", kakao; 2. xit. thea - choy)	choy bargi	Theophyllum
-vipr-	ilon zahri	Vipraxinum

**11-§. LEKSIK MINIMUM**

**KENG TARQALGAN DORI SHAKLLARI**

aerosolum, i, n	aerazol	lotio, onis, f	losiyon
applicatio, onis, f	applikasiya (balchiq, parafin qo'yish muolajasi)	membranula ophthalmica seu lamella ophthalmica	ko'z plyonkalari
auristilla, ae, f	quloq tomchisi	linimentum, i, n	suyuq surtma
bacillus, i, m	tayoqchasimon dori shakli	mixtura, ae, f	aralashma
butyrum, i, n	yog'	naristilla, ae, f	burun tomchisi
capsula, ae, f	kapsula	oleum, i, n	moy
capsula, ae, f amyloacea seu oblata	kraxmalli yoki g'ilofli kapsula	capsula, ae, f gelatinosa	jelatinali kapsula
pasta, ae, f	pasta	potio, onis, f	ichimlik
charta, ae, f	qog'oz	pulvis, eris, m	kukun
caramelum, i, n	karamel	sapo, onis, m	sovun
cataplasma, atis, n	kataplazma (mahalliy isitish uchun xamirsimon yoki bo'tqasimon qorishma)	dragée (fr., tur-lanmaydi)	draje

collyrium, i, n	ko'z malhami	sirupus, i, m (medicinalis)	sirop, sharbat
conspersio, onis, f	sepki	solutio, onis, f	eritma
cremor, oris, m	krem	solvella, ae, f	eriydigan tabletka
decoctum, i, n	qaynatma	species, ei, f (pl. species, erum)	yig'ma
suppositorium, i, n	shamcha	serum, i, n	zardob
emplastrum, i, n	plastir, malham	suspensio, onis, f	suspenziya
emulsum, i, n	emulsiya	stylus, i, m seu stylum, i, n	qalam
extractum, i, n	ekstrakt	tabuleta, ae, f	tabletka
globulus, i, m	sharcha	tabuleta obducta	qobiqli tabletka
granulum, i, n	granula	tinctura, ae, f	tindirma
gutta, aef	tomchi	unguentum, i, n	malham
infusum, i, n	damlama	vaccinum, i, n	vaksina, emlik
limonatum, i, n	limonad		

### 12-§. LEKSIK MINIMUM

#### DORILARNING FARMOKOLOGIK TA'SIR NOMLARI - NOMEN PHARMACOEFFECTUUM REMEDIORUM

anaesthetica	-sezdirmaydigan (og'riqsizlantiradigan)	fungicida	-zamburugli teri kasalligiga qarshi
Analeptica	-jonlantiruvchi	diuretica	-siydik haydovchi
Analgetica	-og'riq qoldiradigan	haemostatica	-qon to'xtatuvchi
Anthelminthica	-gijjaga qarshi	heroica	-kuchli ta'sir etuvchi

Antiasthmatica	-nafas qisishiga qarshi	hypnotica	-uxlatuvchi
Antibiotica	-antibiotik	hypotensiva	-qon bosimini pasaytiruvchi
Antipyretica	-isitma pasaytiruvchi	laxativa	-surgi, ichni yumshatuvchi
Antiseptica	-yuqumsizlantiradigan	narcotica	-narkotik
Bactericida	-bakteritsid (bakteriyaga qarshi)	sedativa	-tinchlantiruvchi
Cardiaca	-yurakka tegishli	spasmolytica	-spazmolitik
Cholagoga	-o't (safro) haydovchi	sulfanilamidea	-mikrobg qarshi

### Mashqlar

**1. Dori vositalari nomidagi sizga ma'lum tarkibiy qismlarni belgilang, ma'nosini tushuntiring:**

Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Sarcocollinum, Bicillinum, Rifothyroinum, Amycazolium, Mammophysinum, Oestronum, Erythromycinum, Aëvitum, Valosedan, Diodthyrosinum, Polyestradiolum, Pharyngosept, Adriamycinum, Mycoseptinum, Chinocidum, Chlorophthalmum, Methicillinum, Kanamycinum, Cholosasum, Rifamycinum, Novurit, Sulfazinum, Pantocidum, Pyocidum, Streptodecasum, Norsulfazolium, Urodanum, Adrenalinum seu Epinephrinum, Gonadotropinum, Somatotropinum, Histidinum, Novocainum, Haemodesum, Enterodesum, Haemophobinum, Pananginum, Quadevitum, Synoestrolum, Gentamycinum, Synthomycinum, Phenobarbitalum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycesinum, Mycoseptirocortisonum.

**2. Dori vositalarining nomini lotin transkripsiyasida yozing:**

streptosid, heparin, fibrinogen, pankreatin, lidaza, apressin, gidrolizin, dikloksatsillin, dikain, korvalol, insulin, nitroglytsrein, rezorsin, raunatin, rezepin, validol, neodikumarin, papaverin, akrixin, pantotsid, angiotenzinamid, tetkardiovalen, oraza, rutin.

**3. O'zbek tiliga tarjima qiling:**

solutio Strophanthini, tabulattae Prednisoloni, granula Orasi, tabulattae Oc-

teoestrol, tabulattae Pantocrini, unguentum "Psoriasinum", species antiasthmaticae, solutio Camphorae oleosa, emplastrum Epilini, Streptocidum solubile, solutio Streptocidi solubilis, suspensio "Cindolum", suppositoria vaginalia "Osarbonum", tabulattae Mycoseptini obductae, species cholagogae, unguentum Tetracyclini ophthalmicum, linimentum "Sanitas", tabulattae "Cholenzymum", tabulattae "Praeogestrolum", flores Calendulae, solutio Glucosi, tabulattae "Panhexavitum", dragée "Aëvitum", species amarae, extractum placentae, tabulettae olei Menthae, folium Farfarae, radix Althaeae, solutio Dicaini, cortex Frangulae, emplastrum Plumbi compositum, tabulettae Barbamyli, extractum Leonuri fluidum, suppositoria "Anaesthesolum", tabulettae "Bellasthesinum", tabulettae Aloës obductae, infusum foliorum Digitalis, fructus Crataegi, chole conservata medicata.

#### 4. Lotin tiliga tarjima qiling:

Siroplar, ekstraktlar, eritmalar, moylar, damlamalar va qaynatmalar, shamchalar, murakkab kukunlar, urug'lar, gullar, ildizlar, oq ildizpoya, oq po'stloq, tomchilar, rutin tabletkalari, promeran tabletkalari, lutenurin surtmasi, vazelin moyi, monomitsin tabletkalari, mielosan tabletkalari, moychechak gullari, nitroglitserin tabletkalari, "Piramein" tabletkalari, dibiomitsin ko'z malhami, "Flakarbin" granulalari, arpabodiyon moyi, novokain eritmasi, "Undevit" dragesi, arpabodiyon mevalari, streptosid surtmasi, geparin malhami, arnika gullari, arnika gullari damlamasi, valeriana tindirmasi, arslonquyruq tindirmasi, eman po'stlog'i qaynatmasi, gazanda barglari, tetrasiklin mazi, daktinomitsin eritmasi, yod spirtli eritmasi, "Kamfomen" aerzoli, follikulin moyli eritmasi, eruvchan furagin, tinchlantiradigan yig'ma, amidopirin va butadion tabletkalari, valeriana ildizi damlamasi, valeriana ekstrakti qobiqli tabletkalari, marvaridgul maysasi.

#### Nota bene!

**Vita brevis, ars longa, tempus praeceps, experimentum periculosum, iudicium difficile** – Umr qisqa, san'at boqiy, vaziyat o'tkinchi, tajriba shubhali, mulohaza qiyin.

**Vivere naturae si convenienter amarent mortales, medica nil opus esset ope** – Agar odamlar tabiatga muvofiq yashashga moyil bo'lganlarida tibbiyot yordami kerak bo'lmas edi.

#### Mustaqil o'qish uchun matnlar

#### **DISPOSITIO REMEDIORUM IN RECEPTO COMPOSITO**

*In receptis compositis post verbum contractum «Rp.» locum primum remedium basis occupat. Post basim saepe remedium adjuvans scribitur. Deinde, si necesse est*



*remedium corrigens additur, quod saporem, odorem et colorem medicamenti corrigat. Remedia corrigentia sunt: saccharum, sirupi, oleum Menthae et alia.*

*Loco postremo remedium constituens stat, quod formam medicamenti constituit. Ex numero remediorum constituentium saepe in receptis videmus: aquam destillatam, spiritum Vini, adipem suillum (seu axungiam porcinam), Vaselinum, Lanolinum et butyrum Cacao.*

## 26-DARS

### 13-§. ANIQLIK VA MAJHULLIK NISBATI SHART MAYLI HOZIRGI ZAMON (CONJUNCTIVUS PRAESENS INDICATIVI ACTIVI ET PASSIVI)

**Conjunctivus** -o'zbek tilidagi shart mayli kabi tarjima qilinadi, lekin ko'proq vazifalarni bajaradi. U muayyan vaqt davomida sodir bo'lmagan va sodir etilmaydigan, lekin, ma'lum sharoitda bajarilishi shart bo'lgan harakatni ifodalaydi. Konyunktiv iltimos (xushmuomilalik bilan aytilgan buyruq), istak-xohish, taklif, shubha, qat'iyatsizlikni ifodalashda xizmat qiladi. Lotin tilida konyunktiv qo'shma gaplardagi bosh gap singari vazifani bajaradi.

Mustaqil gaplarda konyunktiv istak-xohishni (buyruq mayli bilan birgalikda), tilakni, iltimosni ifodalaydi. Masalan: **Misceatur** -aralastirilgan bo'lsin (Misce -aralastir bilan birgalikda); **Amemus patriam nostram!** - Vatanimizni sevamiz! **Sis felix!** - Baxtli bo'!

Konyunktiv lotin tilida ergashgan qo'shma gaplarda maqsadni, ut - bo'lguncha, ne - bo'lmaguncha ko'makchisi bilan natijani ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan:

**Misce, ut fiat unguentum** - Aralastir, maz hosil bo'lsin;

**Cave, ne cadas** - Ehtiyot bo'l, yiqilma.

Retseptura iboralarida ut ko'makchisi tushurib qoldiriladi, masalan:

**Misce, fiant pilulae** - Pilyula (hab dori)lar hosil bo'lguncha aralastir.

Konyunktiv aniqlik va majhullik nisbatlarida I tuslanishdagi fe'llar negizi yakunidagi -a, -e qo'shimchasiga almashish, shuningdek, II, III, IV tuslanishlardagi fe'llar negiziga -a qo'shimchasini qo'shish hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi.

### FE'LLARNING CONJUNCTIVUS PRAESENS INDICATIVI ACTIVI ET PASSIVI DA TUSLANISHI

Tuslanish		I	II	III	IV
	Shaxs	curā-re -da- volamoq	docē-re -o'qitmog	teg-ēre -qoplamoq	nutrī-re -oziq- lantirmog

Activum Singularis	I	cure- <u>m</u>	doce-a- <u>m</u>	teg-a- <u>m</u>	nutri-a- <u>m</u>
	II	cure- <u>s</u>	doce-a- <u>s</u>	teg-a- <u>s</u>	nutri-a- <u>s</u>
	III	cure- <u>t</u>	doce-a- <u>t</u>	teg-a- <u>t</u>	nutri-a- <u>t</u>
Activum Pluralis	I	curē- <u>mus</u>	doce-ā- <u>mus</u>	teg-ā- <u>mus</u>	nutri-ā- <u>mus</u>
	II	curē- <u>tis</u>	doce-ā- <u>tis</u>	teg-ā- <u>tis</u>	nutri-ā- <u>tis</u>
	III	cure- <u>nt</u>	doce-a- <u>nt</u>	teg-a- <u>nt</u>	nutri-a- <u>nt</u>
Passivum Singularis	I	cure- <u>r</u>	doce-a- <u>r</u>	teg-a- <u>r</u>	nutri-a- <u>r</u>
	II	curē- <u>ris</u>	doce-ā- <u>ris</u>	teg-ā- <u>ris</u>	nutri-ā- <u>ris</u>
	III	curē- <u>tur</u>	doce-ā- <u>tur</u>	teg-ā- <u>tur</u>	nutri-ā- <u>tur</u>
Passivum Pluralis	I	curē- <u>mur</u>	doce-ā- <u>mur</u>	teg-ā- <u>mur</u>	nutri-ā- <u>mur</u>
	II	cure- <u>mīni</u>	doce-a- <u>mīni</u>	teg-a- <u>mīni</u>	nutri-a- <u>mīni</u>
	III	cure- <u>ntur</u>	doce-a- <u>ntur</u>	teg-a- <u>ntur</u>	nutri-a- <u>ntur</u>

**Nota bene!**

**Conjunctivi passivi III shaxs birlik va ko'plik sonidagi fe'llar o'zbek tiliga tarjima qilinganda ikki xil usulda tarjima qilinishi bilan farqlanadi, Masalan:**  
**Misceātur** – aralashtirsin yoki aralashtirilgan bo'lsin.  
**Misceāntur** – aralashtirsinlar yoki aralashtirilgan bo'lsinlar.

**ESSE -bo'lmoq fe'li Praesens conjunctivi da quidagicha tuslanadi:**

ESSE	Singularis	Pluralis
I	sim	simus
II	sis	sitis
III	sit	sint

fio, fiēri, ire – qilmoq fe'li aniqlik nisbatida majhullik nisbati ma'nosida qo'llaniladi. Tibbiy adabiyotlar va retseptlarda III shaxs birlik va ko'plik shakllaridan foydalaniladi.

fio, fiēri, ire	Indicativus	Conjunctivus
Singularis, III	fit -qilayapti	fiat -qilinsin
Pluralis, III	fiunt -qilayaptilar	fiant -qilsinlar

**Retseptda qo'llaniladigan shart maylining na'munalari**

1. **Detur** – Berilsin. Berilgan bo'lsin.
2. **Misceatur** – Aralastirilsin. Aralastirilgan bo'lsin.
3. **Signetur** – Belgilansin. Belgilangan bo'lsin.
4. **Repetatur** – Takrorlansin. Takrorlangan bo'lsin.
5. **Sterilisetur** – Qaynatib tozalansin. Qaynatib tozalangan bo'lsin
6. **Dentur tales doses** – Shunday doza berilsin. Shunday doza berilgan bo'lsin.

**Retseptda fio, ere fe'li bilan qo'llaniladigan shakllar:**

- Misce, fiat pulvis** – Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiat unguentum** – Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiat linimentum** – Suyuq surtma hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiat pasta** – Pasta hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiat emulsum** – Emulsiya hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiat suppositorium** – Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiat suppositorium vaginale** – Qin uchun shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.  
**Misce, fiant pilulae** – Aralashtir, hab dorilar tayyorlansin.  
**Misce, fiant species** – Aralashtir, yig'malar hosil qilinsin.

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. Otni kerakli sonda ishlatib to'ldiring.**

a. misce, fiat ...

misce, fiant ...

/suppositoria, rectalia, pulvis, pasta, globuli, emulsum, species, linimentum, suspensio/

b. detur ...

dentur ...

/solutio, tabulettae, tales doses, unguentum, dragee/

c. sterilisetur ...

sterilisentur ...

/vitra, vitrum, solutiones, medicamentum/

**2. Tarjima qiling:**

1. Vazelin moyidan 5 ml qo'sh

2. 20,0 ml Kseroform surtmasidan ol

3. Marvaritgul nastoykasidan 10 ml va Valeriana nastoykasidan 15 ml aralashtirilsin

4. Qalampir yalpiz moyidan 3 ml qo'sh
5. 25,0 Sintomitsin suyuq surtmasidan ber.
6. Adrenalin eritmasidan 10 ml ber
7. Vazelin moyidan 20 ml qaynatib tozala
8. Dibazol va papaverindan berilgan bo'lsin
9. 6 miqdordagi shamcha berilgan bo'lsin
10. Evkalipt moyidan berilgan bo'lsin
11. Amidopirin eritmasidan berilgan bo'lsin
12. Valeriana ildizi damlamasidan ber
13. Novokain eritmasini qaynatib tozala
14. Surtma dori tayyorlangan bo'lsin
15. Ekstrakt berilsin
16. Qin uchun shamcha berilsin

#### 14-§. LEKSIK MINIMUM

Dorivor o'simliklarning nomi			
Eucalyptus, i, f	evkalipt	Mentha, ae, f	yalpiz
Salvia, ae, f	mavrak	Crataegus, i, f	do'lana
Frangula, ae, f	itjumrut	Rheum, i, n	ravoch
Urtica, ae, f	chayono't		
Dori nomlari			
Adrenalinum, i, n	adrenalin	Amidopyrinum, i, n	amidopirin
Dibazolum, i, n	dibazol	Ichthyolum, i, n	ixtiol
Norsulfazolum, i, n	norsulfazol	Novocainum, i, n	novokain
Synthomycinum, i, n	sintomitsin	Sulfadimezinum, i, n	sulfadimezin
Papaverinum, i, n	papaverin	Xeroformium, i, n	kseroform
Oleum (i, n) Ricini (us, i, m)	kanakunjut moyi	Solutio Ammonii (um, i, n) caustici (us, a, um)	novshadil (ammoniy gidroksid) spirti

#### Nota bene!

**Radices litterarum amarae sunt, fructus dulces** – Fanning ildizlari achchiq, mevalari esa shirindir.

**Summum bonum medicinae sanitas** – Salomatlik tibbiyotning oily maqsadidir.



15-§. LEKSIK MINIMUM

Predlog (ko'makchi)larning retseptura iboralarida qo'llanilishi

in lagena	shisha idishda	in ampullis	ampulalarda
ex tempore	keragida, kerak paytida, keragicha	in oblatiss	oblatkalarda (g'iolflarda)
in capsulis	kapsulalarda	in capsulis amy-laceis	ohorli (kraxmalli) kapsulalarda
in capsulis gelatinosis	yelimli (jelatinli) kapsulalarda	in charta paraffinata	parafinli qog'ozda
in spiritis	spirtida	in scatula	qutida
lege artis	tabiiy holatda	per os	og'iz orqali
pro dosi	bir marta qabul qilish uchun	in tabulettis obductis	qobiq bilan o'ralgan tabletkalarda
in tabulettis	tabletkalarda	pro infantibus	bolalar uchun
in vitro	shishachada	in vitro nigro	qora shishachada
in vivo	kerak, tirik organizmga	per inhalationem	ingalyatsiya orqali
per se	toza holda	pro me	men uchun
per rectum	to'g'ri ichak orqali	pro auctore	avtor (muallif) uchun (men uchun)
pro die	dorining sutkalik dozasi	pro iniectioibus	inyeksiya (ukol) uchun
pro narcosi	narkoz uchun	pro roentgeno	rentgen uchun
pro inhalatione	ingalyatsiya (dori-larni yuqori nafas yo'llariga gaz yoki bug' holatiga kiritish) uchun		

16-§. DORILARNING NOMLANISHI

Aethylmorphinum, i, n	etilmorfin	Barbamylum, i, n	barbamil
Benzylpenicillinum, i, n	benzilpenitsillin	Camphora, ae, f	kamfora

Chloroformium, i, n	xloroform	Codeinum, i, n	kodein
Coffeinum (i) – natrii benzoas (atis)	kofein –natriy benzoat	Ephedrinum, i, n	efedrin
Glucosum, i, n	glyukoza	Lincomycinum,i, n	linkomitsin
Methylii salicylas (atis)	metilsalitsilat	Morphinum, i, n	morfin
Oleandomycinum, i, n	oleandomitsin	Oleum Helianthi	kungaboqar moyi
Oleum Olivarum	zaytun moyi	Phenobarbita- lum,i,n	fenobarbital
Phenoxy-methylpe- ni-cillinum, i, n	Fenoksime- til-penitsillin	PhenylII salicylas (atis)	fenilsalitsi- lat
Strychninum, i, n	strixnin	Synoestrolum, i, n	sinestrol
Theophyllinum, i, n	teofillin	Thiaminum, i, n	tiamin
Vinylum, i, n	Vinilin		

**Mustaqil o'qish uchun matnlar.**

**OLEA PINGUIA**

*Olea pinguia e seminibus et fructibus pressura conficiuntur. Olea pinguia in aqua non solvuntur, male in spiritu solvuntur, in chloroformio et aethere bene solubilia sunt. Oleum Ricini in spiritu bene solubile est.*

*In Pharmacopoea Uzbekistanica olea pinguia sunt: oleum Amygdalarum, oleum Cacao (seu butyrum Cacao), oleum jecoris, oleum Persicorum, oleum Ricini. Ple- rumque olea pinguia ut constituentia ad praeparationem unguentorum, pastarum, linimentorum, suppositoriorum, globulorum vaginalium et solutionum praescribun- tur.*

*Oleum Amygdalarum et oleum Persicorum ad praeparationem solutionum in- jectabilium adhibentur. Non nulla olea pinguia exempli causa oleum Ricini, oleum Je- coris per se adhibentur.*

**27-DARS. RETSEPT**

**17-§. I. RETSEPT HAQIDA TUSHUNCHA**

Retsept, bu – shifokorning dori tayyorlash, tayyorlangan dorini qabul qilish usullari ko'rsatmasi va davolash uchun bemorga berish kerakligi to'g'risidagi dorixonaga xat orqali murojaat qilishi. "Retsept" so'zi (lot. Receptum, i, n) lotin tilidagi recipere – olmoq fe'lidan yasalgan.

Retsept aniq va tushunarli siyoh rangda yoki ruchkada barcha ko'rsatilgan qoidaga asosan yoziladi. Retsept varaqasini to'g'rilashga yo'l qo'yilmaydi.

## **II. RETSEPTNING TUZILISHI**

Har bir retsept 9 qismga bo'linadi:

1. Inscriptio – davolash muassasasining manzili va telefon raqami;
2. Datum – retsept yozilgan sana;
3. Nomen et aetas aegroti – bemorning ism-sharifi va yoshi;
4. Nomen medici – shifokorning ismi va sharifi;
5. Invocatio – recipere – olmoq fe'lining buyruq mayli birlik sonida tuslangan shakli, ya'ni, Recipe! – Ol! Degan yozuv bilan farmatsevtka murajaat boshlanadi;
6. Designatio materiarum – dorining nomi va miqdori;
7. Subscriptio – dorixonada dori tayyorlash va berish to'g'risida ko'rsatma;
8. Signatura – bemorga dori qabul qilish to'g'risida ko'rsatma.  
Har doim lotin tilidagi Signa – belgila /Signetur – belgilansin, belgilangan bo'lsin fe'li bilan boshlanib, undan so'ng bemor tushunadigan tilda bemorga dori qabul qilish usuli haqida ko'rsatma beriladi.
9. Nomen et singillum medici personale – shifokorning imzosi va shaxsiy muhri

## **RETSEPT VARAQASINING ORQA TOMONI**

### **Shifokorga eslatma**

- davolash-profilaktika muassasasining shartli belgisi bosmaxona usulida bosiladi yoki to'rtburchak muhr qo'yiladi;
- retsept lotin tilida tushunarli qilib, aniq harflar bilan siyohda yoki sharikli ruchkada yoziladi, retseptni tuzatish man etiladi;
- bir retsept varaqasida tarkibida zaharli yoki nasha moddasi bo'lgan bit-ta dori yoki ikkita oddiy va kuchli ta'sir etuvchi dori bo'lishi mumkin;
- faqat qabul qilingan qistqartma otlarning shartli belgisi yozilishi kerak;
- qattiq va sochiluvchan moddalar – grammlarda (0,1; 0,001; 1,0), suyuqliklar va yumshoq dori shakllari - millilitrlarda, tomizg'i dorilar – tomchilarda yozilishi kerak;
- dori qabul qilish usuli bemor tushunadigan tilda yozilishi kerak, "ichki", "ma'lum" kabi umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanish mumkin emas;
- retsept shifokorning imzosi, shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Dorini shaxsiy tayyorlash №	Dorixonanaing to'rtburchak muhri	
Qabul qilindi. Tayyorlandi	Tekshirildi	Berildi

**RETSEPT NAMUNASI**

<b>Inscriptio</b>	shtamp	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SO G'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI SAMARQAND SHAHAR 10-son OILAVIY POLIKLINIKASI</b>			
	shifr	<b>Samarqand sh. Kimyogarlari q. 29-daha 11-uy</b>			
	bolalar uchun		kattalar uchun		
	(keraksizi o'chirulsin)				
<b>Datum</b>		Retsept yozilgan sana	<b>14 aprel 2022 yil</b>		
<b>Nomen et aetas aegroti</b>		Bemorning ism-sharifi, yoshi	<b>Mamatov Muso Isayevich, 56 yosh</b>		
<b>Nomen medici</b>		Shifokorning ism-sharifi	<b>Xotamov B.M.</b>		
<b>Invocatio</b>	<b>Designatio materiarum</b>	<b>Basis:</b>	<b>Rp.:</b>	<b>Acidi hydrochloridi</b>	<b>4 ml</b>
		<b>Adjuvans:</b>		<b>Pepsini</b>	<b>20 ml</b>
		<b>Corrigens:</b>		<b>Sirupi Cerasi</b>	<b>50 ml</b>
		<b>Constituens:</b>		<b>Aquae destillatae</b>	<b>150 ml</b>
				<b>Misce. Da.</b>	
<b>Subscriptio</b>					
<b>Signatura</b>			<b>Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal ovqatdan so'ng</b>		
<b>Nomen et singillum medici personale</b>			<b>Xotamov B.M.</b> <i>(shifokor)</i>		

**18-§. III. RETSEPT YOZISH QOIDASI**

Retseptni yozishdan oldin quyidagi qoidalarni bilish kerak:

1. Bitta retsept varaqasida faqat bitta dorining nomi yoziladi va ayrim holatlarda ikki dori turini yozish mumkin.
2. Dorini tezlik bilan tayyorlash yoki berish kerak bo'lsa retsept varaqasi-



Retsept aniq va tushunarli siyoh rangda yoki ruchkada barcha ko'rsatilgan qoidaga asosan yoziladi. Retsept varaqasini to'g'rilashga yo'l qo'yilmaydi.

## **II. RETSEPTNING TUZILISHI**

Har bir retsept 9 qismga bo'linadi:

1. Inscriptio – davolash muassasasining manzili va telefon raqami;
  2. Datum – retsept yozilgan sana;
  3. Nomen et aetas aegroti – bemorning ism-sharifi va yoshi;
  4. Nomen medici – shifokorning ismi va sharifi;
  5. Invocatio – recipere – olmoq fe'lining buyruq mayli birlik sonida tuslangan shakli, ya'ni, Recipe! – Ol! Degan yozuv bilan farmatsevtka murajaat boshlanadi;
  6. Designatio materiarum – dorining nomi va miqdori;
  7. Subscriptio – dorixonada xodimiga dori tayyorlash va berish to'g'risida ko'rsatma;
  8. Signatura – bemorga dorini qabul qilish to'g'risida ko'rsatma.
- Har doim lotin tilidagi Signa – belgila /Signetur – belgilansin, belgilangan bo'lsin fe'li bilan boshlanib, undan so'ng bemor tushunadigan tilda bemorga dorini qabul qilish usuli haqida ko'rsatma beriladi.
9. Nomen et singillum medici personale – shifokorning imzosi va shaxsiy muhri

## **RETSEPT VARAQASINING ORQA TOMONI**

### **Shifokorga eslatma**

- davolash-profilaktika muassasasining shartli belgisi bosmaxona usulida bosiladi yoki to'rtburchak muhr qo'yiladi;
  - retsept lotin tilida tushunarli qilib, aniq harflar bilan siyohda yoki shartli ruchkada yoziladi, retseptni tuzatish man etiladi;
  - bir retsept varaqasida tarkibida zaharli yoki nasha moddasi bo'lgan bit-ta dori yoki ikkita oddiy va kuchli ta'sir etuvchi dori bo'lishi mumkin;
  - faqat qabul qilingan qisqartma otlarning shartli belgisi yozilishi kerak;
  - qattiq va sochiluvchan moddalar – grammlarda (0,1; 0,001; 1,0), suyuqliklar va yumshoq dori shakllari - millilitrlarda, tomizg'i dorilar – tomchilarda
- dorini qabul qilish usuli bemor tushunadigan tilda yozilishi kerak, "ichki", "ma'lum" kabi umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanish mumkin emas;
- retsept shifokorning imzosi, shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Dorini shaxsiy tayyorlash №	Dorixonanaing to'rtburchak muhri	
Qabul qilindi. Tayyorlandi	Tekshirildi	Berildi

**RETSEPT NAMUNASI**

<b>Inscriptio</b>	shtamp	<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SO G'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI SAMARQAND SHAHAR 10-son OILAVIY POLIKLINIKASI</b>			
	shifr	<b>Samarqand sh. Kimyogarlar q. 29-daha 11-uy</b>			
	bolalar uchun		kattalar uchun		
	(keraksizi o'chirulsin)				
<b>Datum</b>		Retsept yozilgan sana	<b>14 aprel 2022 yil</b>		
<b>Nomen et aetas aegroti</b>		Bemorning ism-sharifi, yoshi	<b>Mamatov Muso Isayevich, 56 yosh</b>		
<b>Nomen medīci</b>		Shifokorning ism-sharifi	<b>Xotamov B.M.</b>		
<b>Invocatio</b>	<b>Designatio materiārum</b>	<b>Basis:</b>	<b>Rp.:</b>	<b>Acidi hydrochlorīdi</b>	<b>4 ml</b>
		<b>Adiuvans:</b>		<b>Pepsini</b>	<b>20 ml</b>
		<b>Corrigens:</b>		<b>Sirūpi Cerāsi</b>	<b>50 ml</b>
		<b>Constituens:</b>		<b>Aquae destillatae</b>	<b>150 ml</b>
				<b>Misce. Da.</b>	
<b>Subscriptio</b>					
<b>Signatūra</b>			<b>Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal ovqatdan so'ng</b>		
<b>Nomen et singillum medici personale</b>			<b>Xotamov B.M.</b> <i>(shifokor)</i>		

**18-§. III. RETSEPT YOZISH QOIDASI**

Retseptni yozishdan oldin quyidagi qoidalarni bilish kerak:

1. Bitta retsept varaqasida faqat bitta dorining nomi yoziladi va ayrim holatlarda ikki dori turini yozish mumkin.
2. Dorini tezlik bilan tayyorlash yoki berish kerak bo'lsa retsept varaqasi-

Da in vitro fusco – qoramtir shishada ber.

Da in charta cerata – mumli qog'ozda ber.

12. Sakkizinchi qismi shartli qisqartirilgan S. harfi bilan boshlanadi (Signa – belgila, ya'ni bu Signare belgilamoq fe'lining buyruq maylining 3 shaxs birlik sonidir, yoki shart maylida Singnetur – belgilansin). Bu qism davlat tilida yoki bemor tushunadigan tilda yozilib, shifokor dori miqdori, vaqti, dorini qanday usulda qabul qilish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Signa: 15 tomchidan kuniga ikki marta ovqatdan yarim soat oldin.

Signa: 1 tabletkadan kuniga 3 mahal ovqatdan so'ng.

### **Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

#### **1. Retseptni o'qing va tarjima qiling**

1. Recipe: Tincturae Convallariae 15,0 ml

Da. Signa: 15 tomchidan kuniga 2-3 marta.

2. Recipe: Tabulettas Monomycini 0,05 numero 20

Da. Signa: 1 tabletkadan kuniga 3-4 marta ovqatdan 15 daqiqa oldin.

3. Recipe: Codeini 0,05

Sirupi Althaeae 10,0

Aquae destillatae 50,0 ml

Misce. Da.

Signa: sirtqi, tashqi qo'llash uchun.

4. Recipe: Sirupi Aloës cum Ferro 100,0

Da. Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga  $\frac{1}{4}$  stakanda 3 marta.

5. Recipe: Solutionis Iodi spirituosae 2,0 ml

Tanini 3,0

Glycerini 10,0 ml

Misce. Da.

Signa: milkga suykash uchun.

(Solutio, onis, f – eritma)

6. Recipe: Dragee Diazolini 0,05

Da tales doses numero 20

Signa: Kuniga 3 marta 1 ta donachadan ovqatdan keyin.

7. Recipe: Olei Ricini 30,0 ml

Xeroformii 1,5

Misce. Da.

Signa: surtmali bog'lamlar uchun.

#### **2. Lotin tiliga tarjima qiling:**

1. Ol: Marvaridgulning nastoykasidan

Valeriananing ekstraktidan teng miqdorda 10,0 ml.

- Belladonna ning nastoykasidan 5,0 ml.  
Aralashtir. Ber.
2. Ol: Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 5-10 marta qabul qilinsin.  
Yalpiz suvidan 200,0 ml  
Ber
3. Ol: Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 5-10 marta qabul qilinsin.  
Tozalangan yoddan 0,03  
Kaliy yodiddan 0,3  
Glitserindan 30,0  
Qalampir yalpiz moyidan 30 tomchi  
Aralashtir. Ber.
4. Ol: Belgila: hiqildoqni moylash uchun.  
Do'lana nastoykasidan  
Ravoch nastoykasidan teng miqdorda 10,0 ml  
Mentoldan 0,2  
Aralashtir. Ber.
5. Ol: Belgila: bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta.  
Moychechak gullaridan 100,0  
Ber.
6. Ol: Belgila: Qaynoq suvda damlab qo'yib, og'izni kuniga  
3 marta chayqash uchun.  
Dikain eritmasidan 2,0 ml  
Adrenalin gidroxlorid eritmasidan 0,1 % li 3 tomchi  
Aralashtir. Ber.  
Belgila: anesteziya yuzasi uchun ko'zga 2-3 tomchidan  
tomizilsin.
7. Ol: "Anuzol" shamchalaridan 10 dona  
Ber. Belgila: tunda 1 shamchadan qo'yilsin.
8. Ol: Monomitsindan 0,25  
Shunday miqdorda 50 dona tabletkalarda ber.  
Belgila: Kuniga 2 mahal 1 tabletkadan.
9. Ol: Barbitol -natriydan 0,5  
Kakao moyidan keragicha, shamcha hosil qilish uchun  
Shunday miqdorda 12 dona berilsin.  
Belgilansin: kechqurin 1 shamchadan.
10. Ol: Eufillindan 0,1  
Dimedroldan 0,0125  
Shakardan 0,2  
Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.  
Shunday miqdorda 12 dona kapsulalarda ber.



- Belgila: Kuniga 3 mahal 1 kapsuladan.
11. Ol: Do'lananing suyuq ekstraktidan 25,0 ml  
Berilgan bo'lsin.  
Belgilangan bo'lsin: Ovqatdan oldin kuniga 3 mahal 20 tomchidan.
12. Ol: Dibazol eritmasidan 5,0 ml  
Shunday miqdorda 5 dona ampulalarda ber.  
Belgila: kuniga mushak orasiga 4ml.dan yuborilsin.
13. Ol: Ixtiolning glitserinli eritmasidan 50,0 ml  
Berilsin. Belgilansin: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.
14. Ol: 0,5% li Novokain bilan 1% li Sintomitsin linimentidan 50,0 ml berilsin.  
Belgilansin: yuzaga surtish uchun.
15. Ol: "Novomigrofen" tabletkalaridan 15 dona ber.  
Belgila: bosh og'rigiga 1 ta tabletkadan.

**19-§. LEKSIK MINIMUM**

emplastrum, i, n	yaraga yopishtirib qo'yiladigan malhamli mato	membranula, ae, f	ko'zga qo'yiladigan plyonka dori
granulum, i, n	granula	oleum, i, n	moy
globulus, i, n	sharcha	succus, i, m	sharbat, shira
lamella, ae, f	ko'z pardasi, pilakcha	iniectio, onis, f	igna orqali qo'yish
mucilago, inis, f	shilliq modda	suspensio, onis, f	suspensiya
<b>Dorilarning nomlari</b>			
Aether, eris, m	efir	Cacao (turlanmaydi)	kakao
Barbitalum-natrium, i, n	barbital-natriy	Cordigitum, i, n	kordigit
Dimedrolum, i, n	dimedrol	Diprophyllinum, i, n	diprofillin
Euphyllinum, i, n	evfillin	Furacillinum, i, n	furatsillin
Mentholum, i, n	mentol	Nitroglycerinum, i, n	nitroglitserin
Phenacetinum, i, n	fenatsetin	Saccharum, i, n	shakar
Tetracyclinum, i, n	tetratsiklin	Validolum, i, n	validol

## Nota bene!

**Mala herba cito crescit** – Begona o't tez o'sadi.

**Ars longa vita brevis** – Hayot qisqa, san'at esa abadiydir.

### Mustaqil o'qish uchun matnlar

#### SUPRASTINUM

*Suprastinum praeparatum antihistaminicum est. Medici Suprastinum ad dermatoses allergicas (urticariam, eczema, pruritus, dermatitidem), rhinitidem allergicam et conjunctivitidem, allergias medicamentosas saepe praescribunt. Praeparatum effectum celerem dat atque effectum sedativum habet.*

*Suprastinum forma tabulettarum et solutionis praescribitur.*

*Rp.: Tab. Suprastini 0,025 №. 20*

*D. S.*

*Rp.: Sol. Suprastini 2 % 1 ml*

*D.t.d. №. 6 in amp. S.*

## 28-DARS

### 20-§. RETSEPTLARDA TABLETKA, SHAMCHALAR VA KO'Z PLYONKALARINI YOZISHDA TUSHUM KELISHIGINING QO'LLANILISHI.

#### Tabletka, shamchalarni va ko'z plyonkalarini yozishda Accusativus (tushum kelishigi)ning qo'llanishi

Tabletkalar va shamchalarning retseptlarda qo'llanilishida turlicha yondashuvlar mavjud:

1. Esingizda bo'lsa kerak, kombinatsiyalangan (murakkab yoki birlashgan) tarkibdagi dorilar, ko'proq hollarda, savdo nomli va murakkab qisqartirilgan dori nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi. Masalan:

tabulettae "Codterpinum" – "Kodterpin" tabletkalari;

suppositorium "Neo-Anusolum" – "Neo-Anusol" shamchalari.

Tabletkalar va shamchalarning savdo nomlari bosh kelishik birlik sonida qo'yiladi va moslashmagan aniqlovchi hosil qiladi. Standart holatlardagi qoidaga muvofiq dori miqdorlari ko'rsatilmaydi.

2. Agar tabletkalar tarkibida bitta ta'sir etuvchi dori moddasi bo'lsa, dori shaklining nomidan so'ng dori nomi Genetivus Singularis (qaratqich kelishigi birlik soni)da uning miqdori ko'rsatilgan holda yoziladi. Masalan:

Tabulettae Cordigiti 0,0008 – Kordigit(ning) tabletkalari 0,0008.

3. Agar shamchalar tarkibida bitta ta'sir etuvchi dori moddasi bo'lsa, uning nomi dori shaklining nomi bilan cum ko'makchisi (predlogi) yordamida bog'la-

nadi va Ablativus (chiqish kelishigi)da yoziladi, so'ngra dori miqdori ko'rsatiladi. Masalan:

Suppositoria cum Cordigito 0,0012 – shamchalar Kordigit bilan 0,0012.

4. Retseptlarda tabletkalar va shamchalar yozilayotgan paytda, qisqartirilgan usulda yozilgan bo'lsa, dori shaklining nomi Accusativus Pluralis (tushum kelishigi ko'plik soni)da yoziladi, bu yerda u dori miqdoriga emas, Recipe so'ziga grammatik bog'lanadi. Masalan:

tabulettas – tabletkalar;

tabulettas obductas – qobiqli tabletkalar;

suppositoria – shamchalar;

suppositoria vaginalia – vaginal (qin uchun) shamchalar.

Dragee – draje (fransuzcha so'z) retseptlarda turlanmaydi.)

Shunga o'xshash tarzda, ko'z plyonkalari (lamellae ophthalmicae) Accusativus Pluralis (tushum kelishigi ko'plik soni)da yoziladi, dorining nomi dori shaklining nomi bilan cum ko'makchisi (predlogi) yordamida bog'lanadi va Ablativus (chiqish kelishigi)da yoziladi, so'ngra dori miqdori ko'rsatiladi. Masalan:

Recipe: Lamellas ophthalmicas cum Florenalo numero 30

Ol: Ko'z plyonkalari Florenol bilan 30 dona.

5. Retseptlarda qisqartirilgan usulda tabletkalar va shamchalar yozilayotgan paytda, dori moddasi bitta tarkibiy qismdan iborat bo'lsa, dori shaklining nomi Accusativus Singularis (tushum kelishigi birlik soni)da (tabulettam, suppositorium) ko'rinishida yozilishi mumkin. Bunday holda retsept standart formulirovkada Da (Dentur) tales doses numero... yozuvi bilan tugallanadi. Masalan:

Recipe: Tabulettam Digoxini 0,0001

Da tales doses numero 12

Recipe: Suppositorium cum Ichthyolo 0,2

Da tales doses numero 10

6. Shuningdek, tabletkalar retseptda dori moddasining nomi va uning bir martalik dozasi (miqdori) ko'rsatilib, tabletkalar soni retsept standart formulirovkalarida Da (Dentur) tales doses numero ... in tabulettis. —Shunday tarzda tabletkalarda ... dona ber (berilsin) yozuvi bilan tugallanishi keng tarqalgan. Masalan:

Recipe: Digoxini 0,0001

Da tales doses numero 12 in tabulettis.

### **Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlarning nomlanishi**

Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlar ikki yoki undan ortiq dorivor moddalardan iborat bo'ladi va ma'lum dori shaklida (tabletkalar, shamchalar, surtma) ishlab chiqariladi. Kombinatsiyalashtirilgan preparatlarning nomi



abbreviaturadan iborat bo'lib, hamma yoki ba'zi ingrediyentlarning nomidan ixtiyoriy ajratib olingan bo'laklardan tashkil topadi. Masalan: "Pyrcophenum" abbreviaturasi pyr+co+phen(um) bo'laklardan tashkil topgan. Bu bo'laklar Amidopyrinum, Coffeinum, Phenacetinum kabi preparatlar nomidan ajratib olingan.

Odatda bunday shartli nom dori shaklining ma'lum ko'rinishiga biriktirib qo'yiladi va qo'shtirnoq ichida Nominativus Singularisda yoziladi. Masalan:

tabulettae "Pyrcophenum",

suppositoria "Bethiolum",

dragee "Undevitum".

Kombinatsiyalashtirilgan tarkibli tabletkalar va shamchalardagi "tabletkalar" va "shamchalar" so'zlari retseptda Accusativus Pluralisda yoziladi. Masalan:

Recipe: Tabulettas "Pyrcophenum" numero 10.

Recipe: Suppositoria "Anusolum" numero 20.

### Retseptlarda so'zlarning grammatik bo'g'lanishi

nima bilan?

nimani?

Rp: Suppositoria cum "Neo-Anusolum" numero 12

Qancha?

a) dorivor moddaning dozasi qaratqich kelishigida

b) trivial nomli preparat bosh kelishikda qo'shtirnoqda beriladi

Recipe: Tabulettas Monomycini 0,25 numero 50

Detur. Signetur: Kuniga 2 mahal.

Ol: Monomitsin tabletkalaridan 0,25 50 dona

Berilsin. Belgilansin: Kuniga 2 mahal.

Recipe: Tabulettas "Thepaphyllum" numero 10

Detur. Signetur: Kuniga 3 mahal.

Ol: Tepafillin tabletkalaridan 10 dona

Berilsin. Belgilansin: Kuniga 3 mahal.

Recipe: Suppositoria cum Ichthyolo 0,2 numero 10

Detur. Signetur: Kuniga 2 mahal.

Ol: Ixtiol bilan shamchalardan 0,2 10 dona.

Berilsin. Belgilansin: Kuniga 2 mahal.



Shu tarzda ko'z plyonkalari ham cum (bilan) ko'makchisi yordamida Ablativusda yoziladi. Masalan:

- Recipe: Lamellas ophthalmicas cum Neomycini sulfate numero 30.  
Detur Signetur: Kuniga 2 mahal.
- Ol: Neomitsin sulfat bilan ko'z plenkalari 30 dona  
Berilsin. Belgilansin: Kuniga 2 mahal.

**Nota bene!**

**Post mortem** – O'limdan so'ng.

**Suum cuique** – Har kimniki o'ziga.

**Potius mori quam foedari** – Sharmanda bo'lguncha, o'lgan yaxshidir.

**Qui non laborat, non manducet** – Ishlamagan – tishlamaydi.

**Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

**1. O'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling:**

1. Recipe: Morphini hydrochloridi 0,01  
Sacchari 0,1  
Misce, fiat pulvis  
Detur tales doses numero 6  
Signetur: Kuniga 3 mahal.
2. Recipe: Tabulettas "Pentalginum" numero 6  
Da. Signa: Kuniga 4-5 mahal.
3. Recipe: Mentholi 0,1  
Natrii hydrocarbonatis  
Natrii tetraboratis  
Natrii chloridi ana 5,0  
Misceatur, fiat pulvis  
Detur. Signetur: Kuniga 3 mahal.
4. Recipe: Olei Ricini 20,0  
Chloroformii 1,2  
Vinylini 1,0  
Misce. Da.  
Signa: Kuniga 3 mahal.
5. Recipe: Thiamini chloridi  
Riboflavini ana 0,003  
Acidi nicotinic 0,02  
Da tales doses numero 50 in dragee  
Signa: Kuniga 2 mahal.
6. Recipe: Strychnini nitratis 0,03

- Extracti et pulveris radices Glycyrrhizae 1,5  
Misce, fiant pilulae numero 30  
Da. Signa: Kuniga 2 mahal.
7. Recipe: Liquoris Ammonii anisati 1,0 ml  
Da. Signa: Kuniga 3-4 mahal.
8. Recipe: Herbae Adonidis vernalis 8,0  
Foliorum Menthae piperitae 2,0  
Misce, fiant species  
Dentur tales doses numero 6  
Signa: Kuniga 2 mahal.
9. Recipe: Solutionis Ichthyoli glycerinosae 10 % 30,0 ml  
Da. Signa: Kuniga 1 mahal.
10. Recipe: Infusi corticis Althaeae ex 10,0-200,0 ml  
Da. Signa: Kuniga 3-4 mahal 1 osh qoshiqdan.
11. Recipe: Decocti corticis Frangulae ex 20,0 – 200,0 ml  
Natrii sulfatis 20,0  
Misce.  
Da. Signa: Kuniga 1-2 mahal 1 osh qoshiqdan.
12. Recipe: Synthomycini 5,0  
Olei Ricini 20,0 ml  
Acidi ascorbinici 0,1  
Acidi salicylici 0,125  
Aqua destillatae ad 100,0 ml  
Misce, fiat emulsum  
Da. Signa: Kuniga 3 mahal.
13. Recipe: Suspensionis Aluminium hydroxydi 4 % 200,0 ml  
Da. Signa: Kuniga 3-4 mahal.
14. Recipe: Mucilaginis Amyli Tritici 100,0 ml  
Da. Signa: Kuniga 2-3 mahal.
15. Recipe: Sulfuris praecipitati  
Acidi salicylici  
Ichthyoli ana 50,0  
Misce, fiat unguentum  
Da. Signa: Kuniga 2 mahal.
16. Recipe: Chloroformii 20,0  
Olei Hyoscyami 40,0 ml  
Misce, fiat linimentum  
Da. Signa: Kuniga 2-4 mahal.
17. Recipe: Sulfuris praecipitati 15,0  
Zinci oxydi  
Amyli Tritici ana 10,0

Naphthalani 20,0  
 Misce, fiat pasta  
 Da. Signa: Kuniga 3 mahal.

18. Recipe: Anaesthesini 0,01  
 Olei Cacao 2,0 ml  
 Misce, fian suppositoria rectalia  
 Dentur tales doses numero 6  
 Signetur: Kuniga 3-4 mahal.

**2. Kukunlarning retsept shaklini yozing:**

1. 12 kukunli 0,015 kodein fosfat va 0,3 shakar
2. 6 kukunli papaverin gidroxlordan, fenobarbitaldan teng miqdorda 0,02, fenil salitsilatdan 0,3
3. Mumlangan qog'ozda 20 kukunli maydalangan kamforadan 0,2

**3. Ikki ko'rinishda yozing:**

1. "Anapirin" tabletkasidan 10 dona  
 Tarkib: Analgindan, Amidopirindan teng miqdorda 0,25 Kofein natriy benzoatdan 0,1
2. "Besalol" tabletkasidan 6 dona  
 Tarkib: Fenil salitsilatdan 0,3 Beladonna ekstraktidan 0,15
3. O't hatdovchi yig'madan 100,0  
 Tarkib: Toloknyanka barglaridan, Archagul mevalaridan teng miqdorda 40,0 Qizilmiya ildizidan 20,0
4. Astmaga qarshi yig'madan 100,0  
 Tarkib: Mingdevona barglaridan, Belladonna barglaridan teng miqdorda 10,0 Bangidevona barglaridan 70,0 Natriy nitratdan 10,0

**Nota bene!**

**Amicus certus in re incerta ceritur** – Sodiq do'st og'ir kunda bilinar.  
**Medice, cura te ipsum** – Shifokor, muolajani o'zingdan boshla.

**29-DARS. KIMYOVIY MODDALAR VA BIRIKMALAR NOMLARINING  
 RETSEPTURADA QO'LLANILSHI**

**21-§. KIMYOVIY ELEMENTLAR**

Deyarli barcha lotincha kimyoviy moddalarning nomi ikkinchi turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, Nominativus Singularis.da -um, Genetivus Singularis.da -i qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Aurum, i, n – oltin;  
 Ferrum, i, n – temir;

Kalium, i, n – kaliy;

Oxygenium, i, n – kislorod;

Hydrogenium, i, n – vodorod;

Faqat Sulfur, uris, n – oltingugurt (III-turlanish Neutrum) va Phosphorus, i, m -fosfor (II-turlanish Masculinum) bu qoidadan mustasno.

Kimyoviy elementlar belgilari lotincha nomining birinchi harfidan yaratiladi:

Hydrogenium – H – vodorod

Oxygenium– O – kislorod

Kimyoviy elementlar belgilari lotincha nomining birinchi va ikkinchi harfidan yaratiladi:

Ferrum – Fe – temir

Aurum – Au – oltin

Kimyoviy elementlar belgilari lotincha nomining birinchi va uchinchi harfidan yaratiladi:

Argentum – Ag – kumush

Chlorum – Cl – xlor

Kimyoviy elementlar belgilari lotincha nomining birinchi va to'rtinchi harfidan yaratiladi:

Thallium – Tl – talliy

Platinum – Pt – platiniy

Kimyoviy elementlar belgilari hatto lotincha nomining birinchi va yettinchi harfidan yaratiladi:

Hydrargyrum – Hg – simob

### MUHIM KIMYOVIY ELEMENTLAR NOMINI ESLAB QOLING

Lotincha nomi	Belgisi	O'zbekcha nomi
Aluminum	Al	Alyuminiy
Argentum	Ag	Kumush
Arsenicum	As	Margimush
Aurum	Au	Oltin
Barium	Ba	Bariy
Bismuthum	Bi	Vismut
Borum	B	Bor
Bromum	Br	Brom
Calcium	Ca	Kalsiy
Carboneum	C	Ko'mir



Chlorum	Cl	Xlor
Cuprum	Cu	Mis
Ferrum	Fe	Temir
Fluorum	F	Ftor
Hydrargyrum	Hg	Simob
Hydrogenium	H	Vodorod
Iodum	I	Yod
Kalium	K	Kaliy
Lithium	L	Litiy
Magnium	Mg	Magniy
Manganum	Mn	Marganes
Natrium	Na	Natriy
Nitrogenium	N	Azot
Oxygenium	O	Kislorod
Plumbum	Pb	Qo'rg'oshin
Silicium	Si	Kremniy
Stibium	Sb	Surma
Thallium	Tl	Talliy
Zincum	Zn	Rux

Chet mamlakatlarda chiqarilgan ayrim moddalar lotin tilida boshqacha nomlanadi:

Natrium, i, n – Sodium, i, n – natriy;

Kalium, i, n – Potassium, i, n – kaliy;

Hydrargyrum, i, n – Mercurium, i, n – simob;

Stibium, i, n – Antimonium, i, n – surma

Hozirgi zamon farmatsevtikasida dori sifatida kimyoviy moddalar va birikmalar ko'plab qo'llaniladi.

Retseptlarda kimyoviy moddalar nomlari Gen.Sing.da yoziladi:

Rp: Ferri 0,5

Rp: Zinci oxydi 10,0

Rp: Natrii chloridi 5,0 ml

## 22-§. KISLOTALAR NOMLARI

Lotin tilida kislotalar nomi acidum, i, n – kislota oti va -icum sifat qo'shimchasidan yasaladi.

Acidum boricum – borat kislotalari

Acidum salicylicum – salitsilat kislotalari

Ayrim hollarda moddalar ikkita kislota hosil qilishi mumkin. Bu vaqtda tarkibida kislorod miqdori ko'p bo'lgan kislotalarni -icum qo'shimchali sifat yordamida hosil qilinadi:

Acidum nitricum – ( $\text{HNO}_3$ ) – azot kislotalari

Acidum sulfuricum – ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) – oltingugurt kislotalari

Agar modda tarkibida kislorod miqdori kam bo'lsa, kislotalar -osum (o'zbek tilida -li) qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi:

Acidum nitrosum – ( $\text{HNO}_2$ ) – azotli kislota

Acidum sulfurosum – ( $\text{H}_2\text{SO}_3$ ) – oltingugurtli kislota

Tarkibida kislota moddasi bo'lmagan kislotalar nomi Acidum oti, hydro- old qo'shimchali sifat va so'ngra -idum suffiksi qo'shilishi yordamida hosil qilinadi:

Acidum hydrochloridum – vodorod xlorid kislota

Acidum hydrosulfuridum – vodorod oltingugurt kislota

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Kislotalar nomini yozing.

glyutamin, askorbinat, karbolat, nikotin, fosfat, fosfatli, oltingugurtli, oq margumush, vodorod bromid, vodorod yodid.

#### 2. Quyidagi so'zlar asosida lotincha kislotalar nomini yozing.

borum, i, n – bor      lac, lactis, n – sut      acetum, i, n – sirka

citrus, i, m – limon      formica, ae, f – chumoli      nicotinum, i, n – nikotin

#### 3. Tarjima qiling

1. Borat kislotalarining surtmasi. 2. Glyutamin kislotalarining tabletkalari. 3. Oltingugurt kislotalarining eritmasi. 4. Toza oltingugurt kislotalari. 5. Tirnoqgul bilan nikotin kislotalarining tabletkasi. 6. Benzoy va salitsilat kislotalari antiseptik moddalari (remedium, i, n – modda). 7. Sirka kislotalarini aralastirish va qora idishda berish.

#### 4. O'qing, tarjima qiling:

1. Recipe: Acidi salicylici

Acidi benzoici ana 0,6

Talci 50,0

Misce. Da. Signa: Kuniga 2 mahal.

2. Recipe: Acidi hydrochloridi 4,0

Pepsini 2,0

Aquae destillatae ad 200,0 ml

Misce. Da. Signa: Kuniga 3 mahal.

3. Recipe: Acidi salicylici  
Acidi lactici ana 6,0  
Acidi acetici concentrati 3,0  
Collodii ad 20,0  
Misce. Da. Signa: Kuniga 2 mahal.
4. Recipe: Tabulettas Acidi lipoici 0,025 numero 50  
Da.  
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
5. Recipe: Acidi folici 0,0008  
Acidi ascorbinici 0,1  
Dentur tales doses numero 30 in tabulettis  
Signetur: kuniga 3 marta 1 tabletkadan.
6. Recipe: Sulfuris depurati  
Magnesii oxydi  
Sacchari ana 10,0  
Misce, fiat pulvis  
Detur. Signetur:  $\frac{1}{2}$  choy qoshiqdan qabul qilinsin.
7. Recipe: Magnesii peroxydi 0,25  
Da tales doses numero 12  
Signa: kuniga 3 mahal 1 kukundan.
8. Recipe: Sulfuris praecipitati 1,2  
Glycerini 5,0  
Aquae destillatae 90,0 ml  
Misce. Da.  
Signa: bosh terisiga surtish uchun.

**5. Retseptni lotin tiliga tarjima qiling.**

1. Ol: Salitsilat kislotadan 2,0  
Glitserindan 15,0  
Qo'rg'oshin suvidan 180,0 ml  
Aralashtir. Ber.  
Belgila: kuniga 2 marta bosh terisiga surtisin.
2. Ol: Skipidardan  
Lanolindan teng miqdorda 1,0  
Xloroformdan 5,0  
Vazelindan 3,0  
Aralashtir. Ber. Belgila: Surtma.
3. Ol: Dimedroldan 0,02  
Borat kislotadan 0,2  
Distillangan suvdan 20,0 ml  
Aralashtirilsin. Berilsin.

4. Ol: Belgilansin: Kuniga 3 marta 1 tomchidan ko'zga tomizilsin.  
 Atsetilsalitsilat kislotasidan  
 Fenatsetindan teng miqdorda 0,18  
 Kofeindan 0,03  
 Kakaodan 0,02  
 Shunday miqdorda 10 dona tabletkalarda berilsin.  
 Belgilansin: Bosh og'rig'ida 1 tabletkadan.
5. Ol: Rux oksididan  
 Bug'doy kraxmalidan teng miqdorda 12,0  
 Vazelindan 60,0 gacha  
 Pasta hosil bo'lguncha aralashtir  
 Ber. Belgila: Teriga surtish uchun.

### 23-§. O'QING VA BIR NECHA MUHIM KIMYOVIIY ELEMENTLARNI ESDA SAQLANG

Aluminium, i, n	alyuminiy	Hydrargyrum, i, n	simob
Argentum, i, n	kumush	Iodum, i, n	yod
Arsenicum, i, n	margumush	Kalium, i, n	kaliy
Aurum, i, n	oltin	Lithium, i, n	litiy
Bromum, i, n	brom	Manganum, i, n	marganets
Barium, i, n	bariy	Natrium, i, n	natriy
Bismutum, i, n	vismut	Nitrogenium, i, n	azot
Carboneum, i, n	uglerod	Oxygenium, i, n	kislrorod
Calcium, i, n	kalsiy	Plumbum, i, n	qo'rg'oshin
Chlorum, i, n	xlor	Phoshorus, i, m	fosfor
Cuprum, i, n	mis	Sulfur, uris, n	oltingugurt
Fluorum, i, n (lat)	ftor	Magnesium, i, n, seu Magnium, i, n	magniy
Phthorum, i, n (gr)			
Ferrum, i, n	temir	Silicium, i, n	kremniy
Hydrogenium, i, n	vodorod	Zincum, i, n	rux

### 24-§. LEKSIK MINIMUM

adsorbatus, a, um	shimadigan	compositus, a, um	murakkab
exsiccatus, a, um	quritilgan	concentratus, a, um	quyuqlashtiruvchi



concisus, a, um	kesilgan, maydalangan	depuratus, a, um	tozalangan (oltingugurt)
pulveratus, a, um	kukunga aylantirilgan	obductus, a, um	parda bilan qoplangan
praecipitatus, a, um	cho'ktirilgan	dilutus, a, um	suyultirilgan
purificatus, a, um	tozalangan (zardob)	rectificatus, a, um	tozalangan (spirt)
tritatus, a, um	maydalangan	ustus, a, um	kuydirilgan

**25-§. LEKSIK MINIMUM.  
KISLOTALARNING NOMLANISHI**

I	Acidum aceticum	sirka kislotasi
	Acidum acetylsalicylicum	asetilsalitsilat kislotasi
	Acidum ascorbinicum	askorbinat kislotasi (C vitamini)
	Acidum benzoicum	benzoat kislotasi
	Acidum boricum	borat kislotasi
	Acidum carbolicum	karbolat kislotasi
	Acidum carbonicum	ko'mir kislotasi
	Acidum citricum	limon kislotasi
	Acidum dehydrocholicum	degidroxolat kislotasi
	Acidum etacrynicum	etakrin kislotasi
	Acidum ferro-ascorbinicum	temir askorbinat kislotasi
	Acidum folicum	folat kislotasi
	Acidum glutaminicum	glyutamin kislotasi
	Acidum lacticum	sut kislotasi
	Acidum lipoicum	yog' (lipoy) kislotasi
	Acidum nicotinicum	nikotin kislotasi
	Acidum nitricum	nitrat kislotasi
	Acidum phosphoricum	fosfat kislotasi
	Acidum salicylicum	salitsilat kislotasi
	Acidum sulfuricum	sulfat kislotasi
II	Acidum arsenicosum	margumushli (arsenit) kislota
	Acidum nitrosum	azotli (nitrit) kislota

	Acidum sulfurosum	oltingugurtli (sulfit) kislota
III	Acidum hydrochloridum	vodorod xlorid kislota
	Acidum hydrocyanidum	vodorod sianid kislota
	Acidum hydrosulfuridum	vodorod oltingugurt kislota

**26-§. LEKSIK MINIMUM.  
DORILARNING NOMI**

Amylum (i) Triticici	bug'doy krax- mali	Coffeinum, i, n	kofein
Hydrocortisonum, i, n	gidrokortizon	Oxacillinum, i, n	oksatsillin
Oleum Persicorum	shaftoli moyi	Sulfacylum, i, n	sulfatsil
Olei Persicorum (Persicum, i, n mos- lahmagan aniqlovchi)		Talcum, i, n	talk

**Nota bene!**

**Est modus in rebus** – Hamma narsa me'yor bilan.  
**Ut quisque est doctissimus, ita est modestissimus** – Kim aqli bo'lsa, u kamtarin hamdir.

**27-§. OKSIDLAR, GIDROKSIDLAR**

Oksidlarning nomi ikkita otdan tashkil topadi, birinchi o'rinda turadigan moddaning nomi qaratgich kelishigida, ikkinchi o'rinda turadigan oksidlar-ning guruh nomi bosh kelishikda bo'ladi.

Hydrogenii peroxydum – vodorod peroksidi

Zinci oxydum – ruh oksidi

Calcii hydroxydum – kalsiy gidroksidi

**Nota bene!**

oksid – oxydum, i, n

peroksid – peroxydum, i, n

gidroksid – hydroxydum, i, n

Chala oksidlar guruhi nomi ikkita otdan tashkil topib, birinchisi modda nomi bosh kelishik birlikda, ikkinchisi unga moslashgan chala oksid guruhi-

ning nomi oxydulatus, a, um sifati ham bosh kelishik birlikda bo'ladi.

Ferrum oxydulatum – temirning chala oksidi

Nitrogenium oxydulatum – azotning chala oksidi

### OKSIDLAR NOMINI MISOLLARDA O'RGANAMIZ

Kalsiy oksidi – Calcii oxydum

Natriy peroksidi – Natrii peroxydum

Qo'rg'oshin chala oksidi – Plumbum oxydulatum

Kalsiy peroksidi – Calcii peroxydum

Bariy gidroksidi – Bariii hydroxydum

Simob oksidi – Hydrargyri oxydum

Magniy peroksidi – Magnii peroxydum

### Asoslar nomi

Tarkibida metall atomi va vodorod oksid guruhi bo'lgan birikmalar – **OH**, asoslar deb ataladi. IUPAC (Xalqaro kimyoviy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish uyushmasi) qoidalari asosidagi atamalar birligida gidroksid guruhlari (**BOH**-guruhlari) gidroksidlar (**hydroxydum, i, n**). deb ataladi. Masalan:

**NaOH – Natrii hydroxydum** – natriy gidroksid

**Al(OH)<sub>3</sub> – Aluminii hydroxydum** – alyuminiy gidroksid

Agar modda bir necha gidroksidlardan tashkil topgan bo'lsa, metallning oksidlanish darajasini ifodalovchi nomidan so'ng rim raqamida qavs ichida yozib qo'yiladi. Masalan:

**Fe(OH)<sub>2</sub> – Ferri hydroxydum (II)** – temir (II) gidroksid

**Fe(OH)<sub>3</sub> – Ferri hydroxydum (III)** – temir (III) gidroksid

Bitta metall dan iborat bo'lgan gidroksidlar nomlanishi tarkibidagi oksidlar sonini ifodalovchi yunoncha old qo'shimchali sonlar yordamida farqlanadi. Masalan:

**Fe(OH)<sub>2</sub> – Ferri dihydroxydum (II)** – temir digidroksidi

**Fe(OH)<sub>3</sub> – Ferri trihydroxydum (III)** – temir trigidroksidi

### 28-§. TUZLAR

Tuzlar nomi ikkita otdan tuzilgan: kation – qaratgich kelishigida birinchi o'rinda va anion -bosh kelishigidagi sifat bilan ikkinchi o'rinda ifodalanadi.

Zinci sulfas – ruh sulfat;

Cupri citras – mis sitrat.

Tuzlarning lotincha nomlarini hosil qilishda quyidagi suffikslardan -as (-atis) tarkibida kislorod ko'p bo'lgan kislorodli tuzlar, -is (-itis) tarkibidagi



kislorodi kam bo'lgan kislorodli tuzlar, -idum (idi) kislorodsiz anion tuzlarini hosil qilishda foydalaniladi.

O'zbekcha -at lotincha (Nom.Sing.) -as (Gen. Sing. -atis)

Natriy sulfat –

Nom. Sing. Natrii sulfas

Gen. Sing. Natrii sulfatis –  $Na_2SO_4$

O'zbekcha -it lotincha (Nom.Sing.) -is (Gen. Sing. -itis)

Natriy sulfit –

Nom. Sing. Natrii sulfis

Gen. Sing. Natrii sulfitis –  $Na_2SO_3$

O'zbekcha -id lotincha (Nom.Sing.) -idum (Gen. Sing. -idi)

Natriy sulfid –

Nom. Sing. Natrii sulfidum

Gen. Sing. Natrii sulfidi –  $Na_2S$

### TAXIR VA ASOSLI TUZLAR NOMI

Taxir tuzlarda anionlar lotincha nomlanishida boshqa tuzlar nomlaridagi anionlar oldidan **hydro-** old so'z yasovchi qo'shimchasi qo'yiladi. Masalan:

$NaHSO_4$  – **Natrii hydrosulfas** – natriy gidrosulfat

$NaHSO_3$  – **Natrii hydrosulfis** – natriy gidrosulfit

$NaHS$  – **Natrii hydrosulfidum** – natriy gidrosulfid.

Taxir tuzlarda anionlar lotincha nomlanishida uch va ko'p asosli tuzlar nomlaridagi anionlar oldidan kislota molekulasida vodorod atomlari sonini ifodalovchi **hydrogen-** old so'z yasovchi qo'shimchasi qo'yiladi. Masalan:

$Na_2HPO_4$  – **Natrii hydrogenphosphas** – natriy gidrogenfosfat;

$Na_2PO_4$  – **Natrii dihydrogenphosphas** – natriy digidrogenfosfat.

Asosli tuzlarda anionlar lotincha nomlanishida boshqa tuzlar nomlaridagi anionlar oldidan **sub-** old so'z yasovchi qo'shimchasi qo'yiladi. Masalan:

$(CuOH)_2SO_4$  – **Cupri subsulfas** – Mis asosli sulfati

Asosli tuzlarda kationlar lotincha nomlanishida boshqa tuzlar nomlaridagi kationlar oldidan **hydroxo-** old so'z yasovchi qo'shimchasi qo'yiladi. Masalan:

$Bi(OH)(NO_3)_2$  – **Hydroxobismuthi (III) nitras** – Hidroksovismut (III) nitrat.

### KALIYLI VA NATRIYLI ORGANIK TUZLARNING LOTINCHA NOMLANISHI

Kaliyli va natriyli organik tuzlarning lotincha nomlanishi asos nomi va undan keyin chiziqcha bilan yozilgan **natrium** yoki **kalium** so'zidan iborat bo'ladi. Masalan:

**Norsulfazolum** – **natrium** (Gen. Norsulfazoli-natrii) – norsulfazol -nat-



riy;

**Benzylpenicillinum - kalium** (*Gen. Benzylpenicillini-kalii*) –benzil penitsillin-kaliy.

### KISLOTALI VA UGLEVODORODLI RADIKALLARNING LOTINCHA NOMLANISHI

- b. aniq, buyruq
- c. buyruq, shart
- d. aniq, shart, buyruq

157. Berilgan fe'llardan I tuslanish noaniq shakli qo'shimchasini to'g'ri toping:

- a. -ire
- b. -ere
- c. -ure
- d. -are

158. Barcha fe'llar buyruq maylida berilgan qatorni toping:

- a. solve, nutri, praescribe
- b. dividite, nutrire, praescribere
- c. dividit, nutrit, praescribit
- d. solvere, dare, nutrire

159. Barcha fe'llar IV tuslanishga mansub bo'lgan qatorni toping:

- a. nutrire, audire, colare
- b. infundere, sumere, solvere
- c. audire, nutrire, venire
- d. dare, colare, errare

160. Barcha fe'llar II tuslanishga mansub bo'lgan qatorni ko'rsating:

- a. dare, curare, discere
- b. studere, venire, amare
- c. habere, miscere, docere
- d. dividere, vivere, auscultare

161. Tarjima qiling: "Aralashtir, emulsiya hosil bo'lsin".

- a. Misce, fiant emulsum
- b. Misce, fiat emulsum
- c. Misce, ut fiant emulsi
- d. Miscetur, fiant emulso

162. Juftini aniqlang: "Aralashtilgan bo'lsin"

- a. misceatur
- b. misce
- c. miscere
- d. misceat

163. Gapni to'ldiring: "Shunday dozalar berilsin". ... tales doses

- a. dentur
- b. da
- c. dare
- d. detur

164. noli audire iborasining to'g'ri tarjimasini toping:

- a. eshitma
- b. eshitmang
- c. jim turma
- d. baqirma

165. audiatur et altera pars ni aniqlang:

- a. Majhullik nisbati aniqlik maylida
- b. Aniqlik nisbati shart maylida
- c. Majhullik nisbati shart maylida
- d. Faqat buyruq maylida

166. tez chayqat iborasining to'g'ri tarjimasini toping:

- a. Agita cito
- b. Agitate cito
- c. Agitet cito
- d. Agitetur cito

167. To'g'ri tarjimani toping: Baqliq moyidan keragicha qo'sh:

- a. Addite oleum jecoris Aselli quantum satis
- b. Addat oleum jecoris Aselli quantum satis
- c. Adde oleum jecoris Aselli quantum satis
- d. Addatur oleum jecoris Aselli quantum satis

168. To'g'ri tarjimani toping: Archagul qaynatnasini soviting:

- a. Refrigerera decoctum Thymi
- b. Refrigerera decoctum Tritici
- c. Refrigerate decoctum Uvae ursi
- d. Refrigerate decoctum Leonuri

**169. Retsept iborasini to'g'ri tarjima qiling: Shakllantirilsin:**

- a. format
- b. forma
- c. formetur
- d. formate

**170. Iboraning to'g'ri tarjimasini toping: Lotin tilini o'rganing:**

- a. disce linguas Latinas
- b. discite linguam Latinam
- c. noli discere linguam Latinam
- d. nolite discere linguam Latinam

**171. Tarjima qiling: "Tozalangan oltingugurtdan". Sulfuris ...**

- a. depurati
- b. restificati
- c. diluti
- d. sicci

**172. Ikki terminli bo'lmagan so'zni ko'rsating.**

- a. etilmorfm
- b. xloralgidrat
- c. fenilsalisilat
- d. etilsalicilat

**173. Anionning nomini qo'ying. Solutio Platyphyllini ...**

- a. hydrotartaratis
- b. natrii
- c. borici
- d. oxydi

**174. Tuzlar nomi to'g'ri yozilgan javobni toping.**

- a. Natrii sulfas, Hydrargyri cyanidum.
- b. Acidum sulfas, Salicili cyanit.
- c. Zinci oxydum, Natrii sulfas.
- d. Natrii acidum, Hydrargyri oxydum.

**175. Oksidlar nomi to'g'ri yozilgan javobni toping.**

- a. Magnii oxydum, Zinci oxydum.
- b. Oxydum Magnii, Oxydum Zinci.
- c. Magnii oxudi, Magnii Zinci.
- d. Zinci oxydi, Magnium oxydi.

**176. Tarkibida kislorod miqdori ko'p bo'lgan kislotalar yozilgan javobni toping.**

- a. Acidum aceticum, Acidum citricum.
- b. Acidum boricum, Acidum sulfurosum.
- c. Natrii sulfidum, Oxydulatum basicum.
- d. Acidum acetosum, Acidum hydrocitricum.

**177. "Sariq shishachada ber" iborasi qanday tarjima qilinadi?**

- a. Da in vitro flavo
- b. Da in vitro nigro
- c. Da in vitro rubro
- d. Da intra vitrus flavus

**178. Retseptni to'ldiring: Rp: Tinctur... Schizandr...**

- a. -ae/-ae
- b. -ae/-a
- c. -a/-ae
- d. -i/-ae

**179. supp. rect. retseptura qisqartmasining to'liq shaklini va tarjimasini toping.**

- a. suppositoria rectalia - to'g'ri ichak shamchalari
- b. suspensio rectalis - to'g'ri ichak eritmasi
- c. succus rectalis - to'g'ri ichak shirasi
- d. suppum rectale - to'g'ri ichish uchun sho'rva



**180. Iboraning to'g'ri tarjimasini toping: Vodород peroksidning suyultirilgan eritmasidan:**

- Solutionis Hydrogenii peroxydi diluti
- Solutionis Hydrogenii peroxydi dilutae
- Solutionis Hydrogenii peroxydi fluidi
- Solutionis Hydrogenii peroxydum fluidum

**181. O. S. retseptura qisqartmasining to'liq shaklini va tarjimasini toping.**

- oculo sinistro – chap ko'zga
- oculus sinister – o'ng ko'z
- oculi sinistri – o'ng ko'zni
- optici sinistri – chap ko'zga

**182. Retsept yozish huquqi kimga beriladi?**

- shifokorga
- bosh shifokorga
- dorishunosga
- bemorga

**183. Retseptlarda yozilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha yozuvlarni toping.**

- Cito, Statim, Verte
- Recipe, Sterilisa, Detur
- Da, Slgna, Misce
- Oleum, emulsum, pilula

**184. To'ldiring: Biomycinum cum Nystatin...**

- o
- um
- is
- i

**185. Qaysi qatorda dorining nomi orfografik xato yozilgan:**

- Diiodthyrosinum
- Anesthesinum
- Cholosasum
- Nephridinum

**186. Streptomitsinlar guruhidagi antibiotik nomini toping:**

- Oxytetracyclinum
- Synthomycinum
- Analginum
- Penicillinum

**187. Bakteriyalarga qarshi ta'sir etuvchi dori nomini toping:**

- Ampicillinum
- Lidocainum
- Bilocidum
- Pancreatinum

**188. Iboraning to'g'ri tarjimasini toping: Ko'z uchun eng yaxshi vazelin:**

- Vaselinum optimum pro oculis
- Vaselinum bonum pro oculis
- Vaselinum melior pro oculis
- Vaselinum peior pro oculis

**189. Iboraning to'g'ri tarjimasini toping: Seftriaksonning natriyli tuzi:**

- Ceftriaxonum - natrium
- Ceftriaxonum - natrium
- Sol. Ceftriaxonum - kalii
- Natrium - ceftriaxonum

**190. M. f. mucil. retsept iborasi-ning to'liq shakli va tarjimasini qaysi javobda keltirilgan?**

- Misce fiat mucilago -shilimshiq modda hosil bo'lguncha aralashtir
- Misce fiat mucilo -shilimshiq modda hosil bo'lguncha aralashtir
- Misce fiat mucil pilulae -murakab kukun bo'lguncha aralashtir
- Misce fiat mucil pilulae -murakab aerosol bo'lguncha aralashtir

191. Yozilgan retsept yana takrorlanishi kerak bo'lsa retseptda qanday lotincha so'zlar yoziladi?

- a. Repete, Repetatur
- b. Verte, Audi
- c. Statim, Verte
- d. Citissime, Bis

192. quantum satis iborasi qanday tarjimaga ega?

- a. keragicha
- b. ortig'icha
- c. kamgina
- d. kerak emas

193. in char. cer. retsept qisqartmasining to'liq shakli qanday?

- a. in charta cerata
- b. infarctus charctus ceratus
- c. insultus charctus ceratus
- d. in capsulis gelatinosis

194. "Ol: "Pirkofen" tabletkalaridan 10 dona" retsept iborasida dori nomi qanday tarjima qilinadi?

- a. Recipe: Tabulettas "Pyrcophenum" numero 10.
- b. Recipe: Tabulettam "Pyrcophenum" numero 10.
- c. Recipe: Tabulettis "Pyrcophenum" numero 10.
- d. Recipe: Tabulettae "Pyrcophenum" numero 10.

195. "Evkomiyaning suyuq so'rimi (ekstrakti)dan" retsept iborasini tarjima qiling.

- a. Extracti Eucomiae fluidi
- b. Extractum fluidi Eukomia
- c. Eucomia fluidum extracti
- d. Extractum Eukomia fluidum

196. Tarjima qiling: "Bir sutkada qo'llaniladigan doza". pro ...

- a. dosi
- b. dosis
- c. doses
- d. die

197. "Marvaridgulning spirtli eritmasidan" iborasining tarjimasi (Gen.Sing.)ni toping.

- a. tincturae Convallariae
- b. tinctura Calendulae
- c. solutio Leonuri spiritosa
- d. decoctum calendula

198. To'g'ri qo'yilgan qo'shimchalarni toping: Rp.: Tinctur... Valerian... simpl....

- a. -ae/ -ae/ -icis
- b. -a/ -a/ -ex
- c. -as/ -am/ -icis
- d. -ae/ -a/ -ex

199. "Yordamchi dori vositasi" so'zining lotincha to'g'ri javobini toping.

- a. remedium adiuvars
- b. medicamentum dosis
- c. remediim corrigens
- d. medicamentum amarum

200. Retseptni to'ldiring:

Rp: Tincturae Absinthii 50 ml

Tincturae Belladonae 100 ml

...

Signa.

- a. Misce. Da.
- b. Da tales doses N 10
- c. Aqua destillata
- d. Sterilisa. Da.

FARMATSEVTİK TERMINOLOGIYA BO'YICHA İLOVALAR

RAVİSHLAR (ADVERBIA)

ADVERBIA	RAVISHLAR
ana	teng
ibi	u yerda
interdum	ba'zan
gratis	tekin
saepe	tez-tez
semper	doimo
statim	darhol
ubi	qayerda
aseptice	yuqumsizlantiruvchi
male	yomon
modice	o'rtamiyona
bis	ikki marta
optime	eng yaxshi
calide	issiq holda
caute	ehtiyotlik bilan
longe subtilissimus, a, um	eng mayda
perpetuo	doimo
certe	har xil
praecipue	asosan
quantum libet	istalgancha
citissime	juda ham tez
quantum satis	keragicha
continue	to'xtovsiz
dextrā	o'ngda
recte	to'g'ri
exacte	aniq
sero	kechki
frigide	sovuq holda
sinistrā	chapda



subīto	to'satdan
grosse	dag'al
tarde	oxirida
iucunde	yoqimli
tuto	xavfsiz
lente	sekin

SIFATLARDAN YASALGAN RAVISHLAR

ADJECTIVUM	SIFAT	ADVERBIA	RAVISH
acūtus, a, um	o'tkir	acūte	o'tkir
latus, a, um	keng	late	keng
aeger, gra, grum	zaif	aegre	zaif
citus, a, um	tez	cito	tez
creber, bra, brum	qalin	crebro	qalin
multus, a, um	ko'p	multo	ko'p
perpetus, a, um	doyimiy	perpetuo	doyimo
postrēmus, a, um	oxirgi	postrēmo	oxirgi
primus, a, um	birinchi	primo	birinchidan
secundus, a, um	ikkinchi	secundo	ikkinchidan
serus, a, um	kechki	sero	kechki
subītus, a, um	to'satdan	subīto	to'satdan
tutus, a, um	xavfsiz	tuto	xavfsiz
rarus, a, um	kamyob	raro, rare	kamyob
verus, a, um	haqiqiy	vero, vere	haqiqiy
acer, acris, acre	o'tkir	acrīter	o'tkir
brevīs, e	qisqa	brevīter	qisqa
simplex, ĩcis	oddiy	simplicīter	oddiy
diligens, ntis	serharakat	diligenter	serharakat
recens, ntis	yangi, aynima- gan, buzilmagan	recenter	yangi, aynima- gan, buzilmagan
difficīlis, e	og'ir	difficile	og'ir
multus, a, um	ko'p	multum	ko'p
facīlis, e	yengil	facīle	yengil



pars, rtis <i>f</i>	qism	partim	qisman
separāre	chegaralamoq	separātim	chegaralangan

RAVISHLARNING DARAJALARI

<i>Positivus</i>	<i>Comparativus</i>	<i>Superlativus</i>
<b>oddiy</b>	<b>qiyosiy</b>	<b>orttirma</b>
<b>alte</b>	<b>altius</b>	<b>altissīme</b>
<i>yuqori</i>	<i>yuqoriroq</i>	<i>eng yuqori</i>
<b>cito</b>	<b>citius</b>	<b>citissīme</b>
<i>tez</i>	<i>tezroq</i>	<i>eng tez</i>
<b>facīle</b>	<b>facilius</b>	<b>facillīme</b>
<i>yengil</i>	<i>yengilroq</i>	<i>eng yengil</i>
<b>acrīter</b>	<b>acrius</b>	<b>acerrīme</b>
<i>o'tkir</i>	<i>o'tkirroq</i>	<i>eng o'tkir</i>
<b>bene</b>	<b>melius</b>	<b>optīme</b>
<i>yaxshi</i>	<i>yaxshiroq</i>	<i>eng yaxshi</i>
<b>male</b>	<b>peius</b>	<b>pessīme</b>
<i>yomon</i>	<i>yomonroq</i>	<i>eng yomon</i>
<b>magnopĕre</b>	<b>magis</b>	<b>maxīme</b>
<i>katta</i>	<i>kattaroq</i>	<i>eng katta</i>
<b>multum</b>	<b>plus</b>	<b>plurīmum</b>
<i>ko'p</i>	<i>ko'proq</i>	<i>juda ko'p</i>
<b>non multum</b>	<b>minus</b>	<b>minīme</b>
<i>kam</i>	<i>kamroq</i>	<i>eng kam</i>

RETSEPTURA VA AMALIY MEDITSINADA QO'LLANILUVCHI RAVISHLAR  
LOTIN RAVISHLARINING YUNON TILIDAGI MUQOBILLARI

<i>Lotin-cha</i>	<i>Yunon-cha</i>	<i>Ma'nosi</i>	<i>Examples</i>	<i>Misollar</i>
<b>bene</b>	<b>eu</b>	yaxshi	<b>eupnoĕ, es <i>f</i></b>	teng o'lchamli nafas olish
<b>saepe</b>	<b>pollakis</b>	tez-tez	<b>pollakiuria, ae <i>f</i></b>	tez-tez siydik chiqarish

<b>multum</b>	<b>poly</b>	ko'p	<b>polypus, n m</b>	polip, organning yuzasida shakllangan o'sma
---------------	-------------	------	---------------------	---

**VAZN, O'LCHOV, HAJM, FOIZ BELGILARI**

1,0	<b>gramma unum</b>	bir gramm
2,0	<b>grammāta duo</b>	ikki gramm
3,0	<b>grammāta tria</b>	uch gramm
4,0	<b>grammāta quattuor</b>	to'rt gramm
5,0	<b>grammāta quinque</b>	besh gramm
0,1	<b>decigramma unum</b>	o'ndan bir gramm, bir detsigramm
0,2	<b>decigrammāta duo</b>	o'ndan ikki gramm, ikki detsigramm
0,3	<b>decigrammāta tria</b>	o'ndan uch gramm, uch detsigramm
0,4	<b>decigrammāta quattuor</b>	o'ndan to'rt gramm, to'rt detsigramm
0,5	<b>decigrammāta quinque (semigramma)</b>	o'ndan besh (yarim) gramm, besh detsigramm
0,01	<b>centigramma unum</b>	yuzdan bir gramm, bir sentigramm
0,02	<b>centigrammāta duo</b>	yuzdan ikki gramm, ikki sentigramm
0,03	<b>centigrammāta tria</b>	yuzdan uch gramm, uch sentigramm
0,04	<b>centigrammāta quattuor</b>	yuzdan to'rt gramm, to'rt sentigramm
0,05	<b>centigrammāta quinque</b>	yuzdan besh gramm, besh sentigramm
0,001	<b>milligramma unum</b>	mingdan bir gramm, bir milligramm
0,002	<b>milligrammāta duo</b>	mingdan ikki gramm, ikki milligramm
0,003	<b>milligrammāta tria</b>	mingdan uch gramm, uch milligramm
0,004	<b>milligrammāta quattuor</b>	mingdan to'rt gramm, to'rt milligramm
0,005	<b>milligrammāta quinque</b>	mingdan besh gramm, besh milligramm
1 ml	<b>millilitrum unum</b>	bir millilitr
2 ml	<b>millilitra duo</b>	ikki millilitr
3 ml	<b>millilitra tria</b>	uch millilitr
4 ml	<b>millilitra quattuor</b>	to'rt millilitr

10 ml	<b>millilitra decem</b>	o'n millilitr
100 ml	<b>millilitra centum</b>	yuz millilitr
180 ml	<b>millilitra centum octoginta</b>	bir yuz sakson millilitr
200 ml	<b>millilitra ducenta</b>	ikki yuz millilitr

**Eslatma:** Millilitrdan kam suyuqlik miqdori tomchilab o'lchanadi. Tomchi miqdori guttas so'zidan keyin rim raqamida yoziladi.

### RETSEPTURADA FOIZLAR

	<b>Pars</b>	qism
	<b>Partes</b>	qismlar
1%	<b>una pars pro centum</b>	bir foiz
2%	<b>duae partes pro centum</b>	ikki foiz
3%	<b>tres partes pro centum</b>	uch foiz
10%	<b>decem partes pro centum</b>	o'n foiz
0,5%	<b>dimidia pro centum</b>	yarim foiz
5,5%	<b>quinque partes et dimidia pro centum</b>	besh yarim foiz
0,1%	<b>decima (pars) pro centum</b>	o'ndan bir foiz
0,2%	<b>duae decimae (partes) pro centum</b>	o'ndan ikki foiz
0,01%	<b>centesima (pars) pro centum</b>	yuzdan bir foiz
0,03%	<b>tres centesimae (partes) pro centum</b>	yuzdan uch foiz
0,001%	<b>millessima (pars) pro centum</b>	mingdan bir foiz
0,002%	<b>duae millessimae (partes) pro centum</b>	mingdan ikki foiz

Protsent (foiz) (pro - uchun, centum - yuz) -aniq miqdorning yuzdan bir qismi.

**Eslatma:** Lotin tilidagi foizlarning o'qilishida qoidaga ko'ra pars, partes so'zi o'qilmaydi.

### Sonlar bilan ifodalangan lotin xalq hikmatlari

<b>Primus inter pares</b>	Tenglar ichida birinchi
<b>Tertium non datur</b>	Uchinchisi ortiqcha

<b>Tres faciunt collegium</b>	Uch kishi yig'ilish tuzadi (ucharo va) (Sud tarkibi Rim qonunida aniqlangan holat)
<b>Una hirundo non facit ver</b>	Bitta qaldirg'och bilan bahor boshlanmaydi
<b>Vox unius - vox nullius</b>	Bir ovoz - ovoz emas
<b>Una voce</b>	Bir ovozdan
<b>Nemo servus potest duobus dominis servire</b>	Hech bir qul ikki xo'jayinga xizmat qila olmaydi

## PRONOMĪNA - OLMOSHLAR

### Kishilik olmoshlari

<b>ego</b>	men
<b>tu</b>	sen
<b>nos</b>	biz
<b>vos</b>	siz
<b>is, ea, id</b>	o'sha
<b>ille, illa, illud</b>	u, shu
<b>me cum</b>	men bilan
<b>te cum</b>	sen bilan
<b>nobis cum</b>	biz bilan
<b>vobis cum</b>	siz bilan
<b>nostrum</b>	bizdan
<b>vestrum</b>	sizdan

### Kishilik olmoshlarining turlanishi

Singularis				
<i>Nom.</i>	<b>ego</b>	men	<b>tu</b>	sen
<i>Gen.</i>	<b>mei</b>	mening	<b>tui</b>	sening
<i>Dat.</i>	<b>mihi</b>	menga	<b>tibi</b>	senga
<i>Acc.</i>	<b>me</b>	meni	<b>te</b>	seni
<i>Abl.</i>	<b>me</b>	mendan	<b>te</b>	sendan



Pluralis				
<i>Nom.</i>	<b>nos</b>	biz	<b>vos</b>	siz
<i>Gen.</i>	<b>nostri</b>	bizning	<b>vestri</b>	sizning
<i>Dat.</i>	<b>nobis</b>	bizga	<b>vobis</b>	sizga
<i>Acc.</i>	<b>nos</b>	bizni	<b>vos</b>	sizni
<i>Abl.</i>	<b>nobis</b>	bizdan	<b>vobis</b>	sizdan

O'zlik olmoshlari

<i>Nom.</i>	-	-
<i>Gen.</i>	<b>sui</b>	o'zining
<i>Dat.</i>	<b>sibi</b>	o'ziga
<i>Acc.</i>	<b>se</b>	o'zini
<i>Abl.</i>	<b>se</b>	o'zidan

Egalik olmoshlari

<b>meus, a, um</b>	meniki
<b>tuus, a, um</b>	seniki
<b>suus, a, um</b>	o'ziniki
<b>noster, tra, trum</b>	bizniki
<b>vester, tra, trum</b>	sizniki

Ko'rsatish olmoshlari

<b>hic, haec, hoc</b>	bu
<b>is, ea, id</b>	shu
<b>ille, illa, illud</b>	o'sha
<b>idem, eadem, idem</b>	o'shaning o'zi

Nisbiy olmoshlar

<b>qui, quae, quod</b>	qaysiki, -gan
------------------------	---------------

Nisbiy olmoshlarning turlanishi

Singulāris	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
<i>Nom.</i>	qui	quae	quod
<i>Gen.</i>	qujus	qujus	qujus
<i>Dat.</i>	qui	qui	qui

<i>Acc.</i>	quem	quam	quod
<i>Abl.</i>	quo	qua	quo
<b>Plurālis</b>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
<i>Nom.</i>	qui	quae	quae
<i>Gen.</i>	quōrum	quārum	quōrum
<i>Dat.</i>	quibus	quibus	quibus
<i>Acc.</i>	quos	quas	quae
<i>Abl.</i>	quibus	quibus	quibus

**Nisbat olmoshlari**

<b>talis, e</b>	shunday
<b>qualis, e</b>	qanday

**Olmoshli sifatlar**

<b>solus, a, um</b>	yakka, yolg'iz
<b>totus, a, um</b>	hammasi, butun
<b>nullus, a, um</b>	hechqanday
<b>alius, a, um</b>	boshqa

**Ular I guruh sifatlaridek turlanadi**

<i>Nom.</i>	<b>solus, a, um</b>	<i>yakka</i>
<i>Gen.</i>	<b>solius</b>	<i>yakkaning</i>
<i>Dat.</i>	<b>soli</b>	<i>yakkaga</i>
<i>Acc.</i>	<b>solum(m), solam(f), so- lum(n)</b>	<i>yakkani</i>

**Retseptda ko'p qo'llaniluvchi olmoshlar**

<b>pro me</b>	men uchun
<b>pro auctōre</b>	muallif uchun
<b>per se</b>	toza holda
<b>e quō, e quā</b>	qaysidan
Massae pilulārum, e qua for- mentur pilulāe numēro 30	30 dona hab dori hosil bo'ladi- gan hab dori massasi (miqdori)
<b>qui</b>	qaysiki
<b>cui adde</b>	qo'shib, qaysiki qo'sh

Misce, ut fiat emulsum, cui adde tincturae Opii simplicis guttas X	opiyning oddiy tindirmasidan o'n tomchi qo'shib, emulsiya hosil bo'lguncha aralashtir
<b>tales</b>	shunday
<b>Da (Dentur) tales doses numero...</b>	shunday miqdorda ... dona ber (berilsin)
<b>quantum</b>	qancha
<b>quantum satis</b>	kerakli miqdorda
<b>quantum libet</b>	istalgan miqdorda

**Lotin tilidagi olmoshlarning yunoncha ekvivalentlari**

<i>Lotin olmoshlari</i>	<i>Yunon olmoshlari va ularning negizlari</i>	<i>Ma'nosi</i>
<b>alius, a, um</b>	allos all(o)	boshqa
<b>ipse, a, um</b>	autos auto	o'zi, xususiy

**DORI SHAKLLARI NOMLANISHI. QATTIQ, YUMSHOQ, GAZSIMON VA SUYUQ DORI SHAKLLARI**

Patologik holat, kasallikni davolash yoki oldini olish uchun qo'llaniladigan moddalar dori vositasi (remedia, medicamenta) deb ataladi.

Tayyor dorining ko'rinishi dorilarning shakli (forma medicamentorum) deb ataladi. Masalan: tabletka (tugmachasimon) yoki kukun, surtma yoki malham, eritma yoki aralashma.

Dori shakllari officinal (officina - apteka, ustaxona) yoki standart bo'lishi mumkin. Ular farmatsevtik zavod yoki fabrikalarda Davlat Farmakopiyasining ma'lumotlari, tasvirlari asosida tayyorlanadi.

Shifokorning retsepti asosida dorixonada tayyorlangan dori shakllari magistral dori shakllari (magister, tri, m - o'qituvchi, rahbar) deb ataladi.

Moddalarning zichlik darajasiga qarab dori shakllari qattiq (durae), suyuq (fluidae), yumshoq (molles) va aerosol (gazsimon) (aerosola) turlariga bo'linadi.

- Ba'zi dori shakllari alohida gurihlarga bo'linadi:
- formae medicamentorum pro injectionibus (inyektsiya uchun dori shakllari);
  - formae medicamentorum pro oculis (ko'z uchun dori shakllari);
  - formae medicamentorum pro infantibus (chaqaloqlar va 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun dori shakllari).

Barcha dori shakllari qisqartirilgan va kengaytirilgan tarzda yoziladi.

Retseptda qisqartirilgan tarzda dori nomi yozilishida Recipe: (Rp.:) so'zidan so'ng dori shakli, dorivor o'simlikning nomi va umumiy miqdori ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: Streptocīdi subtilissīmi 20,0

Da. Signa: Tashqariga qo'llash uchun.

Retseptda kengaytirilgan tarzda dori nomi yozilishida Recipe: (Rp.:) so'zidan so'ng dori tarkibini hosil qiluvchi barcha dorivor moddalar nomi, ularning miqdorlari, keyin shifokorning dorixona xodimiga ma'lum dori shaklida va doza miqdorida dorini tayyorlash to'g'risidagi ko'rsatmasi lotin tilida yoziladi. Masalan:

Rp.: Dibazōli

Papaverīni hydrochorīdi ana 0,02

Phenobarbitāli 0,01

Sacchāri 0,3

Misce, fiat pulvis

Da tales doses numĕro 10

Signa: 1 dona kukundan kuniga 3 mahal.

### QATTIQ DORI SHAKLLARI (*FORMAE MEDICAMENTŌRUM DURAE*)

Qattiq dori shakllari quyidagicha bo'ladi:

Kukunlar – pulvēres (pulvis, ěris *m*)

Kapsulalar – capsūlae (capsūla, ae *f*)

Tabletkalar – tabulettae (tabletta, ae *f*)

Drajelar – dragee (dragee *n* turlanmaydi.)

Granulalar – granŭla (granŭlum, i *n*)

Dorivor yig'malar – species, ěrum *f*

### KUKUNLAR (*PULVERES*)

Kukunlar – pulvēres (pulvis, ěris, *m*)

Kukun – ichga qo'llash uchun (ad usum internum, pro usu interno) va tashqariga qo'llash uchun (ad usum externum, pro usu externo) mo'ljallangan quyuq sepma dori shaklidir.

Kukunlar maydalik darajasiga qarab bir qancha turlarga bo'linadi:

– mayda (pulvis subtilis);

– o'rtacha mayda (pulvis modice subtilis);

– eng mayda (pulvis subtilissimus);

– juda-juda mayda (pulvis longe subtilissimus);

– yirik (pulvis grossus);



– oʻrtacha yirik (pulvis modice grossus);

– eng yirik (pulvis longe grossissimus).

Kukunlar oddiy va murakkab boʻladi: oddiy kukun (pulvis simplex) – bitta moddadan iborat boʻladi, murakkab kukun (pulvis compositus) – ikki va undan ortiq dori moddasidan iborat boʻladi.

Koʻpincha kukunlar 0,1 grammdan 1,0 grammgacha alohida dozalarga boʻlingan (pulveres divisi), aniq dozalangan (ad usum internum), bir marta qabul qilishga moʻljallangan (pro dosi) boʻladi. Agar dozalangan kukundagi dori moddasi 0,1 grammdan kam boʻlsa, kukun massasini koʻpaytirish uchun oddiy shakar (Saccharum) yoki sut shakari (Saccharum lactis) qoʻshiladi.

Alohida dozalarga boʻlinmagan kukunlar (pulveres indivisi) – 1,0 grammdan 100 grammgacha boʻlgan tashqariga qoʻllash uchun ishlatiladi.

Bir marta qabul qilishga moʻljallangan (pro dosi) yoki bir kunlik (sutkalic) dozadagi (pro die) kukunlar qogʻoz kapsulalarda (in capsulis chartaceis), qogʻoz xaltachalarda (in sacculis chartaceis), mumli yoki parafinli qogʻozda (in charta cerata, in charta paraffinata), qutichada (in scatulis) qadoqlangan boʻladi.

Oddiy dozalangan kukun retseptda yozilganda Recipe: soʻzidan keyin kukun soʻzi dori moddasining nomi, bir marta qabul qilishga moʻljallangan miqdori, soʻngra, bir martalik dozadan qancha dona berilishi koʻrsatiladi.

Rp.: Pulveris foliorum Digitalis 0,1

Dentur tales doses numero 12

Signa: 1 dona kukundan kuniga 3 mahal.

Murakkab dozalangan kukun retseptda yozilganda dori tarkibini hosil qiluvchi barcha moddalarning nomi, aralashtirish haqida koʻrsatma, bir martalik dozadan qancha dona berilishi koʻrsatiladi.

Rp.: Bismuthi subnitrat 0,35

Magnesii carbonatis

Natrii hydrocarbonatis ana 0,2

Pulveris radices Frangulae

Pulveris rhizomatis Calami ana 0,025

Misce, ut fiat pulvis

Da tales doses numero 30

Signa: 1 dona kukundan kuniga 3 mahal.

Rp.: Methyleni coerulei 0,03

Natrii salicylatis 0,3

Misce, fiat pulvis

Da tales doses numero 6 in capsulis amylaceis

Signa: 1 kapsuladan kuniga 2 mahal.

“Pulvis” soʻzi retseptning boshida oʻsimlik qismi va oʻsimlik nomidan oldin yoziladi. Masalan:

Pulveris radīcis Rhei –ravoch ildizining kukunidan;  
Pulveris foliōrum Digitālis –Angushvonagul barglarining kukunidan;  
Pulveris radīcis Clycyrrhīzae composīti – Shirinmiya ildizining murakkab kukunidan;

Pulveris Apilāci –Apilak kukunidan;

Pulveris antiasthmaticī –nafas bo'g'ilishiga qarshi kukundan.

Dozalanmagan kukunlar sepmalar (aspersiōnes) kabi tashqariga qo'llash uchun (ad usum externum) ishlatiladi. To'ldiruvchi sifatida kraxmal (Amylum) va talk (Talcum) dan foydalaniladi.

Rp.: Aspersiōnis Anaesthesīni 75 % - 10,0

Da. Signa: Tashqariga qo'llash uchun.

Rp.: Boli albae

Amyli ana 0,1

Talci 5,0

Misce, fiat pulvis

Da. Signa: Sepma.

### KAPSULALAR (CAPSULAE)

Yoqimsiz hid, achchiq ta'm, shilliq qavatni yemiruvchi va tishlarni zararlovchi moddalar kapsulalarda ishlab chiqariladi. Kapsulalar qobiqda – in oblatiis, kraxmalli kapsulalarda – in capsulis amylaceis va jelatinli kapsulalarda – in capsulis gelatinosis bo'ladi.

Jelatinli kapsulalar hayvon kleyi, suv va glitserindan tayyorlanmoqda. Jelatinli kapsulalar yumshoq (capsulae molles) yoki elastik (capsulae elasticae) va qattiq (capsulae durae) yoki qopqopchali (capsulae operculatae) turlariga bo'linadi.

Teri ostiga mahkamlanadigan kapsulaar –paletlar (pelettae), butilka shaklidagi kapsulalar –tubatinlar (tubatīnae)deb nomlanadi.

Kapsulalar retseptda yozilganda kapsulaning turi Subscriptio qismida ko'rsatiladi.

Rp.: Olei jecōris Aselli 5 ml

Da tales doses numēro 30 in capsūlis gelatinōsis elastīcis

Signa: 3 kapsuladan kuniga 2 mahal.

Rp.: Vinylīni 1,4

Da tales doses numēro 60 in capsūlis gelatinōsis

Signa: 3 – 5 kapsuladan kuniga 1 mahal.

### TABLETKALAR (TABULETTAE)

Tabletkalar ichga va tashqariga qo'llash uchun dozalangan qattiq dori shaklidir.

Tabletkalar yassi, aylana, ikki do'mboqli, tuxumsimon yoki boshqa plastinka shaklida bo'ladi. Agar ularning tarkibida zaharli moddalar bo'lsa, tabletkalar suiyamli - qizil rangda, boshqalari ko'k rangda ranglanadi.

Agar dori moddasi juda kam miqdorda bo'lsa, tabletkalar tarkibida ko'proq to'ldiruvchi moddalar: shakar, glyukoza, Natriy gidrokarbonat, Kalsiy fosfat va boshqalar qo'shiladi.

Tabletkalar preslangan tabletkalar (*tabulettae compressae*), shakl berilgan tabletkalar (*tabulettae friabiles*) va qoplamali tabletkalar (*tabulettae obductae*) turlariga bo'linadi.

Tabletkalarda qoplama vazifasini shakar, sut shakari, dekstrin, kraxmal va boshqalar bajaradi.

Tabletkalar og'iz orqali (*oriblettae seu tabulettae perorales*), til osti orqali (*resoriblettae seu tabulettae sublinguales*); inyektsiyali eritmalar uchun (*injetablettae seu tabulettae pro injectionibus*); chayqash uchun eritma tayyorlaydigan (*solublettae seu tabulettae pro gargarismatis*) turlariga bo'linadi.

Shartli nomlanishga ega bo'lmagan tabletkalar retseptlarda yozilganda, dori moddasining nomi ko'rsatiladi, dozasi belgilanadi, *Subscriptio* qismida miqdori va shakli yoziladi. Masalan:

Rp.: *Extracti Belladonnae* 0,013  
*Natrii hydrocarbonatis* 0,25  
 Da tales doses numero 6 in tabulettis  
 Signa: 1 tabletkadan kuniga 3 mahal.

Standart bo'lgan tabletkalar dozalari belgilanmagan hollarda ham retseptlarda yozilishi mumkin. Bunday hollarda retseptda dori shaklining nomi *Accusativus Pluralis* (*Tushum kelishigi ko'plik soni*)da turishi kerak. Masalan:

Rp.: *Tabulettas "Cornella" obductas* N 50  
 Da. Signa: 1 tabletkadan kuniga 3 mahal.

Shunindek, dozalari ko'rsatilgan bitta tarkibdan iborat tabletkalar retseptda yuqoridagi qoida asosida yoziladi. Masalan:

Rp.: *Tabulettas Platyphyllini hydrotartratis* 0,005 numero 6  
 Da. Signa: 1 tabletkadan kuniga 2 - 3 mahal.

### DRAJELAR (*DRAGEE*)

Draje (*dragee n* - turlanmaydi) -bu dori va yordamchi moddalarni shakar granularida qavatma-qavat qo'yish yo'li bilan tayyorlangan ichga qo'llash uchun ishlatiladigan dozalangan qattiq dori shaklidir. Draje tarkibiga asosiy dori moddasi bilan yordamchi vositalar -shakar, bug'doy uni, kraxmal kleyi kiradi. Vitaminlar, ba'zi garmonal dorilar va boshqa dori vositalari draje ko'ri-nishida chiqariladi. Draje retseptda qisqartirilgan usulda yoziladi.

Rp.: *Dragee "Renivitum"* numero 100

Da. Signa: 1 drajedan kuniga 3 mahal ovqatdan 10-15 daqiqa oldin.



### GRANULALAR (*GRANULA*)

Granularlar (*granulum, i, n*) –bu 0,05 grammgacha massada turli don va bo-shoq shaklida ichga qo'llash uchun (*ad usum internum*) dozalangan qattiq dori shaklidir.

Farmatsevtik sanoatda orazi granulari (*granūla Orāzi*), Plantaglyutsin granulari (*granūla Plantagluċīdi*), Glitserofosfat granulari (*granūla Glycero-phosphātis*), Bolalar uchun Natriy etazol granulari (*granūla Aethazōli-natrii pro infantibus*), "Flakarbin" granulari (*granūla "Flacarbīnum"*) va boshqalari ishlab chiqariladi.

Rp.: Granulōrum Plantagluċīdi 50,0

Da. Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 2-3 marta ovqatdan 20-30 daqiqa keyin.

### YIG'MALAR (*SPECIES*)

Dorivor o'simliklar yig'masi (*species, ei, f*) – o'simlik biror tarkibiy qismining qadoqlangan shaklidir.

Dorivor yig'malar dorivor o'simliklarning yirik yoki madalangan qismlarini o'zida namoyon etadi.

Dorivor yig'malar – barglar (*folium, i, n*), ildizlar (*radix, icis, f*), ildizpoyalar (*rhizoma, atis, n*), gullar (*flos, oris, m*), mevalar (*fructus, us, m*), urug'lar (*semen, inis, n*) va boshqalardan iborat bo'ladi. Ba'zan aralashmalarga mineral tuzlar va yog'li moylar qo'shiladi.

Rp.: Speciērum pectoralium 50,0

Da. Signa: 1 stakandan ertalab va kechqurun.

Yig'malar retseptlarda ikki usulda yoziladi: *offitsinal* – qisqartirilgan va *magistral* – kengaytirilgan.

Yig'malar damlama va qaynatmalar tayyorlash uchun (*species ad infūsa et decocta*), chekish uchun (*species fumāles*), vannalarda qo'llash uchun (*species pro balneis*) ishlab chiqariladi. Ko'pincha bemorlarning o'zi uy sharoitida ayrim dorilarni tayyorlashadi.

Rp.: Foliōrum Menthae piperitae

Florum Sambūci

Florum Tiliae ana 10,0

Misce, fiant species

Da. Signa: 3 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

### KO'Z PLYONKALARI (*MEMBRANŪLAE OPHTHALMĪCAE*)

Qattiq dori shakllariga, shuningdek, tomizg'ilar bilan birgalikda qo'llaniladigan ko'z uchun plyonkalar (*Membranūlae ophthalmīcae*) ham kiradi.



Ko'z uchun plyonkalar Neomitsin sulfat bilan (Membranūlae ophthalmīcae cum Neomycīni sulfāte),

Ko'z uchun plyonkalar Dikain bilan (Membranūlae ophthalmīcae cum Dicaīno),

Ko'z uchun plyonkalar Natriy sulfapiridazin bilan (Membranūlae ophthalmīcae cum Sulfapyridazino-natrio),

Ko'z uchun plyonkalar Florenol bilan (Membranūlae ophthalmīcae cum Florenālo) va boshqa turlarda ishlab chiqariladi.

Rp.: Membranūlas ophthalmīcas cum Dicaīno numēro 30

Da. Signa: Tashqariga qo'llash uchun.

### YUMSHOQ DORI SHAKLLARI (*FORMAE MEDICAMENTORUM MOLLES*)

Yumshoq dori shakllariga quyidagilar kiradi:

Mazlar (surtmalar) – unguenta (unguentum, i n);

Pastalar – pastae (pasta, ae f);

Shamchalar – suppositoria (suppositorium, i n);

Soqqachalar – globūli (globūlus, i m);

Ovulalar – ovūla (ovūlum, i n);

Pessariylar – pessaria (pessarium, i n);

Batsillalar – bacilli (bacillus, i m);

Plastirlar (malhamlar) – emplastra (emplastrum, i n);

Pilulalar – pilūlae (pilūla, ae f).

### MAZLAR (*UNGUENTA*)

Maz (surtma) –bu turli dori moddalari (basis) va maz asoslari (remedium constituens)dan iborat, tashqariga qo'llash uchun ishlatiladigan yumshoq dori shaklidir.

Maz asosi sifatida vazelin (Vaselinum, i n), tozalangan cho'chqa yog'i (adeps suillus depuratus yoki axungia porcinae depurata), suvli lanolin (Lanolinum anhydricum), mum (cera, ae, f) va boshqalardan foydalaniladi.

Ko'p hollarda maz mahalliy ta'sir etadi –yumshatadi va yallig'lanish jarayonini kamaytiradi.

Maxsus ko'z uchun mazlar oculenta, unguenta ophthalmīca yoki unguenta pro oculis deb ataladi.

Offitsinal va magistral mazlar bir-biridan farqlanadi, Retseptlarda offitsinal mazlar qisqartirilgan usulda, magistral mazlar kengaytirilgan usulda yoziladi. Tarkibida bitta dori moddasi mavjud maz qisqartirilgan usulda yoziladi. Masalan:

Rp.: Unguenti Hydrargyri albi 5 % 25,0

Da. Signa. Teriga surtish uchun.

Rp.: Hydrargyri oxydi flavi 0,6

Ichthyoli 0,8

Unguenti Zinci 20,0

Misce, fiat unguentum

Da. Signa: Teriga surtish uchun.

### PASTALAR (PASTAE)

Pasta (pasta, ae,f) –(unguentum, i n) bu tarkibida 25%dan ko'proq kukunsi-mon moddalar mavjud bo'lgan quyuq mazdir.

Pasta asosi sifatida vazelin (Vaselinum, i n), tozalangan cho'chqa yog'i (adeps suillus depuratus yoki axungia porcinae depurata), suvli lanolin (Lanolinum hydricum), suvsiz lanolin (Lanolinum anhydricum), mum (cera, ae,f) va boshqalar qo'llaniladi. Masalan:

Rp.: Pastae Boro-zinci-naphthalani 50,0

Da. Signa: Teriga surtish uchun.

Rp.: Acidi salicylici 1,0

Zinci oxydi

Amyli Tritici ana 12,5

Vaselini ad 50,0

Misce, fiat pasta.

Da. Signa: Teriga surtish uchun.

### SHAMCHALAR (SUPPOSITORIA)

Shamchalar, suppozitoriyalar – dozalangan yumshoq dori shaklidir.

Shamchalar oddatiy haroratda zichlik darajasiga ko'ra qattiq va tana haroratida yumshash xususiyatiga ega.

Kiritilish usuliga ko'ra shamchalar ikki turga bo'linadi:

1) rektal – suppositoria rectalia, to'g'ri ichak orqali kiritiladi (per rectum).

Ular o'tkir uchli silindrsimon yoki konussimon shaklga ega bo'lishadi.

2) vaginal – suppositoria vaginalia, qin orqali kiritiladi (per vaginam).

Ular sharsimon ko'rinishda bo'lib, soqqachalar (globuli), tuxumsimonlar – ovulalar (ovula) xolatida yoki aylana uchli yassi tana ko'rinishida bo'lib, pessariylar (pessaria) xolatida uchraydi.

3) batsillalar (bacilli) – barmoqsimon ko'rinishga ega bo'lib, siydik chiqarish kanaliga kiritiladi.

Shamchalar uchun shakl yasovchi asos sifatida kakao moyi (oleum Cacao), jelatin-glitserin aralashmasi, sintetik mahsulot va boshqa moddalar qo'llaniladi. Masalan:

- Rp.: Suppositoria biologica numëro 12  
Da. Signa: 1 shamchadan ertalab va kechqurun qo'llansin.
- Rp.: Dermatoli 0,2  
Extracti Belladonnae spissi 0,01  
Olei Cacao 2,5  
Misce, fiat suppositorium rectale  
Da tales doses numëro 6  
Signa: 1 shamchadan tunda qo'llansin.
- Rp.: Atropini sulfatis 0,0005  
Butyri Cacao quantum satis, uf fiat bacillus longitudine 5 sm et crassitudine 0,5 sm  
Dentur tales doses numëro 6  
Signa: 1 batsilladan kuniga 1 mahal.

### **MALHAMLAR (EMPLASTRA)**

Malhamlar (plastirlar) (emplastrum, i, n) – tashqariga qo'llash uchun tavsiya etiladigan yumshoq dori shaklidir. Malhamlar xona sharoitida qattiq bo'lib, tana haroratida yumshaydi va shu tufayli ular teriga yopishadi.

Malhamlar surtiladigan va surtilmaydigan turlarga bo'linadi.

Birinchi holatda dori moddalari shakl yasovchi asoslar – moylar, mumlar, kauchiklar, skipidar va boshqalar bilan qog'ozga, matoga yoki muqovaga yupqa qavat qilib surtiladi.

Ikkinchi holatda malham bemorning o'zi to'qimalarga sirta oladigan, zich massa ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Rp.: Emplastri adhaesivi ad clavos "Salipodum" 100,0

Da. Signa: Tashqariga qo'llash uchun.

Rp.: Emplastri Capsici 12 x 8.

Da. Signa: bemor bo'g'inlariga qo'yilsin.

Malhamlarga gorchichnik -xantal malham (charta sinapisata) – yupqa qavat qilib xantal kukuni bilan qoplangan qog'oz ham taalluqli bo'ladi. Gorchichniklar retseptda qisqartirilgan usulda yoziladi.

Rp.: Chartas sinapisatas numëro 10

Da. Signa: Tashqariga qo'llansin.

### **PILYULALAR (PILULAE)**

Pilyulalar (hab dorilar) (pilula, ae, f) –bu ichga qo'llash uchun mo'ljallangan, dozalangan dori shaklidir.

Pilyulalar 0.1 grammdan 0,5 grammgacha og'irlikdagi kichik soqqach shaklida ko'rinishga ega.

0,5 grammdan og'ir pilulalar boluslar (bolus, i m) deb ataladi.

Pilyula tarkibidagi dori moddasi va skakl yasovchi modda (constituens) dan pilyula massasi (massa pilularum) hosil bo'ladi. Pilyula massasi kukun va shirinmiya yoki qizilmiya ildizining ekstrakti (pulvis et extractum radices Glycyrrhizae seu Liquiritiae), glitserin va boshqa moddadan tayyorlanadi.

Tayyor pilyulalar odatda likopediy kukuni (pulvis Likopodii) yoki kraxmal (Amylum, i, n) dan, oksidlovchi pilyulalar oq loy (bolus alba) dan iborat bo'ladi.

Retseptlarda pilyulalar yozilganda pilyula massasining miqdori yozilmaydi, faqat "Massae pilulārum quantum satis, ut fiant pilūlae numēro ..." (Pilyula massasidan kerakli miqdorda, ... dona pilyula hosil bo'lguncha) deb yoziladi.

Rp.: Acīdi arsenicōsi anhydrīci 0,06

Ferri lactātis 6,0

Extracti et pulvērīs Glycyrrhīzae, ut fiant pilūlae numēro 60

Da. Signa: 1 piluladan kuniga 2 mahal.

Rp.: Strychnīni nitrātis 0,03

Massae pilulārum quantum satis, ut fiant pilūlae numēro 30.

Da. Signa: 1 pilyuladan kuniga 3 mahal

### SUYUQ DORI SHAKLLARI (FORMAE MEDICAMENTORUM FLUIDAE)

Suyuq dori shakllari quyudagicha turlarga bo'linadi:

Eritmalar – solutiōnes (**solutio, ōnis, f**);

Damlamalar – infūsa (infūsum, i, n);

Qaynatmalar – decocta (decoctum, i, n);

Tomchilar – guttae (gutta, ae, f);

Tindirmalar (spirtli eritmalar) – tinctūrae (tinctūra, ae, f);

Aralashmalar (miksturalar) – mixtūrae (mixtrūra, ae, f);

Suspenziyalar – suspensiōnes (**suspensio, ōnis, f**);

Emulsiyalar – emulsa (emulsum, i, n);

Ekstraktlar (so'rimlar) – extracta (extractum, i, n);

Shilimshiq moddalar – mucilagīnes (mucilāgo, īnis, f);

Linimentlar (suyuq sirtmalar) – linimenta (linimentum, i, n);

Aerozollar (gazsimon moddalar) – aērosōla (**aērosolum, i, n**);

Balzamlar – balsāma (balsāmum, i, n).

Suyuq dori shakllari qismi taniqli rimlik shifokor Galen (eramizning 131-210 yillarida yashagan) nomidan olinganligi uchun galenli va galensiz preparatlarga bo'linadi.

Galenli dori moddalari – offitsinal dori shakllaridir. Ular farmatsevtik zavod va fabrikalarda o'simlik xom-ashyosidan ta'sir etuvchi moddalar (gluykozidlar, alkaloidlar) ni parchalash yo'li bilan tayyorlanadi. Parchalovchi vositalar spirt, suv bilan spirt, spirt bilan efir va boshqalar bo'lishi mumkin. Parchalovchi dori moddalaridan tashqari galenli dori moddalarida kam miqdorda vositachi nar-



salar – oqsillar, shilliqlardan iborat bo'ladi. Galenli dori moddalaridan ko'proq tindirma va ekstraktlar qo'llaniladi.

Galensiz dori moddalari – o'simlik xom-ashyosini parchalash yo'li bilan vositachi narsalardan imkon qadar juda ham tozalangan, ko'proq yurak glyukozidlari: bahorgi gulizardako'ti (herba Adonidis vernalis), marvaridgul (Convallaria), angushvonagul barglari (folia Digitalis) va boshqalardan iborat bo'ladi. Galensiz dori moddalari barcha turdagi inyektsiyalar uchun qo'llaniladi. Ba'zan ular ichga qo'llash uchun tabletko'rinishida ishlab chiqariladi.

### **ERITMALAR (SOLUTIONES)**

Eritmalar (Solutiōnes) – (qattiq, suyuq yoki gazsimon) dori moddalarini erituvchilarda to'liq eritish yo'li bilan tayyorlangan, bir jinsli shaffof suyuqlikdir.

Erituvchilar destirlangan suv (aqua destillāta), etil spirti (Spirītus aethylīcus 95%, 90%, 70%), glitserin (Glycerinum,i,n), vazelin (Vaselinum,i,n), zaytun moyi (oleum Olivarum), shaftoli moyi (oleum Persicorum), bodom moyi (oleum Amygdalārūm), kungaboqar moyi (oleum Helianthi) bo'lishi mumkin.

Erituvchilarning turiga qarab eritmalar quyidagilarga bo'linadi:

- suvli eritmalar (solutiōnes aquōsae);
- spirtli eritmalar (solutiōnes spirituōsae);
- moyli eritmalar (solutiōnes oleōsae seu olea medicāta);
- glitserunli eritmalar (solutiōnes glycerinātae).

Qabul qulinishiga ko'ra eritmalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Inyektsiya uchun eritmalar (Solutiōnes pro injectionībus);
2. Tashqariga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum externum). Ular tomoqni chayqash (g'arg'ara qilish) uchun (gargarismāta), losyonlar (lotiōnes), og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun (collutōria), huqna, klizma uchun (cnemāta seu clysmāta), moylash uchun (litūrae), sepish, purkash uchun (perlotiōnes), surtish uchun (frictiōnes) va boshqalarga bo'linishi mumkin.
3. Ichga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum seu solutiōnes pro anaesthesiā).

Eritmalar ampulalarda (in ampullis), shprints-tubalarda (in spritz-tubūlis), to'g'ri ichak pipetkalarida, 3-5 ml.dan mikrolizm uchun (inrectiolis) eritmalar skaklida ishlab chiqariladi.

Eritmalar retseptlarda qisqartilgan va kengaytilgan usullarda yoziladi.

Eritmalarni qisqartirilgan usulda retseptlarda yozishda Recīpe (Rp. :) so'zidan so'ng dori shakli – Solutionis yoziladi hamda dori moddasining nomi, foizlarda eritmaning darajasi va dorining miqdori yoziladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Menthōli oleōsae 1 % - 10 ml

Da. Signa: 2 – 3 tomchidan kuniga 3 marta.

Kengaytirilgan usulda yozilgan retseptlarda eritmalar **Recīpe (Rp.:**) so'zidan so'ng dori moddasining nomi, uning miqdori va erituvchisi yoziladi. Masalan:

Rp.: Mehthōli 0,1  
Phenylīi salicylātis 0,3  
Olei Vaselīni 9,6 ml  
Misce. Da.  
Signa: Burunga 2-3 tomchidan kuniga 2 mahal.

### INYEKSIYA UCHUN ERITMALAR (*SOLUTIŌNES PRO INJECTIONĪBUS*)

Inyektsiya uchun eritmalar (*Solutiōnes pro injectionĪbus*) teri ostiga quyish uchun, mushaklar orasiga quyish uchun, vena ichiga quyish uchun va boshqa eritmalar maqsadida ampulalarda ishlab chiqariladi.

Inyektsiyaning sterillanishi to'g'risida retseptning *Subscriptio* qismida yoziladi. U yerda in ampullis (ampulalarda), *pro injectionĪbus* (inyektsiya uchun) so'zlari yoziladi. Ampulada bo'lmagan eritmalar retseptlarda yozilganda *Sterilīsa!* (Qaynatib tozala!), *Sterilisētur* (Qaynatib tozalansin!) so'zi yoziladi. Masalan:

Rp.: *Solutiōnis Magnēsii sulfātis* 25 % - 10 ml  
Da tales doses numĕro 5 in ampullis  
Signa: 10 ml.dan har kuni mushak orasiga yuborilsin.

Rp.: *Solutiōnis Acetylcysteīni* 10 % *pro injectionĪbus* 2 ml numĕro 10 in ampullis.  
Da. Signa: 2 ml.dan kuniga 3 mahal mushak orasiga yuborish uchun.

Dorixonada tayyorlanadigan inyektsiya uchun eritmalar retseptlarda yozilishida retseptning *Subscriptio* qismida "*Sterilisētur!*" (Qaynatib tozalansin!) yoki "*Sterilīsa!*" (Qaynatib tozala!) deb yoziladi. Bunday hollarda dori moddasining nomi va miqdori hamda erituvchilari yozilgan bo'ladi. Masalan:

Rp.: *Solutiōnis Natrii iodīdi* 10 % - 200 ml  
*Sterilisētur!* Da in vitro nigro.  
Signa: 10 ml.dan mushak orasiga yuborilsin.

Ampulalardagi inyektsiya uchun eritmalar doza miqdori ko'rsatib yoziladi.

Masalan:

Rp.: *Solutiōnis Morphīni* 1 % 1 ml  
Dentur tales doses numĕro 6 in ampullis  
Signētur: 1 ml.dan teri ostiga.

Retseptlarda spirtli yoki moyli eritmalar yozilganda albatda erituvchisining turi ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: *Solutiōnis Camphōrae oleōsae* 20 % - 2 ml  
Da tales doses numĕro 6 in ampullis  
Signa: 2 ml.dan mushak orasiga yuborilsin.

**TASHQARIGA QO'LLASH UCHUN ERITMALAR (*SOLUTIŌNES AD USUM EXTERNUM*)**

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar (*Solutiōnes ad usum externum*) retseptlarda qisqartirilgan va kengaytirilgan usulda yoziladi. Retseptlarda qisqartirilgan usulda yozilganda dori shakli, dori moddasining nomi, eritma turi (spirtli yoki moyli), foizlardagi darajasi va umumiy miqdori ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: *Solutiōnis Acīdi salicylicae spirituōsae 1 % 10 ml*

Da. *Signa*: Teriga surtish uchun.

Suvli eritmaları retseptlarda qisqartirilgan usulda yozilganda erituvchi ko'rsatilmaydi. Masalan:

Rp.: *Solutiōnis Kalii permanganātis 0,1 % 500 ml*

Da. *Signa*: jarohlarni yuvish uchun.

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar retseptlarda kengaytirilgan usulda yozilganda dorining barcha tarkibiy qismlari, shuningdek, erituvchilari ham to'liq ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: *Alumīnis 4,0*

*Acīdi borīci 6,0*

*Aquae destillātae 200 ml*

*Misce. Da.*

*Signa*: Surtish uchun.

Rp.: *Natrii tetraborātis 2,5*

*Glycerīni 50 ml*

*Spirītus aethylīci 0,5 % ad 10 ml*

*Misce. Da.*

*Signa*: teriga surtish uchun.

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar tayyorlash uchun tabletkalar ham ishlatilishi mumkin. Masalan:

Rp.: *Furacillīni 0,02 ad usum externum numēro 10*

Da. *Signa*: 1 tabletkani 100 ml suvda eritilsin. Chayqash uchun.

**ICHGA QO'LLASH UCHUN ERITMALAR (*SOLUTIŌNES AD USUM INTERNUM*)**

Ichga qo'llash uchun eritmalar (*Solutiōnes ad usum internum*) retseptlarda qisqartirilgan usulda yozilganda erituvchi –desterlangan suv (*aqua destillāta*), tozalangan suv (*aqua purificāta*) ko'rsatilmaydi.

Rp.: *Solutiōnis Calcii chlorīdi 5 % 200 ml*

Da. *Signa*: 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 mahal ovqatdan keyin.

Ichga qo'llash uchun eritmalar retseptlarda kengaytirilgan usulda yozilganda dorining barcha tarkibiy qismlari, shuningdek, erituvchilari ham to'liq ko'rsatiladi. Masalan:



Rp.: Cupri sulfātis 0,5

Aquae destillātae 50 ml

Misce. Da. Signa: 1 osh qoshiqdan chanqagan paytda.

Shuningdek, eritmalar anesteziya (sezishni yo'qotish) uchun tayyorlanadi. Anesteziya uchun eritmalar –Solutiōnes ad anaesthesiam deb ataladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Novocaīni 0,25 – 200 ml

Da. Signa. Anesteziya uchun.

Rp.: Novocaīni 1,25

Natrii chlorīdi 3,0

Kalii chlorīdi 0,038

Calcii chlorīdi 0,062

Aquae pro injectionibus 500 ml

Misceatur. Sterilisetur!

Detur. Signetur: Anesteziya uchun.

### DAMLAMA VA QAYNATMALAR (*INFŪSA ET DECOCTA*)

Damlama (*Infūsa*) va qaynatmalar (*Decocta*) –bu ekstrakt (so'rim)lar tayyorlash maqsadida o'simlik xom ashyosini suvda ivitish yoki suv hammomida qaynatish orqali olingan suyuqlikdir. Damlamalar uchuno'simlikning yumshoq qismlari –o't (herba, ae,f), barglar (folium,i,n), gullar (flos, floris,m), qaynatmalar uchun esa nisbatan qattiqroq, qo'polroq qismlari –ildizlar (radix, icis,f), ildizpoyalar (rhizoma, atis, n), po'stloqlar (cortex, icis, m) ishlatiladi. Damlamalar 15 daqiqagacha, qaynatmalar 30 daqiqa qaynatilishi mumkin. Damlamalar sovuq holda, qaynatmalar esa issiq vaqtida qabul qilinadi. Ular ex tempore –o'z vaqtida tayyorlanadi. Ular ichga va tashqariga qo'llash uchun retseptlarda yozib beriladi. Masalan:

Rp.: Infūsi foliōrum *Urticae* ex 7,5 – 10,0 – 200 ml

Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

Rp.: Decocti corticis *Viburni* ex 10,0 – 200 ml

Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

### TOMIZG'ILAR (*GUTTAE*)

Tomizg'ilar, tomchilar (*gutta,ae,f*) –bu ichga va tashqariga qo'llash uchun tomchilar bilan dozalangan, turli eritmalar va aralashmalardir. Ular retseptlarda kam miqdorlarda, 20-30 ml.gacha yozib beriladi. Masalan:

Rp.: Tinctūrae *Belladonnae* 10 ml

Tinctūrae *Valerianae* 20 ml

Menthōli 0,25

Da. Signa. 10-15 tomchidan kuniga 2-3 mahal.



Rp.: Extracti Viburni fluīdi 25 ml

Da. Signa: 20-30 tomchidan kuniga 2-3 mahal.

Tomizg'ilar –ko'z uchun tomchilar (Oculoguttae), burun uchun tomchilar (Nasoguttae), quloq uchun tomchilar (Otoguttae) sifatida ishlab chiqariladi.

Rp.: Solutiōnis Zinci 0,25 % - 5 ml

Da. Signa: Ko'z uchun tomizg'ilar. 2 tomchidan kuniga 3 mahal.

Rp.: Solutiōnis **Ephedrīni hydrochlorīdi 2 % - 10 ml**

Da. Signa: Burun uchun tomizg'ilar. 2-3 tomchidan har 3-4 soatda.

Rp.: Resorcīni

Acīdi salicylīci ana 2,0

Spirītus aethylīci 70 % ad 100 ml

Misce. Da.

Signa: 1-2 tomchidan quloqqa tomizilsin.

### **TINDIRMALAR (TINCTURAE)**

Tindirma (spirtli eritma)lar (tinctūra,ae,f) –bu dorivor o'simliklarning xom-ashyosi (o'simliklarning turli qismlaridan) spirtli-suvli yoki spirtli-efirli erituvchilarda tayyorlangan, rangli, shaffof dori moddasidir. Tindirmalarga offitsinal usuldagi retseptlar yozib beriladi. Ular ko'proq ichga qo'llash uchun foydalaniladi.

Efirli tindirmalarga resept yozilayotganda albatta efirli (aethereae) aniqlovchisi ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: Tinctūrae Araliae 50 ml

Da. Signa: 30-40 tomchidan kuniga 2-3 mahal ovqatdan oldin.

Rp.: Tinctūrae Valeriānae aethereae

Tinctūrae Convallariae ana 10 ml

Misce. Da. Signa: 20-30 tomchidan kuniga 3 mahal.

### **MIKSTURALAR (MIXTURAE)**

Mikstura (aralashma)lar (mixtūra,ae,f) – bir qancha dori shakllarini masalan, eritmalarni ekstraktlar bilan, qaynatmalarni tindirmalar yoki tuzlar bilan aralashtirish yo'li bilan olinadigan suyuqlikdir.

Aralashmalar tiniq -mixturae limpidae, xira -mixturae turbidae, chayqatib ishlatiladigan -mixturae agitandae turlariga bo'linadi.

Rp.: Infūsi foliōrum **Digitālis 0,5 - 180 ml**

Sirūpi simplicis 20 ml

Misce. Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

Rp.: Mixtūrae **antiasthmaticae Trascovi 200 ml**

Da. Signa: 1 choy qoshiqdan issiq sutga aralashtirib kuniga 2 mahal ovqatdan keyin.

### EKSTRAKTLAR (*EXTRACTA*)

Ekstrakt (so'rim)lar (*extractum,i,n*) – o'simlik xom-ashyosidan konsentrat-siya yo'li bilan tayyorlangan dori shaklidir. Konsentratsiya turiga qarab ular su-yuq ekstrakt – *extractum fluidum*, quyuq ekstrakt – *extractum spissum*, quruq ekstrakt – *extractum siccum* larga bo'linadi.

Ekstraktlovchi suyuqliklarning turiga qarab ular suvli (*extracta aquōsa*), spirtli (*extracta spirituōsa*), moyli (*extracta oleōsa*) larga bo'linadi.

Farmatsevtika amaliyotida bitta efirli ekstrakt – *extractum Filīcis maris ae-therium* erkak poporotnikning efirli ekstrakti yoki yanan sinonimi *extractum Filīcis maris spissum* – erkak poporotnikning quyuq ekstrakti qo'llaniladi.

Rp.: *Extracti Secālis cornūti fluīdi 20,0*

Da. Signa: 2 tomchidan kuniga 3 mahal.

Ba'zan retseptlarda suyuq ekstraktlar teri ostiga inyeksiya qilish uchun ampullalarda yozib beriladi. Masalan:

Rp.: *Extracti Aloēs fluīdi 1 ml*

Da tales doses numëro 10 in ampullis.

Signa: 1 ml.dan teri ostiga yuborilsin.

Retseptlarda quyuq va quruq ekstraktlar kapsulalarda, kukunlarda, tablet-kalarda, shamchalarda, pilulalarda yozib beriladi. Ular pilula massasi (*massa pilulārum*) tayyorlash uchun, dori shakllari tarkibida asos (*basis*) yoki yor-damchi vosita (*constituens*) sifatida qo'llanilishi mumkin.

Rp.: *Extracti Filīcis maris spissi 0,5*

Da tales doses numëro 12 in capsūlis gelatinōsis elastīcis

Signa: Barcha kapsulalar 30 daqiqa ichida qabul qilinsin.

Rp.: *Acīdi arsenicōsi anhydrīci 0,05*

*Extracti et pulvëris radīcis Glycyrrhīzae quantum satis, ut fiant pilū-lae numëro 50*

Da. Signa: 1 piluladan kuniga 3 mahal.

Rp.: *Hexamethylentetramīni 0,25*

*Extracti Belladonnae 0,015*

Dentur tales doses numëro 10 in tabulettis

Signa: 1 tabletkadan kuniga 3 mahal.

### SUSPENZIYALAR (*SUSPENSİONES*)

Suspensiya (*suspensio,onis,f*) – erimaydigan dori moddalari (*basis*) bilan suyuqliklar (*constituens*) – moylar, tozalangan suv, glitserinni aralashtirish

yoʻli bilan tayyorlanadigan suyuq dori shaklidir.

Suspenziyalar tashqariga qoʻllash uchun (ad usum internum) va ichga qoʻllash uchun (ad usum externum) qabul qilinadi.

Rp.: Hydrocortisōni acetātis 0,05

Aquae destillātae ad 10,0

Misce, fiat suspensio

Da. Signa: Qoʻllashdan oldin chayqatilsin. Koʻzga 2 tomchidan kuniga 4 mahal tomizilsin.

Rp.: **Suspensiōnis Hydrocortisōni acetātis 0,05 - 10,0**

Da. Signa: Qoʻllashdan oldin chayqatilsin. Koʻzga 2 tomchidan kuniga 4 mahal tomizilsin.

### EMULSIYALAR (EMULSA)

